



I.K. UMAROVA

# **BOYITISH FABRIKALARINI LOYIHALASH**




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**I. K. UMAROVA**

# **BOYITISH FABRIKALARINI LOYIHALASH**

*O'zbekiston Respublikasi Oily va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligining Muvofiglashtiruvchi kengashi tomonidan  
darslik sifatida tavsiya etilgan*



**TOSHKENT  
«TOSHKENT- MOLIYA»  
2015**

*Taqrizchilar:* tex. fan. nom. **X.Axmedov;**  
tex. fan. nom., dots. **L.Shoxodjayev**

**U-47 Boyitish fabrikalarini loyihalash:** Darslik / I.K. Umarova; -  
T.:Iqtisod-moliya, 2015. -168 b.

Ushbu darslikda boyitish fabrikalarini loyihalashga qo‘yiladigan talablar, loyihalashning mazmuni va hajmi, boyitish fabrikasi ishlab chiqarish unumдорligini tanlash va hisoblash , texnologik cxemalarni tanlash va hisoblash, asosiy boyitish dastgohlarini tanlash va hisoblash, boyitish fabrikasining tarkibi va bosh rejani loyihalash tamoyillari va h.k. lar keltirilgan.

В учебнике приведены содержание и объём проекта обогатительной фабрики и определение её производительности, выбор и расчёт технологических схем, основного обогатительного оборудования, состав обогатительной фабрики и принципы проектирования генеральных планов и др.

In the textbook the maintenance and volume of the project of concentrating factory, definition of productivity of concentrating factory, a choice and calculation of technological schemes, a choice and technological calculation of the basic concentrating equipment, structure of concentrating factory and principles of designing of general plans are resulted, etc.

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni boshidan kechirar ekan, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq u o‘zining imkoniyatlaridan foydalanish, iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni dunyodagi eng ilg‘or texnologiyalar asosida izchillik bilan rivojlantirishni maqsad qilib oldi. Respublikamiz iqtisodiyotini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishda konchilik sanoatining ahamiyati katta.

Ma’lumki, qazib olinadigan rudalar tarkibida qimmatbaho komponentning miqdori oz bo‘ladi. Bunday rudalardan metallarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratib olish iqtisodiy jihatdan ham, texnik jihatdan ham o‘zini oqlamaydi. Shuning uchun aksariyat hollarda ruda qazib olingandan keyin avval boyitiladi, ya’ni undagi qimmatbaho komponentning miqdori oshiriladi va boyitma holidagi mahsulot metallurgiya zavodlariga metall ajratib olish uchun jo‘natiladi. Foydali qazilmalarni boyitish jarayoni boyitish fabrikalarida amalga oshiriladi.

Ushbu darslikda boyitish fabrikasini loyihalash uchun kerak bo‘ladigan dastlabki ma’lumotlar, loyihalashni tashkil etish, olinadigan boyitmalarining sifatiga qo‘yiladigan talablar, boyitish fabrikasini ishlab chiqarish unumdorligini tanlash, fabrika bo‘linmalarining ishlash tartibi, texnologik sxemalarini tanlash va hisoblash, asosiy boyitish dastgohlarni tanlash va hisoblash, fabrika qurilishi uchun maydon tanlash, dastgohlarni binoda joylashtirishning asosiy sxemalari, boyitish fabrikasining tarkibi va bosh rejani loyihalash tamoyillari, chiqindi xo‘jaligi, aylanma suv ta’minoti, yerni qayta tiklash va h.k. masalalar ko‘rib chiqilgan.

Taqdim etilayotgan darslik muallifning “Boyitish fabrikalarini loyihalash” fanidan o‘zbek tilida o‘qiyotgan ma’ruzalari asosida yozilgan. Shu kungacha “Boyitish fabrikalarini loyihalash” fanidan o‘zbek tilida yozilgan adabiyotlarning umuman yo‘qligi, ayrim texnika atamalarning tarjimasi hali qabul qilinmaganligi sababli muallif darslikda yo‘l o‘yilgan so‘z tuzilishidagi ayrim kamchiliklarni e’tirof etilishini so‘raydi.

## I bob. UMUMIY BO'LIM

### 1. Boyitish fabrikasini loyihasining mazmuni va hajmi

O'zbekistonning moddiy texnika bazasini yaratishda yangi sanoat korxonalarini ishga tushirish asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

Mavjud qonunlarga asosan kapital qurilish faqat tasdiqlangan loyiha va smeta asosida mablag' bilan ta'minlanadi. Shuning uchun kapital qurilishda loyiha qidiruv ishlari alohida o'rinni egallaydi.

Boyitish fabrikasini loyihalash deb kelajakda ishga tushadigan fabrikani qurish, montaj va ekspluatatsiya qilish uchun kerak bo'ladigan texnik hujjatlarning majmuasiga aytildi.

Boyitish fabrikalari mahsus loyiha institutlari tomonidan loyiylanadi.

Loyihalovchi tashkilotlar o'z loyihalarda fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini qo'llab shunga erishishlari kerakki, qurilayotgan va qayta rekonstruktsiya qilinayotgan korxona ishga tushayotganda ilg'or texnikaga hamda mehnat unumдорligi va mahsulotning sifati bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak.

Boyitish fabrikalarini loyihalashga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Mineral xomashyoni ratsional va kompleks ishlatish: loyihalana-yotgan boyitish fabrikasining rentabelligini oshirish uchun sanoat chiqindilarini ishlatish yo'llarini qidirish kerak (chiqindisiz texnologiyani joriy qilish).

2. Yuqori ishlab chiqarish unumдорligiga ega bo'lgan dastgohlarni ishlatib, ishlab chiqarish jarayonini kompleks mexanizatsiyalab, ishlab chiqarishni boshqarish va nazoratini avtomatlashтирishni qo'llab texnologik jarayonlarni jadallashtirishga va buning natijasida yuqori mehnat unumдорligiga erishishni ta'minlash.

3. Atrof – muhitni va yerni ifloslanishdan saqlashning samarali usullarini tejamli ishlatish.

4. Fabrikani elektr energiya, suv, kanalizatsiya, transport, yong'inga qarshi kurash, dastgohlarni ta'mirlash, aholi yashaydigan qishloqlarni qurish va h.k. kabi masalalarni hal qilishda loyihalanayotgan fabrikaning

boshqa korxonalar bilan kooperatsiyalashtirish (birlashtirish) imkoniyatlarini ishlatalish.

5. Loyihalanayotgan fabrikaning bosh rejasini tuzishda sanoat maydonchasidagi uning sexlarini ixcham joylashtirish, imkoni bo'lsa sexlarni umumiy bo'limning ichiga joylashtirishning yo'llarini topish.

6. Fabrikani loyihalashda sanoat maydonlari, idora va maishiy binolarda, shuningdek, ularni ichki va tashqi bezashda ortiqcha dab-dabaga yo'l qo'ymaslik.

7. Fabrikada xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash.

Boyitish fabrikalari kon bilan metallurgik zavod yoki boyitish korxona va boshqa boyitish mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar orasida oraliq zvenoni egallaydi. Shuning uchun fabrika loyihasi ishlab chiqarish unumdorligi fabrikaga beriladigan mahsulot va ishlab chiqariladigan boyitma sifati, ularni berish grafigi, qo'llaniladigan transport turi jihatidan kon va metallurgik zavod loyihasi bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Instruktsiyaga asosan korxona, bino va inshootlarni qurish uchun texnik ish loyihalalarini ishlab chiqish kerak.

Yirik va murakkab ob'yektlar uchun ikki bosqichda loyihalashga ruhsat etiladi-texnik loyiha va ish chizmalari. Loyihalashning necha bosqichda amalga oshirilishi korxona qurilishini texnik-iqtisodiy asoslashni tasdiqlovchi tashkilot tomonidan qabul qilinadi.

Texnik-iqtisodiy asoslashda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: loyihalanayotgan fabrikaning ishlab chiqarish unumdorligini tanlashni asoslash; loyihalanayotgan fabrikaning boshqa sanoat tarmoqlariga ta'siri; kapital mablag'lar hajmi va mahsulot tannarxi haqidagi mulohazalar; kutilayotgan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'xshash, mamlakatimiz va chet el fabrikalari ko'rsatkichlari bilan taqqoslash va h.k.

Texnik loyiha tasdiqlangan loyihalashga topshiriq asosida ishlab chiqiladi va quyidagi vazifalarni belgilaydi: eng kichik ekspluatatsion harajatlar va eng yuqori kapital mablag'lar samaradorligida eng samarali boyitish usulini tanlash; boyitish fabrikasi qurilishini tamomlash muddatini aniqlash; uning smeta qiymatini aniqlab, asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilash.

Texnik loyiha, qoidaga ko'ra quyidagi qismlardan tashkil topadi: loyihaning qisqacha mazmuni bayon etilgan umumiy tushuntirish xati; texnik iqtisodiy, bosh reja, transport, zararlangan yer maydonini tiklash (rekul'tivatsiya), ishlab chiqarish texnologiyasi, energoresurslar ta'mi-

noti, atrof-muhit muxofazasi, mehnati tashkil etish va sanoat korxonasini boshqarish sistemasi, qurilish, qurilishni tashkil etish.

Energiya ta'minoti bo'yicha materiallar texnologik qismiga, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilar maydoni, isitish, ventilyatsiya va h.k.lar qurilish qismiga kiritiladi. Yirik boyitish fabrikalarini loyihalashda bu materiallar alohida qismga ajratilishi mumkin. Buning aksicha, kichikroq ishlab chiqarish unumdoorligiga ega boyitish fabrikalarini loyihalashda texnik loyihaning qismlari bosh reja va transport bo'yicha materialni qurilish qismga qo'shish orqali qisqartirilishi mumkin. Boyitish fabrikasi texnik loyihasining alohida qismlarida quyidagi masalalar ishlab chiqiladi.

*I. Umumiy tushuntirish xati.* Loyiha ishlab chiqish uchun asos, dastlabki ruda va boyitma bo'yicha ishlab chiqarish unumdoorligi; asosiy loyiha yechimlari, texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar, kapital mablag'lar, qurilishning navbatlari va ishga tushirish muddatlari.

*II. Texnik-iqtisodiy qism.* Qurilish maydoni ishlab chiqarish unumdoorligi va boyitish fabrikasi qurilishi navbatlarini tanlashni asoslash.

Fabrikaning foydali qazilma navlari va zaxiralari bo'yicha xomashyo bazasining kvalifikatsiyasi. Foydali qazilmani fabrikaga keltirish usullari. Fabrikani suv, energiya, materiallar bilan ta'minlash vositalari, fabrika va uning alohida sexlarining ish tartibi. Loyihalanayotgan boyitish fabrikasining boshqa korxonalar bilan aloqlari. Qo'shni korxonalar bilan kooperatsiyalashtirish. Injener-texnik xodimlar, ishchilar asosiy kategoriyasiga bo'lgan ehtiyojni va ish xaqining miqdorini aniqlash. Kapital mablag'lar va ishlab chiqarish vositalarining , 1 tonna mahsulotni boyitish tannarxi; mahsulotning, boyitmaning tannarxi, mehnat unumdoorligi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish. Uy-joy qurilishining hajmi va narxi, ishchilar shaharchasining joylashgan o'rni, binoning qavatlari, materiali, injenerlik dastgohlari. Qurilish iqtisodiy samaradorligining tahlilr.

*III. Bosh reja, transport va ishdan chiqqan tuproqni tiklash (rekul'tivatsiya).* Boyitish fabrikasi ishlab chiqarish maydonida binolarning, sexlarning, inshootlarning, ombor, temir yo'llar, relssiz yo'llar va boshqa kommunikatsiyalarning joylashishi. Rejalashtirish yechimlari, vertikal rejalashtirish va territoriyani obodonlashtirish. Fuqarolar muhofazasi bo'yicha tadbirlar. Bosh rejaning asosiy ko'rsatkichlari. Tuproqni rekultivatsiyalash bo'yicha yechimlar.

#### **IV. Ishlab chiqarish texnologiyasi, energoresurslar bilan ta'minlash va atrof-muhitni himoya qilish.**

Mahsulotni uning moddiy tarkibi, qimmatbaho komponentlarning miqdori, mineral tarkibi, namligi, loyli qo'shimchalarining mavjudligi, mustahkamligi, sochma zichligi, granulometrik tarkibga ko'ra kvalifikatsiyasi. Amalda ishlab turgan va shunga o'xshash mahsulotni boyituvchi fabrikaning tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish. Boyitishning sifat sxemasini loyihalanayotgan texnologik ko'rsatkichlar bilan asoslash. Boyitishning miqdor va suv sarfi sxemalari, qimmatbaho komponentlar va suv bo'yicha balanslar. Asosiy dastgohning turi, o'lchami va sonini tanlash, alohida sexlarda dastgohlarni o'matish variantlarini taqqoslash va tanlash. Sex ichida ishlatiladigan transport variantlarini taqqoslash va tanlash. Texnologik jarayonlarni sinab ko'rish, nazorat qilish va avtomatlashtirish. Reagent xo'jaligi (flotatsiya fabrikalari uchun). Ko'tarma transport vositalarini tanlash. Yonilg'i, reagent va materiallarga bo'lgan ehtiyoj. Atmosfera havosini ifloslanishdan himoya qilish tadbirlari.

Quritish pechlari gazlarini tozalash.

#### **V. Mehnatni tashkil qilish va ishlab chiqarishni boshqarish sistemasi.**

Mehnat va dam olish tartibi, mehnatkashlarning shtatlari, texnika xavfsizligi bo'yicha tadbirlar. Zamonaviy texnika bilan ta'minlangan ishlab chiqarishni boshqarishni tashkil etish.

**VI. Qurilish qismi.** Qurilishning birinchi navbatni asosiy bino va inshootlarining rejasi va qirqimi. Asosiy bino va inshootlarning maydoni, hajmi va o'lchami, konstruksiya va materiallarning turi bo'yicha kvalifikatsiyasi; boyitish fabrikasida mehnatkashlarga maishiy xizmat ko'rsatish yechimlari. Suv sarfini aniqlash. Suv bilan ta'minlash manbalarini tanlash. Chiqindilar uchun maydon va ularni joylashtirish usulini tanlash, fabrika oqava suvlarini tozalash usulini tanlash. Aylanma suv ta'minoti sistemasi; suv ta'minoti, kanalizatsiya va sanitarni jihozlar sxemasini tanlash. Isitish, ventilyatsiya va havoni kondensatsiyalash uchun sarflanadigan issiqlik va energiyaning miqdorini aniqlash. Isitish, ventilyatsiya, aspiratsiya va changni ushslash uchun sistema va asosiy dastgohlarni tanlash.

**VII. Qurilishni tashkil etish.** Boyitish fabrikasi qurilishi rejasi va tartibi, yirik bino va inshootlar bo'yicha ishlab chiqarish usullarining bayoni. Asosiy qurilish va montaj ishlarni hajmini hisoblash, qurilish materiallari va mexanizmlari. Elektr energiya, suv va bug'ga bo'lgan

ehtiyoj, ularga bo‘lgan ehtiyojlarni ta’minlash manbalari. Fabrikani qurish uchun kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj, quruvchilarni uy-joy bilan ta’minlash tadbirlari.

**VIII. Loyiha qvvatini o‘zlashtirishga tayyorgarlikni tashkil etish va loyiha qvvatini belgilangan muddatda o‘zlashtirish.** Quvvatni o‘zlashtirishni ta’minlash bo‘yicha o‘tkaziladigan tashkiliy, texnik va boshqa tadbirlar.

**IX. Smeta qismi.** Boyitish fabrikasi va uning alohida sexlarining qurilish qiymatini belgilovchi smeta xujjalari.

Texnik loyihaning tushuntirish xati aniq va qisqa bo‘lishi kerak. Texnologik va boshqa hisoblashlar bilan bog‘langan algebraik va arifmetik amallar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday hisoblashlarning faqat dastlabki holatlari va oxirgi natijalari ko‘rsatiladi.

**Texnik loyihaning grafik qismi** minimal kerakli hajmda tuziladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: birlashtirilgan sifat-miqdor va suv sarfi sxemasi, dastgohlarning spetsifikatsiyasi bilan apparatlar zanjiri sxemasi, konstruktiv reja va asosiy dastgohlar hamda qurilish konstruksiyalari kiritilgan ishlab chiqarish sexlarining kesimi, elektr ta’minoti sxemasi, boyitish fabrikasining bosh rejası, chiqindilar maydoni uchun ko‘rsatilgan joyning rejası va hokazolar. Chiqindilar maydoni uchun ajratiladigan yer maydonini foydalanish uchun yaroqli holga keltirish. Sexning rejası va kesimlarini ifodalovchi chizmalarning masshtabi – 1:100 yoki 1:200. Fabrika bosh rejasining masshtabi sanoat maydonchasining yuzasiga bog‘liq holda 1:500 dan 1:2000 gacha qabul qilinadi.

Ish chizmalari tasdiqlangan texnik loyiha va buyurtmachidan buyurtiriluvchi dastgohlar bo‘yicha olingan texnik ma'lumotlar asosida ishlab chiqiladi. Ishchi chizmalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- texnologik, transport, energetik va boshqa dastgohlarni o‘matish hamda bu dastgohlar bilan bog‘liq kommunikatsiyalarning chizmalari;
- energiya ta’minoti, yoritish, avtomatlashtirish, signalizatsiya, suv ta’minoti, isitish, shamollatish, kanalizatsiya va boshqa moslama hamda tarmoqlarning chizmasi;
- arxitektura-qurilish chizmalari – qavatlar bo‘yicha reja, binoning old ko‘rinishi va kesimlari;
- qurilish konstruktсиyalарини montaj qilish chizmalari, bino va dastgohlar fundamentlarining chizmasi;
- nostonart dastgohlarning chizmalari; tabiatni asrash, mehnatni muhofaza qilish bilan bog‘liq inshoot va moslamalarning chizmasi;

Boyitish fabrikasi ishchi chizmalari tarkibida umumiy (yig'ilgan) chizmalar ishlab chiqiladi va ularda dastgohlar bilan qurilish kommunikatsiyalari, elyektr ta'minoti moslamalari, sanitarni texnika va boshqa barcha turdag'i kommunikatsiyalar bir-biri bilan bog'lanadi.

Ishchi chizmalarning soni qurilish va montaj ishlarini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda kam bo'lishi kerak.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Loyihalovchi tashkilot, homashyoni kompleks ishlatalish, yuqori mehnat unumadorligi, iqtisodiy samaradorlik, bosh reja, texnik-iqtisodiy asoslash, texnik loyiha, ish chizmalari, loyihalashga topshiriq.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Boyitish fabrikasini loyihalash uchun topshiriq nima asosida tuziladi?

2. Boyitish fabrikasini loyihalash uchun topshiriq kim tomonidan tasdiqlanadi?

3. Boyitish fabrikasini loyihalashga topshiriqda qanday masalalar ko'rsatiladi?

4. Qurilish maydonchasi haqidagi ma'lumotlarga nimalar kiradi?

5. Qurilish rayoni haqidagi iqtisodiy ma'lumotlarga nimalar kiradi?

6. Konni geologo- texnologik o'r ganish haqidagi ma'lumotlarga nimalar kiradi?

7. Loyihaning kon qismi ma'lumotlariga qanday ma'lumotlrl kiradi?

8. Foydali qazilmbani boyituvchanlikka moyilligini o'r ganishga doir tadqiqot ishlarining natijalari haqidagi ma'lumotlarga nimalar kiradi?

### **2. Boyitish fabrikasini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar**

Boyitish fabrikasining loyihasini ishlab chiqish uchun quyidagilar kerak:

- loyihalash uchun topshiriq, sanoat maydoni bo'yicha topografik va injener-geologik ma'lumotlar, qurilish maydoni bo'yicha iqtisodiy ma'lumotlar;

- loyihaning kon qismi bo'yicha asosiy ma'lumotlar;

- normativ materiallar, foydali qazilmani moddiy tarkibi va boyitiluvchanlikka moyilligini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari natijalari.

Boyitish fabrikasini loyihalashga topshiriq vazirlik yoki korxona direksiyasi tomonidan tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslashga va shu sanoat tarmog'ini rivojlantirish rejasiga muvofiq holda tuziladi. Topshiriq fabrika loyihasini tasdiqlovchi instantsiya tomonidan tasdiqlanadi.

Fabrikani loyihalashga topshiriqdagi quyidagilar ko'rsatiladi:

- loyihalash uchun asos (Vazirlar Mahkamasining qarori, vazirlik bo'yicha buyruq va hokazo);
  - fabrika qurilish rayoni yoki punkti;
  - fabrikaning dastlabki ruda yoki tayyor mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumдорлиги;
  - mahsulot bilan ta'minlash manbalari va kondagi foydali qazilmaning tasdiqlangan zaxiralari;
  - fabrikaning suv va elektrenergiya bilan ta'minlash manbalari;
  - boshqa korxonalar bilan ko'zda tutilgan ishlab chiqarish va xo'jalik aloqalari;
  - fabrikaning tayyor mahsulotiga qo'yiladigan talablar va uning iste'molchilari;
    - qurilish muddatlari va navbatlari;
    - kapital mablag'larning taxminiy o'lchamlari;
    - 1 tonna mahsulotni qayta ishlashning taxminiy narxi va tayyor mahsulotning tannarxi.

*Qurilish maydonchasi haqida ma'lumotlar:*

- joyning mavjud bino va inshootlarini, shoxobcha yo'llar va o'simlik qoplami va gorizontal chiziq bo'ylab topografik rejasi;
- tuproqning tarkibi va fizik xususiyatlari, ularga ruxsat etilgan yuklar;
- yer osti suvlaring sathi va tarkibi, tuproqning muzlash chuqurligi, ustunlik qiluvchi shamolning yo'nalishi, yog'ingarchilik miqdori, haroratning tebranishi, mahalliy qurilish materiallarining xususiyati, suv ta'minoti manbalari, ularning debiti, suvning kimyoviy va bakteriologik tarkibi, undagi mexanik qo'shimchalar;
- elektr ta'minoti manbalari va ularning xususiyatlari.

## ***Qurilish rayoni haqidagi iqtisodiy ma'lumotlar:***

- rayon sanoat rivojlanishining harakteri va istiqbollari, yonilg'i resurslari va mahalliy yonilg'ining narxi;
- transport sharoiti, suv va elektrenergiyani olinish sharoitlari va belgilangan narxi;
- asosiy materiallarning mavjudligi va narxi;
- fabrikani ishchi kuchi bilan ta'minlash imkoniyati va ishchilarni mayjud aholi yashash turar joylariga joylashtirish.

***Konni geologo-texnologik o'rganish ma'lumotlari*** konning rudasini boyitish ob'yekti sifatidagi tavsifini, ruda sifatini, qimmatbaho komponentning miqdori, yirikligi, qattiqligi, kondagi va fabrikaga kelib tushishdagi oksidlanish darajasidagi tebranishlarni o'z ichiga oladi.

## ***Loyihaning kon qismi ma'lumotlari:***

- kon rivojlanishining kalendar rejasi foydali qazilma navlarini ko'rsatgan holda;
- foydali qazilma alohida navlari dagi qimmatbaho komponent va zararli qo'shimchalarining miqdori;
- konni ekspluatatsiya qilish davrida uning sifatini tebranish imkoniyatlari;
- foydali qazilmaning yiriklik kvalifikatsiyasi va boshqa fizik xususiyatlari, xususan, namligi, loyning miqdori, zichligi, sochma zichligi;
- yil davomida, haftada, sutkada boyitish fabrikasiga foydali qazilmaning kelib tushish grafigi, kondan fabrikaga rudani tashish transporti turi. Konda rudani o'rtachalashtirish bo'yicha ko'zlangan tadbirlar.

## ***Foydali qazilmani boyituvchanlikka moyilligini o'rganishga oid tadqiqot ishlaring natijalari haqidagi ma'lumotlar:***

Sifatli boyitish sxemasini tanlash uchun quyidagilar zarur:

- foydali qazilmani mineralogik va kimyoziy tahlili;
- tabiiy jarayonlar natijasida qazilmani yemirilish darjasasi, undagi loy va birlamchi shamlarning miqdori;
- tashqi namlikning miqdori;
- qazilmaning yiriklik tavsifi va undagi eng katta bo'lakning o'lchami;

- alohida bosqichlarga kelib tushadigan materialning bosqichlari soni va yirikligi bilan farq qiluvchi istiqbolli sxemalar bo'yicha boyituvchanligini o'rganish natijalari;

- fabrika o'rtachalashtirilgan rudada ishlagandagi boyitish ko'rsatkichlari va tartibini o'zgarishi va o'rtachalashtirishdan olinadigan iqtisodiy samara.

Miqdor va sifat sxemasini hisoblash uchun quyidagilar kerak:

- maydalangan mahsulotlarning yiriklik tavsifi;
- alohida operatsiyalar mahsulotlaridagi qimmatbaho komponentning miqdori haqidagi ma'lumotlar;

- qimmatbaho komponentlarning alohida operatsiyalarga xususiy va umumi ajralishi;

- dastlabki bo'tana va alohida operatsiyalar mahsulotlaridagi qattiq zarrachalarning suyuqlikka nisbati;

- alohida operatsiyalarga qo'shiladigan toza suvning solishtirma sarfi.

Dastgohlarning ishlab chiqarish unumдоригини aniqlash uchun si-nash natijalari yoki solishtirma yuk me'yorlarini belgilay oladigan amaliy ma'lumotlar kerak.

Flotatsiya mashinalari, kontakt chanlari va suvsizlantiruvchi buniyerlarni tanlash uchun har qaysi operatsiyadagi qayta ishlanuvchi mahsulotning vaqtini belgilash kerak. Bu ma'lumotlar tadqiqot ishlari natijalari hisobotida bo'lishi kerak.

### Tayanch so'z va iboralar

Topshiriq, qurilish maydoni, iqtisodiy ko'rsatkichlar, normativ hujjatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari, texnologik ko'rsatkichlar, sxemalar, operatsiyalar, boyitish darajasi.

### Nazorat uchun savollar

1. Boyitish fabrikalarini loyihalash qay tartibda amalga oshiriladi?
2. Boyitish fabrikalarining qanday turlari mavjud?
3. Boyitishning texnologik operatsiyalari deb nimaga aytildi?
4. Boyitish sxemalari qanday turlarga bo'linadi?
5. Boyitishning texnologik ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Boyitmaga ajralish qaysi formuladan topiladi?

7. Boyitmaning chiqishi qaysi formuladan topiladi?
8. Boyitish darajasi deganda nima tushuniladi?

### **3. Loyihalashni tashkil etish tartibi**

Boyitish fabrikasining loyihasini ishlab chiqish juda murakkab masala bo'lib, uni yechishga ko'p tashkilotlar jalg qilinadi. Tarmoqning (masalan, mis sanoati, kamyob metalllar sanoati) rivojlanish rejasiga asosida Vazirlar Mahkamasi yangi konni o'zlashtirish va kon boyitish kombinati yoki kon-metallurgiya kombinati qurish haqida qaror qabul qiladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida bosh loyihalovchi tashkilot ham belgilanadi. Birinchi bosqichda tarmoqning bosh boshqarmasi buyurtmachi bo'lishi mumkin. Fabrikani loyihalovchi texnologik loyihalash institutiga boyitish bo'yicha tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlari olib borish topshiriladi. Shu bilan bir vaqtda qurilish maydonini tanlash uchun vazirlik tomonidan komissiya tuziladi.

Komissiyaning qurilish maydonini tanlash haqidagi akti, boyitish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarning natijalari, kon qismi bo'yicha va boyitmani iste'molchiga berish to'g'risidagi materiallar fabrika texnik-iqtisodiy asoslashi (TIA) ni tuzish uchun loyihalovchi tashkilotga beriladi. Texnik-iqtisodiy asoslash asosida fabrikani loyihalashga topshiriq ishlab chiqiladi va u tasdiqlangandan keyin fabrikaning texnik loyihasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **4. Boyitish fabrikalarining tasnifi**

Boyitish fabrikasi deb, foydali qazilma tarkibidagi bir yoki bir necha yuqori qiymatga ega qimmatbaho komponent yoki kam miqdorda zararli komponent saqlovchi mahsulotni ajratib olish maqsadida ishlashga mo'ljallangan sanoat korxonasiga aytildi.

Boyitish fabrikalari unda qo'llaniladigan boyitish jarayonlariga, yo'q qayta ishlanadigan foydali qazilmalarning turiga qarab bo'linadi.

1. Flotatsiya fabrikalari asosan rangli va kamyob metalllar rudalarini, shuningdek, nometall foydali qazilmalarni boyitishga mo'ljallangan.

2. Gravitatsiya fabrikalarida ko'pincha ko'mir, marganetsli rudalar va kamyob hamda nodir metalllar rudalari va qumlar boyitiladi.

3. Yuvuvchi fabrikalarda temir, marganet kabi qora metallli rudalar, shuningdek, fosforitli rudalar va nodir metalllar qumlari boyitiladi.

4. Magnit boyitish fabrikalarida asosan magnetitli temir rudalari boyitiladi.

5. Maydalash - saralash fabrikalar boy temirli rudalar va ohaktosh, qurilish shag'ali, yonuvchi slanets va ko'mirlarni saralash uchun mo'ljallangan

Boyitishing jamlangan usullarini qo'lllovchi fabrikalar ko'p mineral-larni saqlovchi foydali qazilmalarni qayta ishlashda qo'llanilib, bunda boyitish gravitatsiya, flotatsiya, magnitli separatsiyani qo'llab amalga oshiriladi yoki kuchli va kuchsiz magnitli temirli rudalarni boyitishga mo'ljallangan. Keyingi holdagi fabrikalarda magnit va gravitatsiya usulida boyitish yoki magnit va flotatsiya usulida boyitish qo'llaniladi.

Qayta ishlanadigan foydali qazilmalarning miqdoriga qarab boyitish fabrikalari quyidagilarga bo'linadi:

Kichik ishlab chiqarish unumdorligiga ega -1500 t/sut

O'rtacha ishlab chiqarish unumdorligiga ega – 1500-9000 t/sut

Katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega – 9000-27000 t/sut

Juda katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega-27000 t/sut dan katta

Ko'mir boyitish fabrikalari quyidagicha bo'linadi:

Yakka tartibdag'i - fabrika joylashgan joydagi shaxta ko'mirini boyituvchi fabrika.

Guruqli-fabrikaga yaqin joylashgan va fabrikaning o'zining ko'mirini boyituvchi fabrika.

Markaziy – shaxta territoriyasidan tashqaridagi va bir necha shaxtalarning ko'mirini boyituvchi fabrika.

## 5. Asosiy tushunchalar, terminlar va shartli belgilar

***Texnologik operatsiyalar*** – foydali qazilmaning sifatini o'zgartirish yoki turli sifatlari mahsulotlarga ajratish maqsadida o'tkaziladigan mexanik operatsiyalar (mexanik operatsiyada rudani tashkil qiluvchi mineralarning tarkibi o'zgarmaydi).

Qayta ishlanayotgan foydali qazilmaning va olinayotgan mahsulotlarning sifatiga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan sxema sifat sxemasi; qayta ishlanayotgan foydali qazilmaning va boyitish mahsulotlarining miqdoriga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan sxema miqdor sxemasi; alohida operatsiyalar va mahsulotlarga qo'shiladigan suvning miqdorini hamda alohida operatsiyalar va mahsulotlardagi suvning

miqdorini ko'rsatuvchi sxema suv sarfi sxemasi deyiladi. Odatda, bu uchta sxema bitta texnologik sxemaga birlashtiriladi.

Sifat sxemasining asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi sxema prinsipial sxema deyiladi.

Apparatlar zanjiri sxemasi boyitish fabrikasida foydali qazilma va uni qayta ishlash mahsulotlarining harakatlanish yo'nalishini, apparat-larning turi, o'lchami va sonini ko'rsatgan holda grafik ifodalanishini ko'rsatadi.

**Boyitish bosqichlari** – dastlabki ruda yoki ma'lum yiriklikkacha maydalangan mahsulot bilan o'tkaziladigan boyitish operatsiyalarining majmui. Masalan, agar ruda 2 mm gacha yanchilib, oraliq mahsulot qaytadan yanchilmasdan cho'ktirish va boyitmasiyalashga uchratilsa, rudani cho'ktirish mashinasi va boyitmasion stolda boyitish operatsiyalarining sonidan qat'iy nazar bunday sxema bir bosqichli boyitish sxemasi deyiladi. Lekin, oraliq mahsulot, masalan, 0,5 mm gacha yanchilib, keyin yana boyitilsa, bunday sxema ikki bosqichli boyitish sxemasi deyiladi.

**Boyitish sikli** – foydali qazilmani sifatiga, boyitish maqsadiga yoki boyitish jarayonining o'ziga va uning tartibiga tegishli boyitish operatsiyalarining alohida ajralib turadigan guruhi. Masalan, agar volframitli rudani boyitish sxemasi boyitma stolda boyitish va magnit separatsiyasini o'z ichiga olsa, bunday sxema ikkita boyitmasiya va magnit separatsiyasi siklidan iborat bo'ladi.

Qo'rg'oshin-ruxli rudalarning flotatsiyasida qo'rg'oshinli, ruxli va kollektiv flotatsiya sikllari bo'ladi. Qo'rg'oshinli siklning barcha operatsiyalari umumiyligi maqsadga ega bo'lib, (qo'rg'oshinli minerallarni boshqalaridan ajratish) reagent tartibining umumiyligi bilan harakterlanadi. Ruxli va kollektiv flotatsiya sikllarining operatsiyalari ham o'zlarining har qaysi sikllari uchun umumiyligi xususiyatlariga ega.

**Texnologik ko'rsatkichlarni shartli belgilash va asosiy nisbatlari.** Formulalarda quyidagi belgilashlar va texnologik ko'rsatkichlarni yozish qoidalarini qabul qilamiz:

- avtomat ko'rsatkichlar – vaqt birligi ichida tonnalarda;
- nisbiy ko'rsatkichlar – foizlarda yoki birlik ulushlarida;
- pastki indeks – sxemadagi mahsulot yoki operatsiyaning raqami; mahsulotlarning raqami arab sonlari, operatsiyalarning raqami rim sonlari bilan belgilangan. Yuqori indeks – ma'lum sinfdagi zarracha-

larning yirikligi (maksimal, minimal, o'rtacha) yoki mahsulotda bo'lgan qaysidir komponentning belgisi hisoblanadi.

•  $Q_n$  – n raqamli quruq mahsulotining massasi (shuningdek,  $Q_1$  – boyitish fabrikasiga kelib tushadigan dastlabki quruq mahsulotning massasi);

•  $\gamma_n$  –  $Q_n$  fabrikaning dastlabki mahsulotiga nisbatan chiqish;

$$\bullet \gamma_n^1 = \frac{Q_n}{Q_1}$$

Operatsiyaga tushuvchi mahsulot massasi,

• operatsiyalarga tushuvchi mahsulotning chiqishi (xususiy chiqish);

•  $\beta_n$  – mahsulotdagi hisoblanuvchi komponentning miqdori (metallning, mineralning va h.k);

•  $\Delta \beta_n^d$  – o'rtacha o'lchami  $d$  bo'lgan fraksiyaning yirikligi bo'yicha mahsulotdagi miqdori;

•  $\beta_n^{-d}$  – mahsulotdagi  $0$  dan  $d$  gacha yiriklikdagi sinfning miqdori;

•  $\beta_n^{+d}$  – mahsulotdagi  $d$  dan yirikroq sinfning miqdori;

•  $\beta_n^{-a+d}$  – mahsulotdagi  $-a + d$  gacha yiriklikdagi sinfning miqdori;

•  $P_n = Q_n \cdot \beta_n = Q_n \cdot \gamma_n$  – mahsulotdagi hisoblanuvchi sinfning massasi ( $P_1 = Q_1 \cdot \beta_1$  – dastlabki mahsulotdagi hisoblanuvchi sinfning massasi);

$$E_n = \frac{P_n}{P_1} = \frac{Q_n \cdot \beta_n}{Q_1 \cdot \beta_1} = \frac{\gamma_n \cdot \beta_n}{\beta_1}$$

fabrika dastlabki mahsulotiga

nisbatan  $n$  mahsulotga qimmatbaho komponentning ajralishi (umumi ajralish);

•  $E_n$  – opyeratsiyaga tushayotgan mahsulot bo'yicha  $n$  mahsulotga qimmatbaho komponentning ajralishi (xususiy ajralish);

• a – elak ko'zi teshigining o'lchami, mm;

• d – zarrachaning o'lchami, mm;

• I – maydalagich bo'shatish tuynugining kengligi, mm;

• S – maydalash darajasi (yanchish).

## 6. Boyitmaning sifatiga qo'yiladigan talablar

Boyitmaning sifatiga qo'yiladigan talablar davlat standartlari yoki vazirlilik va kombinatlarning texnik talablari asosida aniqlanadi. Quyida rangli va qora metalllar rudalari hamda ko'miming boyitmalarini

tarkibidagi asosiy qimmatbaho komponentlar va zararli qo'shimchalar ning miqdoriga doir ma'lumotlar keltirilgan.

**O'rғoshinli boyitmalar** shaxtali yoki gornli eritish uchun qayta ishlanadi. Gornli eritish uchun qo'rg'oshining miqdori 70% dan kam bo'limgan, zararli qo'shimchalarning miqdori esa  $\text{SiO}_2 < 2\%$ ,  $\text{Cu} < 1.5\%$ ,  $\text{Zn} < 2.5\%$ ,  $\text{Fe} < 8\%$  bo'lgan boyitma talab qilinadi. Shaxtali eritish uchun boyitmadagi zararli qo'shimcha rux va mis hisoblanadi. Boyitmadagi qo'rg'oshin va zararli qo'shimchalarning ruxsat etilgan miqdorlari: 70-30% Pb, 2,5-12% Zn, 1,5-4% Cu.

**Ruxli boyitmalar** distilyatsiyalovchi va elyektroliz zavodlarida qayta ishlanadi. Boyitmada eng zararli qo'shimcha bo'lib temir (shuningdek, qo'rg'oshin, mis va mishyak ham nomaqbul hisoblanadi) bo'lib, asosan pirit va pirrotin minerallarida va sfaleritning o'zida izomorf qo'shimcha sifatida uchraydi.

Boyitmadagi rux va temirning ruxsat etilgan miqdorlari: 53-40 % Zn, 7-16% Fe.

**Misli boyitmalar** yallig' pechlarda kuydirilgandan keyin shteyn eritishga tushadi. Boyitmadagi misning miqdori qimmatbaho komponentning mineral tarkibi va mis sulfidlarining boshqa minerallar bilan bog'lanish hususiyatiga qarab keng chegarada o'zgarishi mumkin. Shuning uchun har qaysi boyitish fabrikasida misli boyitmadagi misning miqdori bo'yicha o'zining konditsiyalari o'matiladi: 45-12 % Cu. Boyitmada zararli qo'shimchalar bo'lib rux va qo'rg'oshin, glinozem hisoblanadi.

Qo'rg'oshin-rux sanoatining misli boyitmalari uchun quyidagi chegaralar byelgilangan: 20-11% Cu, 7-19% Pb, 6-19% Zn.

**Molibdenli boyitmalarini** asosan metallurgiya sanoati iste'mol qiladi. Undagi eng zararli qo'shimchalar bo'lib fosfor, mishyak va qalay (mis va kremnezem ham nomaqbul) hisoblanadi. Boyitmadagi molibden va zararli qo'shimchalarning ruxsat etilgan chegaralari: 50-47% Mo, 5-7%  $\text{SiO}_2$ , 0.07-0.15% P, 0.5-2.0% Cu, 0.07% As, 0.07% Sn.

**Volframli boyitmalar** asosan ferrovolfram eritishda ishlatiladi. Boyitmadagi zararli qo'shimchalar bo'lib fosfor, mishyak, qalay, oltingurgt, mis va kremnezem hisoblanadi. Volframli va gyubneritli boyitmalari uchun quyidagi konditsiyalar belgilangan: 65-60%  $\text{WO}_3$ , 11-18% Mn, 5%  $\text{SiO}_2$ , 0.03-0.06% P, 0.05-0.1% As, 0.2-0.5% Sn, 1.5% S, 0.1-0.5% Cu. Sheelitli boyitmalar uchun: 55—50%  $\text{WO}_3$ , 4% Mn, 10%  $\text{SiO}_2$ , 0.2% Sn, 0.3-0.8 % Cu, 0.08-0.11% P, 0.05-0.1% As, 1.5% S.

**Olayli boyitmalar**. Qalayli boyitmalarda zararli qo'shimcha bo'lib kremnezem, glinozem, temir, oltingugurt va mis hisoblanadi. Boyitmadagi qalay va zararli qo'shimchalarining ruxsat etilgan chegaralari: 60-40%Sn, 11-19 %SiO<sub>2</sub>, 6-11% Fe, 3-7% Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, 3-6% S, 0.2-0.0.5%Cu.

**Temir va temir boyitmalar**. Kokslashga kelib tushadigan ko'mir va ko'mir boyitmalaridagi qo'shimchalarining miqdori metallurgik koksga qo'yiladigan talablar bilan belgilanadi. Ko'pchilik koks zavodlari uchun koksdagi kulning miqdori 9-10%, oltingugurning miqdori 1,65-1,80 % gachani tashkil qiladi.

Domna pechlarida eritish uchun kelib tushadigan ruda va boyitmalar ham fizik xususiyatlari bo'yicha, ham kimyoiy tarkibi bo'yicha talablarga javob berishi kerak. Fizik hususiyatlaridan ahamiyatga egalari: g'ovakligi, yuqori haroratda mustahkamligi, yirikligi. Eritishga kelib tushadigan rudadan mayda sinf chiqarib tashlanadi, chunki ular shixtaning gaz o'tkazuvchanligini kuchli darajada pasaytiradi va qisman gazlar bilan chiqib ketadi.

### Tayanch so'z va iboralar

Qo'rg'oshinli, ruxli, misli, molibdenli, volframli, qalayli boyitmalar, qimmatbaho komponent, zararli qo'shimcha, foydali qo'shimcha, puch tog' jinslari, mineral, chegaralar, namlik, ruxsat etilgan me'yorlar.


### Nazorat uchun savollar

1. Qo'rg'oshinli boyitmalarga qanday talablar qo'yiladi?
2. Ruhli boyitmalarga qanday talablar qo'yiladi?
3. Misli boyitmalarga qanday talablar qo'yiladi?
4. Molibdenli boyitmalarga qanday talablar qo'yiladi?
5. Volframli boyitmalarga qanday talablar qo'yiladi?
6. Qalayli boyitmalarga qanday talablar qo'yiladi?

### 7. Boyitish egri chiziqlari

Boyitish egri chiziqlari (1-pacm) quyidagi bog'liqliklarni aks ettiradi:  
 $\lambda$ -og'ir yoki yengil fraksiyalarni chiqishi bilan elementar fraksiyadagi komponentning miqdori ;  $\beta$  - og'ir fraksiyaning chiqishi bilan undagi

komponentning miqdori. Dastlabki mahsulotni faqat 2 ta fraksiyaga ajratishda yengil va og'ir fraksiyalarning chiqishi  $\gamma_{\pi} + \gamma_r = 1$  tenglama orqali bog'langan. Bu holda  $\beta$ , egri chizig'i bir vaqtida komponentning



I-rasm. Boyitish egri chiziqlari

yengil fraksiyadagi miqdori va og'ir fraksiyaning chiqishi orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.  $\beta_r$ -og'ir fraksiyaning chiqishi bilan undagi komponentning miqdori orasidagi bog'liqlik. Dastlabki mahsulotni 2 ta fraksiyaga ajratishda bu egri chiziq  $\beta_r$  va  $\gamma_{\pi}$  orasidagi bog'liqlikni chiqishi bilan ularga komponentning ajralishi orasidagi bog'liqlik. Dastlabki mahsulotni 2 ta fraksiyaga ajratishda bu egri chizik  $\epsilon_r$  va  $\gamma_{\pi}$  orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

$\delta_r$  ajralish zichligining qiymati bilan og'ir va yengil fraksiya chiziqlari orasidagi bog'liqlikni anglatadi.

Boyitish egri chizig'i dastlabki mahsulotni ikkita mahsulotga ajratishda berilgan bitta ko'rsatkich orqali qolgan barcha texnologik ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi. Masalan, qimmatbaho komponentning miqdori berilgan bo'lsa,  $\beta_r$  egri chizig'i (ko'mimi boyitishda)  $\beta_r$  egri chizig'i (rudani boyitishda) orqali boyitmaning chiqishini  $\gamma_{\pi}$  yoki  $\gamma_r$  topiladi, so'ngra boyitmaning chiqishini bilgan holda ularni farqi asosida chiqindining chiqishi, keyin esa tegishli egri chiziqlardan foydalanib, qolgan hamma boyitish ko'rsatkichlari va ajralish zichliklarining qiymati topiladi.

Dastlabki mahsulotni 3 ta mahsulotga bo'lishda (masalan, boyitma, oraliq mahsulot va chiqindi) boyitish egri chizig'ida berilgan 2 ta

ko'rsatkich bo'yicha qolgan hamma ko'rsatkichlar topiladi. Boyitish egri chiziqlari orqali bitta mahsulotning o'ziga tegishli barcha texnologik ko'rsatkichlar ma'lum grafik bog'lanishlar orqali bog'langani sababli har qaysi mahsulot uchun ixtiyoriy ravishda faqat bitta ko'rsatkich tanlanishi mumkin. Shuning uchun dastlabki mahsulotni uchta mahsulotga ajratishda berilgan ikkita ko'rsatkich albatta har xil mahsulotlarga tegishli bo'lishi kerak. Bu sharoitda quyidagi variantlar bo'lishi mumkin: birinchi ko'rsatkich boyitmaga tegishli, ikkinchisi chiqindiga; birinchisi boyitmaga, ikkinchisi oraliq mahsulotga, birinchisi oraliq mahsulotga, ikkikchisi chiqindiga. Loyihalashda birinchi va ikkinchi varianlar amaliy ahamiyatga ega.

Boyitish egri chizig'i bo'yicha dastlabki mahsulotni uchta mahsulotga ajratishning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlashning tartibi quyidagilarga olib keladi:


-agar birinchi ko'rsatkich boyitmaga, ikkinchi ko'rsatkich esa chiqindiga doir bo'lsa, birinchi navbatda boyitish egri chizig'idan boyitma va chiqindiga doir barcha ko'rsatkichlar aniqlanadi. Keyin chiqindi balansi bo'yicha ( $1 = \gamma_1 + \gamma_p + \gamma_t$ ) oraliq mahsulotning chiqishi  $\gamma_p$ , keyin komponentlarning taqsimlanishi balansi bo'yicha  $1 = \gamma_1 \beta_1 + \gamma_p \beta_p + \gamma_t \beta_t$  uning oraliq mahsulotdagi miqdori aniqlanadi (bu erda  $\alpha$  va  $\beta_p$  komponentning dastlabki va oraliq mahsulotdagi miqdori).

-agar miqdorga doir ko'rsatkichlarning bittasi boyitmaga, ikkinchisi oraliq mahsulotga tegishli bo'lsa boyitishning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash birmuncha murakkabroqdir. Bu holda avvalo boyitish egri chizig'idan odadagi usullar bilan boyitmaning chiqishi aniqlanadi, keyin esa aniqlangan boyitmaning chiqishi uchun egri chiziqning  $\gamma$  maydonida qo'shimcha  $\beta_p$  egri chizig'i tuziladi. Bu egri chiziq bo'yicha berilgan  $\beta_p$  uchun  $\gamma_p$  aniqlanadi. Chiqindiga doir ko'rsatkichlar chiqishning balans tenglamalari orqali aniqlanadi.

Gravitatsion boyitishning boyitish egri chizig'i boyitish apparatlari da ishlab chiqarish sharoitiga yaqin sharoitlarda o'tkazilgan tajribalar asosida tuzilishi mumkin. Nazariy natijalardan amaliyga o'tish gravitatsiya jarayonlariga tegishli boyitish mahsulotlarining turli zichlikdagi fraksiyalarga ajratish qonuniyatları asosida amalga oshirilishi mumkin.

Agar absissa o'qiga  $\delta$  fraksiyaning zichligi, ordenata o'qiga esa gravitatsion boyitishda turli zichlikdagi fraksiyalarning boyitmaga va

chiqindiga ajralishi  $\varepsilon$  (masalan, cho'ktirishda)  $\varepsilon=f(\delta)$  egri chiziqni olamiz (2- rasm). Bu egri chiziq ajralish egri chizig'i deyiladi.



2-rasm. Ajralish egri chizig'i

Boyitmaning nisbatan yyengilroq fraksiyasining zichligini  $\delta'$  orqali, chiqindining nisbatan og'irroq fraksiyasining zichligini  $\delta''$  orqali ifodalaymiz. 50% boyitmaga va 50% chiqindiga ajralish fraksiyasining zichligini ajralish zichligi  $\delta_r$  deb qabul qilingan.

Ajralish zichligidan kichik zichlikka ega barcha fraksiyalar boyitmaga, ajralish zichligidan katta zichlikka ega fraksiyalar esa chiqindiga ajraladi. Ideal boyitish jarayoni uchun ajralish egri chizig'i ABCD siniq chizig'i shaklida bo'ladi. A-A' va D'-D maydonlarda egri chiziq ideal bilan ustma-ust tushadi. Amaldaqi egri chiziqning ideal egri chiziqdan chetga chiqishi gravitatsiya jarayonidagi ajralish aniqligining darajasini belgilaydi.

Olib borilgan ko'p sonli tajribalar va amalyot natijalarining tahlillari asosida gravitatsion boyitish jarayonlarida ma'lum fraksiyalarning zichligi dastlabki mahsulotning fraksion tarkibiga bog'liq emas deb hisoblanadi va faqat ajralish zichligining qiymati bilan aniqlanadi.

## **II bob. BOYITISH FABRIKASI VA UNING ALOHIDA SEXLARINING ISHLAB CHIQARISH UNUMDORLIGINI HISOBBLASH**

### **1. Boyitish fabrikasi ishlab chiqarish unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar**

Boyitish fabrikasi unga xomashyo yetkazib beruvchi kon va fabrika tayyor mahsulotini ishlatuvchi zavod-iste'molchi bilan bog'langan. Shuning uchun loyihalanayotgan boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdorligi asosan foydali qazilma konining zaxiralari va fabrikaning mahsulotga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq holda konning ishlab chiqarish unumdorligiga bog'liq.

Kondagi foydali qazilma zaxiralari  $Q_m$ , korxonaning (kon, boyitish fabrikasi) yillik ishlab chiqarish unumdorligi  $Q_n$  va uning faoliyat ko'rsatish yillarining soni o'rtaqidagi bog'liqlik

$$T = \frac{Q_m}{Q_n}$$

Kon va boyitish fabrikalarini loyihalashda shunday ishlab chiqarish unumdorligi tanlanadiki, korxonaning faoliyat ko'rsatish davri 30 - 50 yildan kam bo'lmasin. Masalan, ko'mir shaxtalarining ishlash muddati yiliga 1,8 mln. tonna quvvatda ishlaganda 50 - 60 yildan kam bo'lmasligi kerak. Kon zaxirasi chegaralanganda va mahsulot tanqisligida faoliyat ko'rsatish muddati 10-15 yilga qisqartirilishi mumkin.

It xomashyonini qayta ishlashning to'liq tannarxi ekspluatatsion harajatlar va amortizatsiya chegirmalarining yig'indisidan tashkil topadi. Boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdorligi ortishi bilan ekspluatatsion harajatlar kamayadi, kapital harajatlar ortishi tufayli amortizatsion chegirmalar ham ortadi.

Konning, boyitish fabrikasining va boyitmani iste'mol qiluvchi zavodning ishlab chiqarish unumdorligi bir-biri bilan bog'liqligi uchun boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdorligi haqidagi masala kon, fabrika va zavodning harajatlarini hisobga olgan holda yechilishi kerak.

## **2. Boyitish fabrikasi va uning sexlarining ishlab chiqarish unumdarligini aniqlash**

Boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdarligi deganda uning asosiy sexi, ya’ni boyitish sexining ishlab chiqarish unumdarligi tushuniladi.

Fabrikaning sutkalik ishlab chiqarish unumdarligini aniqlashda quyidagi hollar uchrashi mumkin:

1. Boyitish fabrikasi ishlab chiqarish unumdarligi ma’lum bo’lgan konda yoki shaxtada quriladi. Kon va fabrikaning haftadagi ish kunlari ning soni bir hil bo’lganda fabrikaning sutkalik ishlab chiqarish unumdarligi konning ishlab chiqarish unumdarligidan bir muncha yuqori bo’lishi kerak, chunki kondan foydali qazilmani alohida vaqt oraligida berish bir tekis amalga oshmaydi. Boyitish fabrikasi ishlab chiqarish unumdarligini konning ishlab chiqarish unumdarligiga nisbatan oshirish koefitsienti foydali qazilmalarni alohida davrlarda qazib olishning notekislik darajasi va qazilma uchun to’plovchi moslamalarning sig’imiga bog’liq. Yirik maydalangan mahsulot ombori qurilganda rudani kondan bir tekis berilmasligi faqat yirik maydalash sexining ishida aks etadi.

Guruqli va markaziy ko’mir boyitish fabrikalarining ishlab chiqarish unumdarligi fabrikaga biriktirilgan shaxtalarda qazib olinayotgan ja’mi ko’mir miqdoriga bog’liq holda tanlanadi. Seksiyalarning ishlab chiqarish unumdarligi soatiga 400-600 tonnadan kam bo’imasligi erak.

Kondan turli navga ega, alohida-alohida boyitish talab etiladigan foydali qazilmani qazib olinayotganda fabrika seksiyalarga ajratilgan bo’lishi kerak. Seksiyalarning soni va ularning ishlab chiqarish unumdarligi alohida navli qazilmalarni qazib olish rejasid asosida belgilanadi.

2. Boyitish fabrikasi boyitmani qayta ishlovchi metallurgik zavodning tayyor mahsulot bo’yicha yillik ishlab chiqarish unumdarligini ta’minlashi kerak.

Bu holda fabrikaning dastlabki mahsulot bo’yicha ishlab chiqarish unumdarligi quyidagi formuladan topiladi:

$$Q_f = \frac{Q_z \cdot v}{\delta \cdot \varepsilon_f \cdot \varepsilon_z}$$

bu yerda:

-  $Q_f$  – boyitish fabrikasining dastlabki mahsulot bo’yicha yillik ishlab chiqarish unumdarligi, t;

- Q<sub>3</sub> – metallurgik zavodning tayyor mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumdonligi; т;

v - metallurgik zavod tayyor mahsulotidagi qimmatbaho komponentning miqdori;

-δ - boyitish fabrikasiga kelib tushuvchi mahsulotdagi foydali komponentning miqdori;

-Σ<sub>f</sub> - fabrikada foydali komponentning boyitmaga ajralishi;

-Σ<sub>z</sub> - metallurgik zavodda boyitmani qayta ishlashda foydali komponentning ajralishi. Agar boyitma tayyor mahsulot hisoblanib, qayta ishlanmasa, Σ<sub>f</sub> ning qiymati 1 deb qabul qilinadi.

### 3. Fabrika bosh binosining ishlash tartibi

Loyihalash uchun fabrika bosh binosining soatlik ishlab chiqarish unumdonligi zarur. Shu soatlik ishlab chiqarish unumdonligi orqali dastgohlar tanlanadi va uni aniqlashda dastgohlarni ta'mirlash uchun yuz berishi muqarrar bo'lgan to'xtab turishlar hamda ishlatishdagi nosozliklar hisobga olinishi kerak.

Quyidagi terminlarni qabul qilamiz:

- *mashina vaqtı* – dastgohlarni to'liq yuk ostida ishlashining hisoblash vaqtı (“toza ish vaqtı”) soat yiliga;

- *kalendor vaqtı* – berilgan vaqt oraligidagi to'liq soatlar soni, masalan, yiliga,  $365 \times 24 = 8760$  soat;

- *ish vaqtı* – texnologik dastgohlarga xizmat ko'rsatishning hisob vaqtı, masalan, sex uzluksiz ishlaganda xizmat ko'rsatish xodimlarining yillik ish kunlarining soni.

$365 - 7 = 358$  kun (7 kun – bir yildagi bayram kunlarining o'rtacha soni) dastgohlarni vaqt bo'yicha ishlatish koeffitsienti  $k_b$  – mashina vaqtining kalendor vaqtga nisbati.

Dastgohlarni ishlatish koeffitsientining qiymati ko'p sharoitlarga bog'liq: dastgochning sifati va mustahkamligi, ta'mirlash usuli, o'matilgan agregatlarning soni, dastgohlarni ishlatish sharoitlari bilan bog'liq ta'mirlashlar orasidagi muddat (abraziiv eskirish, bo'laklik, rуданing qattiqligi) va h.k. Hisoblashlarda bu sharoitlarni hisobga olish qiyin va dastgohlarni ishlatish koeffitsienti tajriba yo'li bilan belgilanadi.

Flotatsiya fabrikalarining bosh binosi uchun u nisbatan og'ir va qoplamlarni muntazam o'zgartirib turishni talab qilinadigan yanchish uchun dastgohlar bo'yicha aniqlanadi.

- jadvalda bu koefitsientning taxminiy qiymatlari, shuningdek, mashina vaqtining fondi keltirilgan.

I-jadval

### Boyitish fabrikalari uchun dastgohlarni ishlatish koefitsienti va mashina vaqtini

Bo'lim, sex, fabrika	Dastgohlarni ishlatish koefitsienti	Mashina vaqtining yillik fondi		Bir yildagi ish kunlarining soni
		soat	sutka	
Flotatsiya va magnit boyitish fabrikalari sterjenli, sharli tegimonlarda yanchish: bir bosqichda ikki bosqichda	0,94 0,92	8235 8060	343 336	358 358
Xo'l o'zida-o'zini yanchish va o'zida-o'zini yanchuvchi va sharli tegimonlarda bir-galikda: bir bosqichda ikki bosqichda	0,90 0,88	7885 7710	328 321	358 358
Ko'mir boyitish va gravitatsiya fabrikalar yuvuvchi va yuvuvchi-gravitatsiya	0,685 0,67	6000 5900	250 245	300 -

Bosh binodagi dastgohlarning soatlik ishlab chiqarish unumdorligi fabrikaning yillik ishlab chiqarish unumdorligini mashina vaqtining yillik fondiga bo'lib aniqlanadi. Bosh binoning sutkalik ishlab chiqarish unumdorligini soatlik ishlab chiqarish unumdorligini 24 ga ko'paytirib topish mumkin. Bu son sexning mumkin bo'lgan ishlab chiqarish quvvatini harakterlaydi va uzluksiz ishlashda yillik ishlab chiqarish unumdorligini fabrikaning bir yildagi ish kunlari soniga (358 kun) bo'lishdan olingan o'rtacha sutkalik ishlab chiqarish unumdorligiga mos kelmaydi.

Fabrikaga kelib tushadigan mahsulot xossalari dagi notejislikni hisobga olish uchun ba'zan soatlik ishlab chiqarish unumdorligiga notejislik koefitsienti kiritiladi. Bosh binoning qat'iy soatlik ishlab chiqarish unumdorligi quyidagi formuladan topiladi:

$$Q_{f.s.} = \frac{Q_{f.y.}}{365 \cdot 24 \cdot k_B} \cdot k_n$$

**bu yorda:**

-  $Q_f$  - bosh bino va fabrika dastgohining soatlik ishlab chiqarish unumdorligi, t/soat;

-  $Q_{f,y}$  fabrika (bosh bino) ning yillik ishlab chiqarish unumdorligi, t/yill;

-  $k_B$  - bosh bino dastgohlarining ishlatalish koeffitsienti;

-  $k_u$  - berilgan sex dastgohlarining ishlab chiqarish unumdorligiga ta'sir qiluvchi, mahsulotlarning xossalariidagi notekislikini hisobga oluvchi koeffitsient ( $k=1$ ). Masalan, rudaning bo'laklangani va qattiqligi maydalagichning ishlab chiqarish unumdorligiga ta'sir qiladi, rudaning granulometrik tarkibining notekisligi cho'ktirishga yuboriladigan alohida sinflarning chiqishlarida tebranishlarni hosil qiladi.

**Maydalash sexi.** Yirik maydalash sexi (bo'limi) ning ishi rudani fabrikaga berish tartibi bo'yicha qabul qilinadi.

Ochiq usulda qazib olishda rangli metallurgiya kon-qazish korxonalarining ish tartibi 2- jadvalda belgilanganidek qabul qilinishi mumkin.

2-jadval

### Ochiq usulda qazishda rudani kondan fabrikaga berish tartibi

№	Ruda bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligi	Yillik ish tartibi	Haftada-gi ish kunlari soni	Sut-kadagi smenalar soni	Turli rayonlar uchun yillik ish kunlari soni	
					shi-moliy	janubiy
1	Juda katta va katta (yiliga 3 mln.dan ortiq)	Uzluksiz (dam olish kunlari-siz)	7	3	340	340
2	O'rtacha va kichik (yiliga 3 mln.dan kam)	Haftada 2 ta dam olish kuni	5	2 yoki 3	247	255

Yer osti usulida qazib olishda istalgan ishlab chiqarish unumdorligi va rayon uchun quyidagi ish tartibi tavsiya qilinadi:

- yillik ish kunlari soni – 305;
- sutkadagi smenalar soni – 2;
- smenaning davomiyligi – 7.

Ochiq usulda qazib olishda katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega fabrikalar uchun yirik maydalash sexining ishlab chiqarish unumdorligi:

- sutkalik (t/sut):  $Q_{y.m.sut.} = \frac{Q_{f.y}}{340}$
- smenadagi:  $Q_{y.m.sm} = \frac{Q_{y.m.sut.}}{3}$
- dastgohlar uchun soatlik:  $Q_{s.m.soat.} = \frac{Q_{f.y.}}{340 \cdot 3 \cdot 7} k_n$

bu yerda:

$Q_{ms.sut.}$ ,  $Q_{m.s.sm}$ ,  $Q_{y.M.soat.}$  tegishli ravishda yirik maydalash sexining sutkalik, smenalik va soatlik ishlab chiqarish unumdorligi;

- $Q_{f.y.}$  - fabrikaning yillik ishlab chiqarish unumdorligi;
- $k_n$  - notekislik koeffitsienti.

Yirik maydalangan rudani fabrikaga tasmali konveyerlar yordamida uzatish uchun yirik maydalash bo'limini konga yaqin joylashtirishga harakat qilinadi.

Fabrikada o'rta va mayda maydalash bo'limining ish tartibini rudani berish tartibiga bog'liq bo'lмагan holda tanlash uchun yirik maydalangan mahsulot ombori qurish mo'ljallanadi.

Olti kunlik ish haftasida o'rta va mayda maydalash dastgohlarining foydalanish koeffitsienti - 0,73 (mashina vaqtining yillik fondi - 6405 soat), yetti kunlik ish haftasida - 0,83 (mashina vaqtining yillik fondi - 7266 soat). Sexning ishslash tartibi - sutkada 3 smena, har smena 7 soatdan.

Suvszizlantirish sexi, qoidaga ko'ra, boyitish sexi bilan bir tekis ishlagani uchun uning ish vaqtini bosh binonikidek qabul qilinadi. Boyitmaning chiqishi kichik bo'lganda, masalan, kamyob metalllar rudalarida, quytirgichlarda boyitmalarining yig'ilib qolish ehtimoli borligi tufayli filrlovchi dastgohni bir smenada ishslashini loyihalash mumkin.

Bir turdag'i mahsulotni boyitish uchun ishlab chiqarish unumdorligi va seksiyalar soni har qaysi alohida holda boyitish fabrikasini seksiyalash variantlarini texnik-iqtisodiy taqqoslash orqali aniqlanadi.

Fabrikani ekspluatatsiya qilish qulay bo'lishi uchun bir xil texnologik operatsiyalarni bajaruvchi apparatlarni o'zaro almashtirishni ta'minlash uchun bitta seksiyali qilish maqsadga muvofiq. Masalan, boyitish fabrikasida asosiy flotatsiya uchun 10 ta flotatsiya mashinasi o'matilsa, ularning bittasi ishdan chiqqanda uning mahsulotini qolgan 9 ta mashina orasida tekis taqsimlanishiga erishilishi kerak.

Bir seksiyali boyitish fabrikalarining afzalliklari: bir xil texnologik maqsadda ishlovchi barcha mashinalar bir xil sharoitda ishlaydi, ya'ni, fabrika uchun bir xil texnologik jarayon ta'minlanadi; alohida mashinalarning ishdan chiqishi fabrika ishida sezilarsiz aks etadi, chunki, ortiqcha yuk parallel ishlovchi mashinalar o'rtasida bir tekis taqsimlanadi; ta'mirlash ishlarini tashkil etish soddalashadi; flotatsiya fabrikalarida mashinalarga reagentlarni markazlashgan holda yuklash osonlashadi; boyitish jarayonini avtomatik nazorati va avtomatik boshqarish soddalashadi.

Bir seksiyali boyitish fabrikasining asosiy kamchiligi boyitish mahsulotlarini taqsimlash va tashishdir. Bunday fabrikalarning flotatsiya sexida yanchish sexi barcha gidrotsiklonlarining quyulmasi birlashtirilib, ulami markaziy bo'tana taqsimlagichga quyulishi, u esa bo'tanani istalgan teng qismlarga bo'lib, keyin ularni alohida flotatsiya mashinalarga berishga imkon yaratadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Ishlab chiqarish unumdorligi, faoliyat ko'rsatish davri, mahsulot tannarxi, bosh binoning ishlash tartibi, maydalash sexi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdorligi qanday aniqlanadi?
2. Boyitish fabrikasi faoliyat ko'rsatish yillarining soni qanday aniqlanadi?
3. 1 tonna homashyoning qayta ishlashning to'liq tannarxi qanday aniqlanadi?
4. Boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdorligi deganda nima tushuniladi?
5. Nima uchun fabrikaning sutkalik ishlab chiqarish unumdorligi konning ishlab chiqarish unumdorligidan katta bo'lishi kerak?
6. Fabrikaning bosh binosi qanday tartibda ishlaydi?
7. Maydalash sexi qanday tartibda ishlaydi?

### **III bob. TEXNOLOGIK SXEMANI TANLASH VA HISOBBLASH**

#### **1. Maydalash sxemasini tanlash**

Ruda tayyorlash operatsiyalarini maydalash, elash va yanchish operatsiyalarini o'z ichiga olib, rudani boyitilishga moyilligi, ishlatilishi mumkin bo'lgan dastgohlarning texnologik hususiyatlari hamda xossalari va tarkibi jihatidan o'xshash rudani qayta ishlash tajribalari asosida tanlanadi. Fabrikaga berilayotgan mahsulotning yirikligi loyihaning kon qismi bo'yicha aniqlanadi, boyitishning birinchi operatsiyasiga kelib tushadigan mahsulotning yirikligi va boyitishning usuli boyitilishga o'tkaziladigan tadqiqotlar asosida o'matiladi. Rudaning fizik xususiyatlari: qattiqlik, granulometrik tarkib, namlik, loyning miqdori, maydalanuvchanlik, elanuvchanlik, yanchiluvchanlik maydalash, elash, yanchish usullarini va bu operatsiyalarini bajarish uchun apparatlar turini belgilaydi. Sxemani tanlashga loyihalashning umumiyligi sharoitlari: rayonning iqlimiyligi sharoiti, korxonanining ishlab chiqarish unumdonorligi, konni qazib olish usuli, fabrikaga rudani berish usuli va boshqalar ta'sir qiladi. Ba'zan, mayda mahsulotni ajratish va bo'lakli rudani alohida toplashga to'g'ri keladi.


Loyihalovchiga tekshirilayotgan rudaga o'xshash rudani boyituvchi fabrikaning ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Loyihada tekshirishdan o'tgan yechimlarni qo'llash qurilgan fabrikada tuzatilishi qiyin bo'lgan xatoliklarning oldini oladi. Ayrim texnologik bo'g'imlarni qayta qurish katta harajatlarni talab qiladi va korxonanining ishlab chiqarish quvvatini o'zlashtirishga vaqtini yo'qotadi.

Quyidagi sxemalarni asoslash va tahlil qilish maydalash uchun jag'li va konusli maydalagichlar, yanchish uchun esa barabanli tegrimoniarni ishlatish mumkin bo'lgan qattiq va o'rtacha qattiqlikdagagi rudalar uchun keltiriladi.

***Maydalash operatsiyalari*** foydali qazilmalarni tegirmonda yançish yoki foydali mineral o'lchami kattaroq bo'lganda to'g'ridan to'g'ri boyitishga tayyorlash uchun ishlatiladi. Maydalash-saralash fabrikalarida maydalash operatsiyalari mustaqil ahamiyatga ega.

Maydalash sxemalariga odatda, dastlabki va tekshiruvchi elash operatsiyalari kiritiladi. Ularni elakning yuqori mahsuloti (elak ustii) tushadigan maydalash operatsiyalariga kiritish qabul qilingan.

Maydalash operatsiyalari o'zlariga tegishli elash operatsiyalari bilan birgalikda maydalash bosqichini, maydalash bosqichlarining yig'indisi maydalash sxemasini tashkil qiladi (3 – rasm).




3-rasm. Maydalash sxemasi

Maydalash bosqichlari to'rt ko'rinishga ega:

- A' - dastlabki elash, maydalash va tekshiruvchi elash operatsiyalari;
- B – dastlabki elash va maydalash operatsiyalari;

- V – maydalash va tekshiruvchi elash operatsiyalari;
- G – maydalash operatsiyalari.

Maydalash bosqichining A – ko‘rinishida A' ko‘rinishidagi dastlabki va tekshiruvchi elash operatsiyalari birlashtirib berilgan. Ikkala variantda ham maydalangan mahsulotning yirikligi va apparatga tushadigan yuk bir xil, lekin oqimlarning harakatlanishi har xil (4- rasm).




4-rasm. Maydalash bosqichlarining ko‘rinishlari

Maydalash sxemalari bir, ikki, uch va undan ortiq maydalash bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Bir bosqichli sxemalarning soni maydalash bosqichlari ko‘rinishlarining soni, ya’ni, to‘rtga teng. Ikki bosqichli maydalash sxemalarining mumkin bo‘lgan soni nisbatan ko‘p. Bir bosqichli maydalash sxemalarining har qaysi varianti maydalash bosqichlari ko‘rinishlarining to‘rttasidan istalgan birini qo‘sish orqali ikki bosqichli maydalash sxemasiga o‘tkazilishi mumkin. Masalan, B ko‘rinishdagi maydalash sxemasini A, B, V, G ko‘rinishdagi istalgan sxema bilan to‘ldirib, to‘rtta ikki bosqichli BA, BB, BV, BG sxema olish mumkin.(5-rasm)

Ikki bosqichli maydalash sxemalarining umumiy soni  $4^2 = 16$  ta (AA, AB, AV, AG, BA, BB, BV, BG, VA, VB, VV, VG, GA, GB, GV, GG).

Uch bosqichli maydalash sxemalarining soni  $4^3=64$  ta n ta maydalash bosqichini o‘z ichiga olgan maydalash sxemalarining mumkin bo‘lgan soni  $N_n=4^n$



**5-rasm. Ikki bosqichli maydalash sxemalarining variantlari**

Maydalashning mumkin bo'lgan ko'p sonli sxemalari ichidan ratsional sxemasini tanlash uchun quyidagi savollarni yechish kerak: maydalash bosqichlarining soni, alohida maydalash bosqichlarida dastlabki va tekshiruvchi clash operatsiyalarining zarurligi.

Maydalash bosqichlarining soni maydalanuvchi mahsulotning boshlang'ich va oxirgi yirikligi bilan aniqlanadi.

Nisbatan yirikroq ruda ochiq kon ishlarida va katta ishlab chiqarish unumdorligida, maydaroq mahsulot yer osti ishlarida va konning kichikroq ishlab chiqarish unumdorligida olinadi.

Ruda bo'lagining maksimal o'lchami loyihaning kon qismi orqali belgilanadi. Ruda bo'laklari o'lchamini konni ishlab chiqarish unumdorligi va qazib olish usuliga bog'liqligi 3-jadvalda keltirilgan. Yanchishga kelib tushadigan mahsulotning yirikligi maydalashning oxirgi bosqichida ishlataladigan mayda maydalovchi konusli maydalgichning imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Hozirgi vaqtida yanchish bo'limiga kelib tushadigan ruda bo'laklarining optimal yirikligi quyidagicha qabul qilingan:

- styerjenli tegirmonlar uchun – 15-20 mm;
- sharli tegirmonlar uchun – 10-15 mm.

**Ruda boyitish fabrikalari uchun rudaning eng katta  
bo'laklari o'lchami**

№	Fabrikaning ruda bo'yicha ishlab chiqarish unumдорлиги, t/yil	Bo'lakning maksimal o'lchami , mm	
		Ochiq ishlar	Yer osti ishlari
1	Kichik, 500 gacha	560 – 600	250 – 350
2	O'rtacha, 500-3000	700 – 1000	400 – 500
3	Katta, 3000-9000	900 – 1000	600 – 700
4	Juda katta, >9000	1200	-

Yanchishning boshlang'ich bosqichida oson bo'linuvchi, shuningdek, loyli va nam rudalarni yanchishda sterjenli tegirmonlarga tushuvchi mahsulotning yirikligini 20-25 mm gacha oshirish mumkin.

Rudadagi va maydalangan mahsulotdagi eng katta bo'lakning o'lchami berilganda umumiylar maydalash darajasining chegarasi quyidakicha bo'ladi:

$$S_{\max} = \frac{D_{\max}}{d_{\min}} = \frac{1200}{10} = 120$$

$$S_{\min} = \frac{D_{\min}}{d_{\max}} = \frac{250}{20} = 12,5$$

bu yerda:

- S - umumiylar maydalash darajasi,
- D va d - tegishli ravishda dastlabki rudadagi va maydalangan mahsulotdagi bo'laklarning o'lchami , mm.

Umumiylar maydalash darajasi alohida bosqichlar maydalash darajalarining ko'paytmasiga teng, yirik, o'rtalig' va mayda maydalash maydalagichlari bir marta maydalashda quyidagi maydalash darajalarini beradi.

Yirik maydalash maydalagichlari - 5 gacha, o'rtacha maydalovchi konusli maydalagichlar tekshiruvchi elash operatsiyasisiz ishlaganda - 6 gacha, shuning o'zi tekshiruvchi elash bilan yopiq siklda ishlaganda - 8 gacha.

Mayda maydalovchi konusli maydalagichlar tekshiruvchi elash operatsiyasisiz ishlaganda - 3-5 gacha, shu maydalagichlar yopiq siklda ishlaganda - 8 gacha.

Eng kichik maydalash darajasi  $S_{min} = 12,5$  ga maydalagichda bitta bosqichda maydalanganda erishish mumkin emas, shuning uchun yanchishdan oldin quruq maydalash bosqichlarining soni ikkitadan kam bo'lmasligi kerak.

Eng katta maydalash darajasi  $S_{max} = 120$  uch bosqichda maydalash natijasida olinishi mumkin.

$$S_{max} = 120 = 4 \cdot 5 \cdot 6$$

$$S_{max} = 120 = \overset{\text{yoki}}{4,5 \cdot 4,5 \cdot 6}.$$

Bundan maydalash sxemasini tanlashning birinchi qoidasi kelib chiqadi: rudani yanchishga tayyorlashda maydalash bosqichlarining soni ikkita yoki uchtaga teng bo'lishi kerak.

Juda katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega (40-60 ming t/yil) fabrikalar uchun fabrikaga kelib tushgan o'ta qattiq rudalar (masalan, magnetitli kvarsitlar)ni maydalashda bu qoidadan chetga chiqish mumkin. Bu holda to'rt bosqichli maydalash sxemasi ishlataladi.

**Dastlabki elash operatsiyalari.** Maydalashga tushayotgan mahsulot miqdorini qisqartirish (mayda mahsulotni elab ajratib olish hisobiga) va maydalagichning ishchi zonasida mahsulotning harakatlanishini oshirish uchun qo'llaniladi. Bu mayda mahsulot bilan yopilib qolishga moyil mayda va o'rta maydalovchi konusli maydalagichlarda maydalashda ayniqsa zarur.

Maydalash sxemasiga dastlabki elash operatsiyani kiritish kapital harajatlarning ortishiga va maydalash sexining murakkablashishiga olib keladi. Shuning uchun dastlabki elash operatsiyasini dastlabki mahsulotda mayda mahsulotning miqdori yetarli darajada yuqori bo'lganda, shuningdek, mayda mahsulotning namligi yuqori bo'lib, maydalagichning ishlab chiqarish unumdorligini pasaytirishida qo'llash tavsiya etiladi. Birinchi bosqichda bo'shatish tuynugining kengligi katta (2100 mm) bo'lganda mayda ruda maydalagichdan bemalol o'tadi va bunda

dastlabki elash faqat elak-maydalagichdan iborat bo‘g‘imning ish bajarish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun tanlangan maydalagich tushayotgan mahsulotning o‘lchami bo‘yicha elak o‘matmasdan ishlab chiqarish unumdorligini ta’minlasa, dastlabki elash operatsiyasi ko‘zda tutilmaydi. Agar elashdan voz kechish ikkita yirik maydalovchi maydalagichni o‘matishga olib kelsa, dastlabki elash bilan bitta maydalagich o‘matishda to‘xtash kerak, chunki ikkinchi maydalagichni o‘matish yirik maydalash bo‘limini qurishga ketadigan kapital harajatlarni deyarli ikki barobar oshiradi.

Maydalashning ikkinchi bosqichida dastlabki elash operatsiyasi ko‘pchilik hollarda ishlatiladi. Lekin, agar mayda maydalash maydalagichlari bilan bog‘langan o‘rtacha maydalash maydalagichlari katta ishlab chiqarish unumdorligi zaxirasiga ega bo‘lib, ishlab chiqarish unumdorligini mayda mahsulotni ajratmasdan turib ta’minlay olsa, dastlabki elash operatsiyasi ko‘zda tutilmaydi. Bu masalani hal etishda rуданing xususiyatini va maydalagichning mayda mahsulot bilan presslanib qolishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Maydalashning uchinchi bosqichida bo‘shatish tuynugining kengligi kichik (6 - 7 mm) bo‘lgan barcha hollarda dastlabki elash ishlatilishi kerak.

Zamonaviy fabrikalarda uchinchi bosqich maydalagichlari dastlabki va tekshiruvchi elash bilan ishlaydi. Bu operatsiyalar sxema-larga alohida yoki birlashgan variantlarda kiritiladi.

Sxema tanlashning ikkinchi qoidasi:


a) dastlabki elash operatsiyasi birinchi maydalash bosqichidan avval kam ishlatiladi. Agar ishlatilsa mahsus asoslashni talab qiladi;

b) ikkinchi maydalash bosqichidan oldin dastlabki elash operatsiyalari ko‘zda tutiladi, undan voz kechish asoslanishi kerak;


v) dastlabki elash operatsiyasi uchinchi maydalash bosqichidan avval hamma vaqt ishlatiladi.

Maydalangan mahsulot yirikligining namunaviy tavsifi maydalash sxemasini hisoblash va maydalagich hamda elaklarni tanlash uchun zarur. Yirik maydalovchi jag‘li va konusli maydalagichlarda maydalangan mahsulotlarning namunaviy tavsifi 6-7 rasmlarda keltirilgan.

Bu yerda abssissa o‘qiga zarrachalar o‘lchamining maydalagich bo‘shatish tuynugining kengligiga teng nisbiy, ya’ni o‘lchamsiz yirikliklardagi zarrachalar  $z = d : i$ , ordinata o‘qiga esa chapda  $z$  dan yirikroq, o‘ngda  $z$  dan maydarroq sinf joylashtirilgan.



**6-rasm. Yuzali maydalangan mahsulotlarining yiriklik maydalagichlarda tasnifi:**  
**1-qattiq rudalar;**  
**2-o'rtacha qattiqqlikdagi rudalar;**  
**3-yumshoq rudalar**



**7-rasm. Konusli maydalagichlarda maydalangan mahsulotlarining yiriklik tasnifi:**  
**1-qattiq rudalar;**  
**2-o'rtacha qattiqqlikdagi rudalar;**  
**3-yumshoq rudalar**

Bu grafiklar maydalashga maydalagich bo'shatish tuynugining kengligidan kichik mahsulot tushmaydigan, ya'ni dastlabki elak tirqishlarining o'lchami maydalagich bo'shatish tuynugining kengligiga teng  $a = i$ , elash samaradorligi esa  $YE = 100\%$  ga teng sharoit uchun tuzilgan. Bunday tartib maydalagichlarni tekshirish vaqtida qo'llanishi mumkin, bunda maydalangan mahsulotning namunaviy kvalifikatsiyasi rudaning xossalari va maydalagichlarning ishlash samaradorligi bilan aniqlanadi.

Boyitish fabrikalaridagi maydalagichlarning ishlash tartibida ( $a \approx i, E < 100\%$ ), maydalangan mahsulotning yiriklik kvalifikatsiyasi faqat maydalagichning ishlash samaradorligiga emas, balki elakning ishlash samaradorligiga ham bog'liq.  $a \approx i$  ba  $E < 100\%$  tartibda ishlovchi maydalagichdan bo'shatib olinayotgan mahsulotdagi sinflarning miqdorini belgilash uchun "b" belgi qabul qilingan, boshqa barcha tartiblar uchun ushbu ko'rsatkich " $\beta$ " bilan belgilanadi.

Maydalangan mahsulotdagi bo'laklarning shartli maksimal kattaligi  $d_n$  deb 95% mahsulot o'tadigan elak ko'zimining o'lchami qabul qilingan. Shunga muvofiq maydalangan mahsulotning shartli nisbiy maksimal yirikligi  $Z_n = d_n : i$ . (6-7-rasmlar)

Bu rasmlardagi gorizontallar 95% elanuvchi mahsulotning miqdoriga teng keladi. Gorizontalning egri chiziq bilan kesishish nuqtasi

maydalangan mahsulotning shartli nisbiy maksimal yirikligi  $Z_n$  ni aniqlaydi. AB uzuq - uzuq chiziq ko‘p hollarda egri chiziqlardan yuqorida yotadi. Bu maydalangan mahsulotda mayda sinflarning miqdori to‘g‘ri chiziqli yiriklik kvalifikatsiyasi va  $Z$  ga teng maksimal yiriklikka ega mahsulotdagiga ko‘ra ko‘proq bo‘lishini ko‘rsatadi. Yirik maydalovchi jag‘li va konusli maydalagichlarga nisbatan o‘rtta va mayda maydalovchi maydalagichlarda bo‘shatish tuynugining konus tebranishi ekssentrisitetga nisbatan boshqacharoq bo‘ladi.

O‘rtta va mayda maydalovchi konusli maydalagichlarda ekssentrisitet bo‘shatish tuynugining o‘lchamidan ortadi va maydalagichdan chiquvchi bo‘lakning maksimal kattaligiga nihoyatda ta’sir qiladi. Shuning uchun yiriklik kvalifikatsiyasi faqat bo‘shatish tuynugining kengligiga qarab emas, balki maydalagichning o‘lchami ga qarab ham o‘zgaradi.

*Tekshiruvchi elash operatsiyalari* ortiqcha mahsulotni maydalagichga qaytarish maqsadida qo‘llaniladi. O‘rtacha qattqlikdagi rudalarni mayda maydalovchi konusli maydalagichlarda tekshiruvchi elash operatsiyasiz maydalanganda ortiqcha mahsulotning chiqishi 65% ga yetadi, maydalangan mahsulotning shartli maksimal yirikligi bo‘shatish tuynugining kengligidan 4,5-5 marta ortadi. Qattiq rudalarda ortiqcha mahsulot 85% gacha yetadi va shartli maksimal kattalik 5,5 martani tashkil etadi.

Maydalashning oxirgi bosqichida tekshiruvchi elash qo‘llanilganda maydalangan mahsulotning oxirgi yirikligi o‘rtacha qattqlikdagi rudalar uchun 3 marta va qattiq rudalar uchun 3,5 marta kamayadi.

Sharli va sterjenli tegirmonlarda yanchish uchun optimal hisoblanuvchi (10 – 20 mm) maydalangan mahsulot faqat elak bilan yopiq siklda ishlovchi mayda maydalovchi konusli maydalagichlarda maydalangandagina olinishi mumkin. Shuning uchun rudani sharli yoki sterjenli tegirmonlarda yanchish uchun tayyorlashda maydalashning oxirgi bosqichida tekshiruvchi elash operatsiyalarini qo‘llash kerak.


Maydalashning elash bilan yopiq sikli dastlabki elash bilan ochiq sikliga nisbatan albatta murakkabroqdir. Tekshiruvchi elashni kiritish ko‘p sonli elaklar, konveyer va ta‘minlagichlarni o‘rnatish lozimligini keltirib chiqaradi. Bular harajatlarning ortishiga, maydalash sexining konstruktiv yechimlarini va ekspluatatsiya qilishni murakkablashishiga olib keladi. Lekin yopiq sikldan voz kechish faqat tegirmonga kelib

tushadigan mahsulot yirikligini oshirilgandagina mumkin. Bunda fabrikadagi maydalash va yanchishning umumiy tannarxi ortadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan maydalash sxemasi tanlashning uchinchi qoidasi kelib chiqadi. Sterjenli va sharli tegirmonlarning samarali ishlashi hamda optimal yiriklikdagi maydalangan mahsulot olish uchun maydalashning oxirgi bosqichida tekshiruvchi elash operatsiyasi bo'lishi mumkin.

Maydalash sxemasi tanlashning yuqorida ifodalangan qoidalariiga muvofiq ikki turdag'i sxemalar ratsional hisoblanadi: birinchisi 25 mm dan ortiq bo'lмаган mahsulot olish uchun va ikkinchisi 10-20 mm dan kichik mahsulot olish uchun. Bu sxemalar 8-rasmda keltirilgan.

Ikki bosqichli BB sxemasi rуданing kichik bo'laklari va BBB sxemasi yirik bo'laklari uchun qo'llanadi. Ikkala sxema ham 25 mm dan kichik o'lchamdag'i mahsulot olishni ta'minlaydi. Birinchi bosqichdan oldingi elash punktir chiziq bilan ko'rsatilgan, ular maxsus asoslash orqali qo'llaniladi.



8-rasm. Maydalashning ratsional sxemalari

10 - 20 mm yiriklikdagi mahsulot olinuvchi, oxirgi bosqichi yopiq siklli sxemalar ikki bosqichli BA – mayda dastlabki va BBA yirik (1200 mm gacha) dastlabki mahsulot uchun qo'llaniladi.

BBB' sxemasi BBA sxemasining varianti hisoblanib, uchinchi bosqichda dastlabki va tekshiruvchi elash operatsiyalari ajratilganligi bilan farq qiladi. Undan tashqari ikkinchi va uchinchi bosqichlardan yirikligi bo'yicha tayyor mahsulotga mos keluvchi material chiqarib olinadi. Shu maqsadda maydalashning ikkinchi bosqichidan oldin ikki to'ri elak qo'llanilishi kerak. Namroq yoki changlanadigan tayyor mahsulotni ajratib olish ikkinchi va uchinchi bosqich maydalagichlarining ishini normallashtiradi, o'rta va mayda maydalash sexlarining maydalagichlari va barcha transport dastgohlarini ekspluatatsiya qilishni yaxshilaydi.


Agar mayda sinfda birlamchi ruda shlamlari va eruvchi tuzlar yig'ilgan bo'lsa, birinchi maydalash bosqichidan keyingi olingan mayda mahsulotni alohida siklda qayta ishlash maqsadga muvofiq.

Bu sxemaning o'rta va mayda maydalash qismida elaklarni maydalagich ostiga joylashtirish loyihaning ixcham yechimi hisoblanadi. Lekin bunda konstruktiv shartga asosan har qaysi maydalagichga bitta elak o'matish kerak. Shuning uchun mayda mahsulot (-10, -12 mm) olishda va ruda yomon elangani sababli katta elash yuzasi talab qilinganda maydalagichga istalgan miqdordagi elaklarni o'matish mumkin bo'lган BBA sxemasi afzal hisoblanadi.

Ko'rib chiqilgan bu beshta maydalash sxemasi boyitish fabrikalarida rudani sterjenli va sharli tegirmonlarda yanchish uchun tayyorlashda ko'proq ishlatiladi.

***Maydalashning o'ziga xos sxemalari.*** Yassi shakldagi o'ta qattiq rudalarni (magnetitli kvarsitlar turidagi) qayta ishlovchi juda katta ishlab chiqarish unumdrorligiga ega boyitish fabrikalarida birinchi yirik maydalash bosqichidan oldin dastlabki elashsiz to'rt bosqichli GGBB sxemasi qo'llaniladi.

Ikkinci maydalash bosqichi dastlabki elash operatsiyasining (A) elak osti mahsuloti o'zining yirikligi bo'yicha uchinchi maydalash bosqichi maydalangan mahsuloti B ga yaqin bo'lsa, bu ikkita mahsulot birlashtirilishi mumkin. Bunda, BBB sxemasidan bir muncha farq qiluvchi uch bosqichli BBB' sxemasi hosil bo'ladi va uni nam rudalarni maydalash uchun ishlatish mumkin (9-rasm ).



**9 - rasm. Maydalashning alohida sxemasi**

## **2. Rudani o‘zida – o‘zini yanchishga tayyorlashdagi maydalash sxemalari**

Yanchiluvchi vosita sifatida foydali qazilmaning yirik bo‘laklari hisoblanuvchi barabanli tegirmonlarda yanchish jarayoni o‘zida-o‘zini yanchish deyiladi.

Boyitish fabrikalarida qo‘llanuvchi o‘zida-o‘zini yanchish to‘rt xil ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin: o‘zida-o‘zini yanchuvchi tegirmonga maksimal yirikligi 200-250 mm li ruda beriluvchi **rudali o‘zida-o‘zini yanchish**; rudali o‘zida-o‘zini yanchuvchi tegirmonga tegirmon hajmining 5-10% atrofida yirik po‘lat sharlar qo‘shiluvchi **yarim o‘zida-o‘zini yanchish**; tegirmonga yirikligi 15-25 mm li ruda va shu bilan bir vaqtda rуданинг yirikroq o‘lchamdagи bo‘laklaridan tashkil topgan maydalovchi vosita qo‘shiluvchi dag‘al **ruda-galkali o‘zida-o‘zini yanchish**; tegirmonlar yanchishning ikkinchi bosqichida o‘matiluvchi **ruda-galkali yanchish**. Oxirgi variantda yanchishning birinchi bosqichi sterjenli yoki sharli tegirmonlarda amalga oshirilishi mumkin. Ruda-galkali o‘zida-o‘zini yanchishda yanchiluvchi rуданинг maksimal yirikligi 3-5 mm dan ortmaydi.

Ruda-galkali o‘zida-o‘zini yanchish “Aerofol” turdagи quruq yanchish tegirmonlarida yoki “Kaskad” turdagи ho‘l yanchish tegirmonlarida, yoki uzunligi diametridan katta barabanli tegirmonlarda amalga oshiriladi.

Quruq yanchish yanchilgan mahsulotni pnevmatik klassifikatsiyalash, yanchiluvchi rуданинг namligini boshqarish va ishchi sistemadan so'rib olingan va atmosferaga chiqariladigan havoni changdan tozalash uchun murakkab moslamalarni talab etadi. Shuning uchun boyitishning ho'l usullarini qo'llovchi fabrikalar uchun quruq o'zida-o'zini yanchish ho'l usulga nisbatan afzalroqdir.

Maydalash sxemasini tanlash qo'llaniladigan o'zida-o'zini yanchish variantiga bog'liq. Rudali o'zida-o'zini yanchishda ruda faqat yirik maydalanadi, ayrim hollarda esa to'g'ridan - to'g'ri o'zida-o'zini yanchishga beriladi. Dag'al va oddiy ruda-galkali yanchishda rudani sharli va sterjenli tegirmonlarda yanchishga tayyorlashdagi kabi maydalash sxemalari qo'llaniladi. Farqi faqat shundaki, maydalangan mahsulotlardan elash orqali ma'lum yiriklikdagi sinf ajratib olinib, u tegirmonlarda ruda-galkali yanchishda maydalovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Ruda tayyorlashning o'zida-o'zini yanchish sxemalarini qo'llash maydalash va po'lat sharli muhitda yanchish tegirmonlaridagiga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- o'rta va mayda maydalash bo'limlarini, mayda maydalangan mahsulot bunkerlari va omborlarini chiqarib tashlash, kam sonli va katta o'lchamli o'zida-o'zini yanchish tegirmonlari o'matish hisobiga kapital harajatlar sezilarli kamayadi;
- sterjenlar va sharlarning sarfi kamayishi hisobiga ekspluatatsion harajatlar kamayadi;
- o'rta va mayda maydalash bo'limlari shtatlari qisqarishi munosabati bilan bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish unumдорligi ortadi;
- ba'zi hollarda rudani qayta ishlashning umumiyligi texnologik ko'rsatkichlari quyidagi sabablarga ko'ra yaxshilanadi: mineral zarracha yuzasini to'liqroq ochilishi; shlamlanishning kamayishi; yanchish mahsulotlarini temir bilan ifloslanishining kamayishi;
- oddiy maydalashda yuvish talab etiladigan loyli va namrudalarda o'zida-o'zini yanchishni yuvish bilan birgalikda qo'llash mumkin va bu bilan ruda tayyorlash sxemasini soddalashtirishga erishiladi, chunki 300 mm gacha o'lchamdagisi rudani to'g'ridan - to'g'ri o'zida-o'zini yanchish tegirmonlariga berish mumkin.

Biroq o‘zida-o‘zini yanchish sxemalari quyidagi kamchiliklarga ega:

- mayda vosita sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan, uzilganda uncha ko‘p bo‘lman miqdorda yirik bo‘laklarni hosil qiluvchi g‘ovak rudalarni mayin tuyushda o‘zida-o‘zini yanchish qo‘llanilmaydi;

- o‘ta qovushqoq rudalar uchun o‘zida-o‘zini yanchishni qo‘llash mumkin emas;

- tegirmon quyulmasida, hatto ruda-galkali yanchishda maydalovchi vosita alohida bo‘laklarining yorilishi, parchalanishi natijasida hosil bo‘luchchi nisbatan yirik zarrachalar bo‘ladi va bu zarrachalar gidrosiklonda tekshirish maqsadida klassifikatsiyalash uchun ishlatilganda yo‘qotilishi kerak;

- rudali o‘zida-o‘zini yanchishda tegirmondagиrudaningugranulometrik tarkibini sozlash kerak;

- dag‘al ruda-galkali yanchishda maydalovchi vosita sifatida ishlatiladigan ma’lum yiriklikdagi sinfni ajratish kerak, bu esa maydalash sxemasini murakkablashtiradi;

- o‘zida-o‘zini yanchishda elektr energiyaning umumiylarfi maydalash va po‘lat sharlar bilan yanchishdagiga nisbatan 1,2-1,5 barobar ortiq va tegirmonning hajmi katta.

Rudali o‘zida-o‘zini yanchish tegirmonlariga tushuvchi rudaningugranulometrik tarkibi nomuvofiq bo‘lsa, yanchuvchi vosita bo‘lishga yetarli o‘lchamga ega, shu bilan bir vaqtida yirikroq bo‘laklar bilan yanchilish uchun juda katta va mustahkam bo‘lgani uchun unda kritik o‘lchamdagи bo‘laklar yig‘iladi. Kritik o‘lchamdagи bo‘laklar ko‘p bo‘lganda tegirmonning ishlab chiqarish unumдорligi kamayadi. Tegirmondagиrudaningugranulometrik tarkibini sozlash uchun bir necha usullar ishlatiladi.

Birinchi usulda rudali o‘zida-o‘zini yanchish tegirmoniga tegirmon hajmining 5-10% miqdorida diametri 125-150 mm li po‘lat sharlar solinadi. Tegirmon ishslash vaqtida sharlar bo‘linib ketmasligi, ularning ishdan chiqishi kam bo‘lishi uchun sharlar sifatlari po‘latdan tayyorlanadi. Bu usul rudali o‘zida-o‘zini yanchishni yarim o‘zida-o‘zini yanchishga aylantiradi.

Ikkinci usulda 200-350 mm gacha maydalangan ruda yirikligi bo‘yicha ikkita sinfga ajratiladi va har qaysi sinf alohida omborga jo‘natiladi. O‘zida-o‘zini yanchishdan oldin sinflar o‘rtachalashtiriladi.

Bu usul tegirmonga tushayotgan rudaning granulometrik tarkibidagi tebranishlarni kamaytiradi, lekin uning o‘rtacha granulometrik tarkibini o‘zgartira olmaydi. Shuning uchun bu usul kam ishlataladi va faqat o‘zida-o‘zini yanchish uchun o‘rtacha qulay yiriklik tavsif ega rudalarni qayta ishslashda qo‘llanadi.

Uchinchi usulda tegirmondan kritik o‘lchamdagи bo‘laklarni chiqarib olish uchun tegirmon panjarasida chiqarib tashlanishi kerak bo‘lgan bo‘lakning maksimal diametriga teng bir necha darchalar qilinadi. Tegirmon quyulmasi teshigi chiqarib tashlanadigan bo‘lakning minimal o‘lchamiga teng elakka tushadi. Elak usti sinfining ortiqcha miqdori jarayondan chiqarib tashlanadi, qoldiq esa tegirmonga qaytariladi. Tegirmondan chiqarib tashlanayotgan kritik o‘lchamdagи sinf ruda-galkali yanchishda maydalovchi vosita sifatida ishlatalishi yoki qayta maydalangandan keyin tegirmonga qaytarilishi mumkin.

To‘rtinchi usulda o‘zida-o‘zini yanchish siklidan chiqarilgan yirik frasiya qayta maydalangandan so‘ng alohida sharli tegirmonda yanchilishi mumkin.

Birinchi, uchinchi va to‘rtinchi usullar samaraliroq, chunki, tegirmondagи mahsulotning granulometrik tarkibini o‘zgartirishga, ikkinchi usul esa bu tarkibni faqat o‘ratchalash tirishga imkon beradi. Birinchi yarim o‘zida-o‘zini yanchish usulida maydalash sxemasi ancha sodda bo‘ladi. Agar uchinchi usulda tegirmondan chetlashtiriladigan kritik o‘lchamdagи sinf to‘liq maydalovchi vosita sifatida ishlatalishi mumkin bo‘lsa, bunda ham maydalash sxemasi sodda bo‘ladi. Kritik o‘lchamdagи bo‘laklarning bir qismini qayta maydalash usuli o‘zida-o‘zini yanchish sxemasini bir muncha murakkablashtiradi.

Sanab o‘tilgan usullarning qay birini tanlash faqat texnologik sinovlar, keyingi texnik-iqtisodiy taqqoslashlar asosida amalga oshiriladi.

Dag‘al ruda-galkali yanchishda maydalovchi vosita talab qilinadigan o‘lchamga qarab birinchi yoki ikkinchi maydalash bosqichi mahsulotlaridan ajratib olinadi.

### Tayanch so‘z va iboralar

Maydalash sxemasi, maydalash operatsiyalari, dastlabki elash, tekshiruvchi elash, maydalash darajasi, bosqichlar, qoidalar, yiriklik tavsisi, ochiq sikl, yopiq sikl, optimal yiriklik.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Maydalash sxemasini tanlashga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Maydalash operatsiyalari qanday maqsadda o'tkaziladi?
3. Maydalash sxemasiga dastlabki elash operatsiyasi nima maqsad-da kiritiladi?
4. Maydalash sxemasiga tekshiruvchi elash operatsiyasi nima maq-sadda kiritiladi?
5. Bir bosqichli maydalash sxemalarini ko'rinishlari necha xil?
6. Maydalash bosqichlarining soni qanday aniqlanadi?
7. Maydalash sxemasini tanlashning birinchi qoidasi nimadan iborat?
8. Maydalash sxemasini tanlashning ikkinchi qoidasi nimadan iborat?
9. Maydalash sxemasini tanlashning uchinchi qoidasi nimadan iborat?
10. Umumiy maydalash darajasi deb nimaga aytildi?

### **3. Maydalash sxemasini hisoblash.**

#### **Maydalash sxemasini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar**

Maydalash sxemasini hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar kerak: boyitish fabrikasining dastlabki xomashyo bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligi; mahsulotning yiriklik tavsifi, maydalangan mahsulotning maksimal yirikligi; alohida maydalangan mahsulotning yiriklik tavsifi; alohida maydalash bosqichlaridagi elash samaradorligining ko'rsatkichlari.

Dastlabki va maydalangan mahsulotlarning yiriklik tavsifi ilmiytadqiqot ishlari hisobotlaridan va loyihalanayotgan fabrikadagi o'xshash rudani boyituvchi fabrikaning amaliy ko'rsatkichlaridan olinadi.

Maydalash sxemasida barcha mahsulotlar arab, operatsiyalar rim raqamlarida ifodalanadi.

Maydalash sxemasi quyidagi tartibda hisoblanadi.

1. Maydalash sehi dastgohining soatlik ishlab chiqarish unum-dorligi aniqlanadi.
2. Umumiy maydalash darajasi aniqlanadi

$$S_{\text{yu}} = \frac{D_1}{D_{11}}$$

bu yerda;  $D_1$  dastlabki rudadagi eng katta bo'lakning o'lchami;

$D_{11}$  -maydalangan mahsulot tartibidagi eng katta bo'lakning o'lchami.

Tanlangan maydalagichlar va qabul qilingan maydalash darajalarini quyidagi talablarga javob berishi kerak: maydalagichning qabul qiluvchi tuynugi unga tushuvchi ruda bo'laklarining o'lchamidan 10-20% ga katta bo'lishi kerak; maydalagich berilgan ishlab chiqarish unumdarligini ta'minlashi kerak; loyihalangan bo'shatish tuynugining kengligi shu turdag'i maydalagich uchun ruxsat etilgan chegarada bo'lishi kerak; maydalagichlarning yuklash koeffitsientlari imkonni boricha yaqin bo'lishi kerak.

Agar yuqorida keltirilgan maydalagichlarga qo'yiladigan talablar loyihamayotgan maydalash sxemasida bajarilmaydigan bo'lsa, alohida maydalash bosqichlaridagi belgilangan maydalash darajalarini o'zgartirish kerak. Masalan, uchinchi bosqich maydalagichi ortiqcha yuklanigan, ikkinchi bosqich maydalagichi esa yetarli darajada yuklanmagan bo'lsa, ikkinchi bosqichda maydalash darajasini oshirish va uchinchi bosqichda maydalash darajasini kamaytirish kerak. Ayrim hollarda ikki bosqichli maydalash sxemasini uch bosqichli sxemaga almashtirishga to'g'ri keladi.

Maydalash sxemasini oxirgi hisoblash bajariladi va dastgohlarning to'g'ri tanlangani tekshiriladi.

### **Maydalash sxemasini hisoblashga misol**

Quyidagi shartlar uchun maydalash sxemasini tanlang va hisoblang. Boyitish fabrikasining ruda bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligi  $Q=4$  mln t/yil; ruda ochiq usulda qazib olinadi, o'rtacha qattiqlikka ega, sochma zichligi  $1,75 \text{ t/m}^3$ , eng katta bo'lakning o'lchami  $900 \text{ mm}$ , rуданing namligi  $4 \%$ .

1.Yirik maydalash bo'limining ishlab chiqarish unumdarligini aniqlaymiz. 2-jadval bo'yicha uzlusiz, 7 kunli ish haftasini tanlaymiz. Dastgohlarning toza ish vaqtiga yiliga 340 kun, 7 soatdan 3 smenada. Yirik maydalash bo'limi dastgohining soatlik ishlab chiqarish unumdarligi

$$Q_{\text{t.d.s.}} = \frac{Q_{\text{f.s.}}}{340 \cdot 3 \cdot 7} = \frac{4 \cdot 10^6}{340 \cdot 3 \cdot 7} = 560 \text{ t/soat}$$

2. O'rta va mayda maydalash bo'limlarining ishlab chiqarish unumdarligini aniqlaymiz. Boyitish fabrikasini loyihalashning umumiy shartiga ko'ra yirik maydalangan mahsulot omborini qurishni ko'zda tutamiz. O'rta va mayda maydalash bo'limlarining ish tartibini dam olish kuni bilan qabul qilamiz, ya'ni yiliga 305 kun 3 smena 7 soatdan.

Mashina vaqtining yillik fondi:

$$305 \cdot 3 \cdot 7 = 6405 \text{ soat}$$

O'rta va mayda maydalash bo'limlarining soatlik ishlab chiqarish unumdarligi

$$Q_{\text{sm}} = \frac{Q_{f,g}}{6405} = \frac{625}{6405} \text{ t/soat}$$

3. Texnik-iqtisodiy taqqoslash uchun maydalash sxemasi variantlarini tanlaymiz.

Rudaning fizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sharli tegirmonda yanchish variantini qabul qilamiz. Tegirmonga kelib tushadigan mahsulot yirikligini 13 mm deb qabul qilamiz (sharli tegirmonga tushadigan mahsulot yirikligi 10–15 mm oralig'iда).

Bu yiriklikka yopiq siklda ishlovchi mayda maydalovchi konusli maydalagichlarda erishish mumkin. Shuning uchun hisoblashlar uchun maydalash sxemasining BBA variantini tanlaymiz.

1. Umumiy maydalash darajasini aniqlaymiz.

$$S = \frac{D_{\max}}{d_{\min}} = \frac{900}{13} = 69,3$$

2. Alovida bosqichlardagi maydalash darajasini aniqlaymiz.

$$S_{\text{ym}} = S_1 \cdot S_2 \cdot S_3$$

Agar  $S_1 = S_2 = S_3 = \text{deb qabul qilsak}$

$$S_{\text{ym}} = S^3$$

$$S_{\text{ora}} = \sqrt[3]{S} = \sqrt[3]{69,3} = 4,1$$

bu yerda:  $S_{\text{ora}}$  – bitta bosqich uchun o'rtacha maydalash darajasi.


3.Uchinchi bosqichi yopiq sikli (10-rasm.) maydalash sxemalarida birinchi va ikkinchi bosqich maydalash darajalari  $S_{\text{o'rta}}$  dan birmuncha kichik, uchinchi bosqich maydalash darajasini esa  $S_{\text{o'rta}}$  tadan katta deb qabul qilinadi. Shuning uchun birinchi va ikkinchi maydalash bosqichi uchun

$$S_1 = S_2 = 3,8$$

deb qabul qilamiz. U holda

$$S_3 = \frac{S}{S_1 \cdot S_2} = \frac{69,3}{3,8 \cdot 3,8} = 4,8$$

### Maydalash sxemasi BBA



*10-rasm. Uch bosqichli maydalash sxemasi*

4. Har qaysi maydalash bosqichidan keyingi mahsulotlarning shartli maksimal yirikligini aniqlaymiz.

$$D_5 = \frac{D_1}{S_1} = \frac{900}{3,8} = 236 \text{ mm}$$

$$D_9 = \frac{D_1}{S_1 \cdot S_2} = \frac{900}{3,8 \cdot 3,8} = 62 \text{ mm}$$

$$D_{11} = \frac{D_1}{S_1 \cdot S_2 \cdot S_3} = \frac{900}{3,8 \cdot 3,8 \cdot 4,8} = 13 \text{ mm}$$

5. Birinchi va ikkinchi maydalash bosqichlari uchun maydalagichlarning bo'shatish tuynugining kengligini aniqlaymiz.

$$i_H = \frac{D_5}{Z_H} = \frac{236}{1,5} = 157 \text{ mm} \approx 150 \text{ mm}$$

$$i_H = 150 \text{ mm} \text{ da } D_5 < i_H \cdot Z_H = 150 \cdot 1,5 = 225 \text{ mm}$$

$$i_{IV} = \frac{D_9}{Z_{IV}} = \frac{62}{2,1} \approx 30 \text{ mm}$$

Z ning qiymatini 1,5-2,5 oralig'ida qabul qilamiz

6. Birinchi va ikkinchi maydalash bosqichi uchun elak ko'zining o'lchami va elash samaradorligini aniqlaymiz.

Hisoblanadigan sxema uchun

$$a_i = i_{II} = 150 \text{ mm}$$

Yirik maydalashdan oldin panjarali elaklar uchun elash samaradorligini 60–70 %, o'rta va mayda maydalashdan oldin vibratsion elaklar o'matilgandagi elash samaradorligini 80–85 % deb qabul qilinadi.

$$E^{-a}_I = 60\%$$

$$a_{III} = 1,8i_{IV} = 1,8 \cdot 30 = 54 \text{ mm}, \text{ yaxlitlab}$$

$$a_{III} = 60 \text{ mm}, E^{-a}_{III} = 85\%$$

7. Uchinchi maydalash bosqichi uchun elak va maydalagichlarning ish tartibini tanlaymiz.

Elak va maydalagichlarning ish tartibini belgilovchi  $i$ ,  $a$  va  $E^{-a}$  larning son qiymatlariga bog'liq holda maydalangan mahsulotlarning yiriklik kvalifikatsiyasi, hamda elak va maydalagichlarning kerakli soni o'zgaradi.

Hisoblanayotgan sxema uchun uchinchi bosqich bo'shatish tuynugining kengligi.

$$d_{\max} : 2 = 13 : 2 = 6,5 \approx 7 \text{ mm } a_v = 13 \text{ mm}, E^{-a}_v = 85\%.$$

8. Maydalash operatsiyalariga tushayotgan 3,7 va 12 mahsulotlarning massasini aniqlaymiz.

$$\gamma_3 = 75\%; \gamma = 75\%; \gamma_{13} = 135\%. \text{ deb qabul qilamiz}$$

$$Q_n = Q_1 \cdot \gamma_n$$

formula orqali mahsulotlarning og'irligini topamiz (esingizda bo'lsin, yirik, o'rta va mayda maydalash bo'limlarining ishlab chiqarish unumdonorligi har xil).

$$Q_3 = 560 \cdot 0,75 = 420 \text{ t/soat}$$

$$Q_7 = 625 \cdot 0,75 = 468 \approx 470 \text{ t/soat}$$

$$Q_{12} = 625 \cdot 1,35 = 843 \approx 845 \text{ t/soat}$$

9. Maydalagichlarni tanlaymiz.

Maydalagichlarga qo'yiladigan talablarni (maydalash sxemasini hisoblash natijalari asosida) 4-jadvalga kiritamiz.

Tanlanadigan maydalagichlarga qo'yiladigan talablar asosida kata-loglardan maydalagich tanlaymiz [3-4]. Tanlangan maydalagichlarning texnologik tavsifini jadval tarzida beramiz.

## Maydalagichlarga qo'yiladigan talablar

Ko'rsatkichlar	Maydalash bosqichlari		
	Birinchi	Ikkinci	Uchinchi
Dastabki rudadagi eng katta bo'lakning o'lchami, mm	900	225	60
Bo'shatish tuynugining kengligi, mm	150	30	7
Talab qilinadigan ishlab chiqarish unum-dorligi: t/soat, m <sup>3</sup> /soat	420 240	470 260	845 485

10. Maydalagichlarning yuklash koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi.

$$k_1 = \frac{240}{680} = 0,35$$

$$k_2 = \frac{260}{360} = 0,73$$

$$k_3 = \frac{485}{670} = 0,73$$

Bu yerda suratda - talab qilinadigan ishlab chiqarish unum-dorligi, maxrajda -maydalagichning texnologik tavsifi asosidagi ishlab chiqarish unum-dorligi.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadi, birinchi bosqichdagi KKD-1200-150 maydalagichning yuklash koeffitsienti juda kichik. Uni jag'li maydalagich ЩДП-12x15 ga almashtirish mumkinmi ekanligini ko'rib chiqamiz.

ЩДП-12x15 maydalagichining ishlab chiqarish unum-dorligi 150 mm li tirqishda 315 m<sup>3</sup>/soatga teng.

$$k_1 = \frac{240}{315} = 0,76$$

## Maydalagichining ishlab chiqarish unum-dorligi

Maydalash bosqichlari	Maydalagichning turi va o'lchami	Qabul qillish tuynugining kengligi, mm	Bo'shatish tuynugi kengligi, mm	Ishlab chiqarish unum-dorligi, m <sup>3</sup> /soat
Birinchi	Yirik maydalovchi konusli maydalagich KKD-1200	1200	130, 150, 180	680
Ikkinci	O'rtacha maydalovchi konusli maydalagich KCD-1200	350	30-60	360
Uchinchi	Mayda maydalovchi konusli maydalagich, KMD, 2200	130	5-16	223

Birinchi bosqichda bitta ЩДП -12x15 maydalagichini o'matish kifoya.

Uchinchi bosqichda esa berilgan ishlab chiqarish unumdorligini ta'minlash uchun KMD-2200 maydalagichidan 3 tasini o'matish kerak.

#### 4. Yanchish sxemasini tanlash va hisoblash

Yanchish ma'lum yiriklikka ega zarrachalar olish, yanchilgan mahsulotning berilgan solishtirma yuzasiga erishish rudali va noruda minerallar yuzasini ochish, mahsulotni fizik va kimyoviy o'zgarstirish maqsadida qo'llaniladi.

Yanchish texnologiyasini foydali qazilmani qayta ishlash texnologiyasining shartlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Boyitish fabrikalarida ruda va boshqa foydali qazilmalarni barabanli tegirmonlarda yanchish bir, ikki va uch bosqichli sxemalar orqali amalga oshiriladi.

Bir bosqichli yanchish sxemalari uncha katta bo'limgan quvvatga ega (200 t/sutka gacha), shuningdek, katta quvvatga ega bo'lgan fabrikalarda nisbatan dag'al (0,2 mm gacha) yanchishda qo'llaniladi.

Barabanli, sharli, sterjenli va ruda-galkali tegirmonlar yopiq siklda va kamdan-kam hollarda ochiq va qisman ochiq sikllarda ishlaydi. Ochiq siklda yanchilgan mahsulot tegirmondan faqat bir marta o'tadi va tagirmondan tayyor yanchilgan mahsulot olinadi.

Ochiq siklda yanchish sterjenli tegirmonlar uchun quruq va ho'l yanchishda, sharli tegirmonlar uchun esa faqat quruq yanchishda ishlatiladi.

Yopiq siklda tegirmon spiralli klassifikator, gidrosiklon yoki elak bilan birgalikda o'matiladi.

Ikki bosqichli yanchish sxemalari o'rtacha va katta quvvatdagi boyitish fabrikalarida rudani ancha mayin (0,15 mm gacha) tuyushda qo'llaniladi.

Ikki bosqichli yanchish sxemalari mahsulotning birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga uzatish, ya'ni quyulma yoki qum bo'yicha uzatish usuli bilan bir-biridan farq qiladi. Birinchi holda birinchi va ikkinchi bosqichdagi tegirmonlar to'liq yopiq siklda, ikkinchi holda esa birinchi bosqich tegirmonlar ochiq yoki qisman ochiq siklda, birinchi bosqichdagisi esa yopiq siklda ishlaydi. Birinchi va ikkinchi bosqichdagi tegirmonlar ketma-ket o'matiladi.

Yanchishning yopiq siklda yanchuvchi mahsulot tegirmonidan klassifikatorlarga tushib, ikkita mahsulot-quyulma va qumga ajraladi. Quyulma boyitishga yuborilsa, qum esa to talab qilinadigan kattalik-kacha yanchilmaguncha qayta-qayta tegirmonga qaytariladi. Yopiq siklda tartibida qumning massasi doimiy aylanib, u tegirmon ichida aylanuvchi yuk deb ataladi.

Tegirmonga tushadigan rуданинг miqdori, o'lchami, qattiqligi, suvning berilishi, nasoslarning va gidrosiklonlarning ishslash tartibi o'zgarganda tegirmon ichida aylanadigan yukda o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Tegirmon yopiq siklda ishlaganda tegirmonning ruda bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligining ortishi bilan uning ichida aylanadigan yuk ortadi. Uncha katta bo'lмаган (400 % gacha) aylanuvchi yuk tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligini sezilarli darajada orttiradi. Tegirmon ichida aylanuvchi yukning miqdorini ortishi mahsulotning tegirmon ichidan o'tish tezligini orttiradi, bu esa mahsulotning o'ta yanchilishining oldini olib, tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligini orttiradi. Bu yukning keragidan ortishi tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligining pasayishiga olib keladi. Sharli, rudali va ruda-galkali tegirmonlar asosan yopiq siklda ishlaydi. Odatda, tegirmonlar ichida aylanuvchi yuk foizlarda ifodalananadi:

$$S = S / Q$$

Bunda:  $S$  – qumning og'irligi:

$Q$  – dastlabki mahsulotning og'irligi.

Tegirmonga tushadigan umumi mahsulotning og'irligi

$$Q = Q + S = Q + SQ = Q (1 + S)$$

Aylanuvchi yuk dastlabki mahsulotning og'irligiga qarab 50 dan 700 % gacha chegarada o'zgarishi mumkin. Tegirmonning dastlabki mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligi ortsu yoki quyulmaning mayinligi ortsu, aylanuvchi yuk ortadi. Haddan ortiq aylanuvchi yukda yanchish sharoti yomonlashadi.

Yanchish sxemalarini tanlashda rуданинг moddiy tarkibi va fizikaviy xossalari, yanchishning talab qilinadigan o'lchami, minerallar yuzasining ochilish darajasi, kapital va ekspluatatsiya harajatlari va h.k. larni hisobga olish kerak. Rudani sharli yanchishda uning tarkibida 15 % tayyor mahsulot bo'lganda yanchishning birinchi bosqichidan oldin dastlabki klassifikatsiya ishlatiladi. To'liq yopiq siklda tekshiruvchi klassifikatsiya yanchilgan mahsulot yirikligini nazorat qilish, tegirmon-

ning ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va mahsulotning shlam-nishni kamaytirish uchun qo'llaniladi. Rudali o'zini o'zi yanchishda ikki bosqichli yanchish sxemasi qo'llaniladi. Birinchi bosqichi "Kaskad" yoki "Aerofol" turdag'i tegirmonlarda spiralli klassifikator, elak, pnevmatik klassifikator kabilar bilan yopiq siklda, ikkinchi bosqichi esa gidrosiklonlar bilan yopiq siklda ishlovchi ruda-galkali tegirmonlarda amalga oshiriladi.

Yanchish sxemasini tanlash turli xildagi sxemalarni sanoat yoki yarim sanoat sharoitida tajriba yo'li bilan tekshirish orqali amalga oshiriladi. Bunday ma'lumotlar yo'q bo'lsa, yanchish sxemasi dastlabki va oxirgi mahsulotning o'lchami, boyitish fabrikasining quvvati, qum va quyulmani alohida boyitish kerakligi, rуданинг fizik xossalari va h. k. lar asosida tanlanadi.

O'zini – o'zi yanchishni nam, loyli rudaga qo'llash afzal. Tegirmonning o'lchamini va iste'mol qiladigan quvvatini tanlash yiriklashgan sinov natijalari asosida tanlanadi. Agar tegirmonga tushayotgan mahsulot ichida yirik bo'laklar yetarli miqdorda bo'lmasa, ruda – galkali yanchish qo'llanilishi mumkin. Bu usul o'zini-o'zi yanchishdan qimmatroq, yekin sharli va sterjenli tegirmonlarda yanchishdan arzonroq. Shunday qilib, yanchish usuli rуданинг qattiqligini, moddiy va granulometrik tarkibini, tekstura tuzilishini hisobga olgan holda ularni texnik-iqtisodiy taqqoslash asosida tanlanadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Yanchish bosqichlari, sxemalari, turlari, ochiq sikl, yopiq sikl, tegrimon, afzallik, kamchilik.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Yanchish bosqichlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Bosqichlarning soniga qarab yanchish sxemalari qanday turlarga bo'linadi?
3. Bir bosqichli yanchish sxemalari ikki bosqichli yanchish sxemalariga nisbatan qanday afzalliliklarga ega?
4. Bir bosqichli yanchish sxemalarining kamchiliklari nimadan iborat?

5. Yanchishning birinchi bosqichi qanday tegirmonlarda amalgaloshiriladi?

6. Birinchi bosqichi ochiq siklli ikki bosqichli yanchish sxemalarining afzalliklari nimalardan iborat?


7. Birinchi bosqichi ochiq siklli ikki bosqichli yanchish sxemalarining kamchiliklari nimalardan iborat?

8. Birinchi bosqichi to'liq yopiq siklli iiki bosqichli yanchish sxemalarining afzalliklari nimalardan iborat?

9. Birinchi bosqichi to'liq yopiq siklli iiki bosqichli yanchish sxemalarining kamchiliklari nimalardan iborat?

### Yanchish sxemasini hisoblashga misollar

#### «D» sxemasini hisoblash



11-rasm. Bir bosqichli yanchish sxemasi

Hisoblash uchun (11-rasm) dastlabki ma'lumotlar:  $Q_1 = 200 \text{ t/soat}$ ,  $\beta_4 = 50\%$ ,  $\beta_6 = 75\%$ ,  $R_6 = 2,6$  (28% qattiq zarrachalar);  $R_7 = 0,4$  (nazorat klassifikatsiyasi gidrosiklonlarda olib boriladi).

1.  $Q_4$  va  $Q_7$  larning qiymatini aniqlaymiz. 14-jadvaldan [1]  $\beta_4^1 = 31,5\%$  va  $\beta_6^1 = 53\%$  ligini topamiz.

$$Q_4 = Q_1 \frac{\beta_6^1 (R_6 - R_7)}{\beta_4^1 R_6 - \beta_6^1 R_7} = 200 \frac{0,53(2,6 - 0,4)}{0,315 \cdot 2,6 - 0,53 \cdot 0,4} = 384 \text{ t/soat}$$

Bu yerda  $\beta_n$  va  $\beta_n^1$  – n- nomerli mahsulotdagi  $-0,074$  mm va  $-0,04$  mm li sinflarning miqdori.

$$Q_7 = Q_4 - Q_1 = 384 - 200 = 184 \text{ t/soat}$$

2.  $Q_8$ ,  $Q_5$ ,  $Q_1$  va  $Q_3$  larning qiymatini aniqlaymiz. Dastlab tegirmon ichida aylunuvchi yukni belgilaymiz.


“D” sxemani nasos ishlatasdan amalga oshirish mumkin emasligini hisobga olib, tegirmon ichida aylanuvchi yukni 300 % deb qabul qilamiz.

$$Q_8 = Q_1 \cdot C_{onm} = 200 \cdot 3 = 600 \text{ t/soat}$$

$$Q_5 = Q_8 \cdot Q_7 = 600 - 184 = 416 \text{ t/soat}$$

$$Q_2 = Q_3 = Q_8 + Q_1 = 600 + 200 = 800 \text{ t/soat}$$

### «GA va GA<sup>1</sup>» sxyemasini hisoblash



12-rasm. Ikki bosqichli yanchish sxemalari

Hisoblash uchun ma'lumotlar:  $Q_1 = 200 \text{ m/coam}$ ;  $\beta_1 = 7\%$ ,  $\beta_4 = \beta_4^1 = \beta_4^{11}$ ;  $m=2$ ;  $k = 0,82$ ;  $R_4 = 2,6$ ;  $R_5 = 0,2$  (spiralli klassifikator).

bu yerda:  $m$ - ikkinchi bosqichdagi tegirmon hajmining birinchi bosqichdagi tegirmon hajmiga nisbati;  $k$ -tuzatish koeffitsienti (0,80-0,85).

1.  $\beta_2$  ning qiymatini aniqlaymiz.

$$\beta_2 = \beta_1 + \frac{\beta_4 - \beta_1}{1 + k \cdot m} = 0,07 + \frac{0,7 - 0,07}{1 + 0,82 \cdot 2} = 0,308 = 30,8\%$$

2.  $Q_5$  va  $Q_6$  larning qiymatini aniqlaymiz. Dastlab 14-jadvaldan

[1]  $\beta_2^1 = 18\%$ ,  $\beta_4^1 = 48\%$  ligini aniqlaymiz.

$$Q_5^1 = \frac{Q_1 R_4 (\beta_4^1 - \beta_2^1)}{\beta_4^1 (R_4 - R_5)} = \frac{200 \cdot 2,6 (0,48 - 0,18)}{0,48 (2,6 - 0,2)} = 136 \text{ t/soat}$$

$$Q_4^1 = Q_1 - Q_5^1 = 200 - 136 = 64 \text{ t/soat}$$

3.  $Q_5$ ,  $Q_6$  va  $Q_3$  larning qiymatini aniqlaymiz. Optimal aylanuvchi yukni belgilaymiz.

Tegirmon va klassifikator bir-biri bilan o'z oqimi orqali bog'lan-ganda  $S_{opt} = 500\%$  deb qabul qilamiz.

$$Q_{5^{II}} = Q_5 \cdot C_{opt} = 136 \cdot 5 = 680 \text{ t/soat}$$

$$Q_5 = Q_6 = Q_{5^{II}} + Q_{5^{I}} = 136 + 680 = 816 \text{ t/soat}$$

$$Q_3 = Q_1 + Q_5 = 200 + 816 = 1016 \text{ t/soat}$$

1.  $\beta_4$  ning qiymatini aniqlaymiz.

$$\beta_4 = \beta_1 + \frac{\beta_6 - \beta_1}{1 + k \cdot m} = 0,05 + \frac{0,75 - 0,05}{1 + 0,821} = 0,434 = 43,4 \%$$

Sxemani hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:  $Q_1 = 200 \text{ m/coam}$ ;  $\beta_1 = 5\%$ ,  $\beta_7 = 75\%$ ,  $m = 1$ ;  $k = 0,82$ ,  $R_7 = 2,6$ ,  $R_8 = 0,4$  (sxemaning birinchi bosqichida mexanik klassifikator, ikkinchi bosqichida gidrotsiklon o'matilgan). VA va VA<sup>I</sup> sxemasini hisoblash.(13-rasm)

2.  $Q_5$ ,  $Q_2$  va  $Q_3$  larning qiymatini aniqlaymiz. Optimal aylanuvchi yukni belgilaymiz  $C_{orm} = 300\%$ .

$$Q_5 = Q_1 \cdot C_{orm} = 250 \cdot 3 = 600 \text{ t/soat}$$

$$Q_2 = Q_3 = Q_1 + Q_5 = 200 + 600 = 800 \text{ t/soat}$$

3.  $Q_{8^{II}}$ ,  $Q_{7^{II}}$ ,  $Q_7$ ,  $Q_8$ ,  $Q_9$  va  $Q_6$  larning qiymatini aniqlaymiz. 14-jadvaldan [1]  $\beta_4 = 26,5\%$  va  $\beta_7^1 = 53\%$


$$Q_{8^{II}} = Q_7^1 = \frac{Q_1 R_7 (\beta_7^1 - \beta_4^1)}{\beta_7^1 (R_7 - R_8)} = \frac{200 \cdot 2,6 (0,53 - 0,265)}{0,53 (2,6 - 0,4)} = 118 \text{ t/soat}$$

$$Q_7 = Q_1 - Q_8 = 200 - 118 = 82 \text{ t/soat}$$

4.  $Q_{g^1}$ ,  $Q_{g^2}$ ,  $Q_8$  va  $Q_9$  larning qiymatini aniqlaymiz. Tegirmon va klassifikatorning nasos orqali ulangani va mayin quyulma olinishini hisobga olib  $C_{onm} = 300\%$  deb qabul qilamiz.

$$Q_{g^1} = Q_{g^1} \cdot C_{onm} = 118 \cdot 3 = 354 \text{ t / soat}$$

$$Q_8 = Q_9 = Q_{g^1} + Q_{g^2} = 118 + 354 = 472 \text{ t / soat}$$



13-rasm. Ikki bosqichli yanchish sxemalari

### Tayanch so‘z va iboralar

Yanchish sxemalari, yanchish bosqichlari, dastlabki klassifikatsiya, maqsad, tekshiruvchi klassifikatsiya, ochiq sikl, yopiq sikl, aylanuvchi yuk, nazorat klassifikatsiyasi, quyulma, qum.

### Nazorat uchun savollar

1. Yanchish sxemalaridagi dastlabki klassifikatsiya operatsiyalari nima maqsadda qo‘llaniladi?
2. Yanchish sxemalaridagi dastlabki klassifikatsiya operatsiyasini kiritish yoki kiritmaslik nimaga bog‘liq?
3. Birinchi yanchish bosqichidan oldin dastlabki klassifikatsiya qay hollarda qo‘llaniladi?
4. Yopiq siklli tekshiruvchi klassifikatsiya qanday maqsadda qo‘llaniladi?
5. Tegirmonda aylanuvchi yuk deganda nima tushuniladi?

6. Tegirmon ichida aylanuvchi yuk miqdorining ortishi nimaga olib keladi?

7. Tegirmon ochiq siklda ishlaganda uning samarali ishlashi sharoiti nimadan iborat?

8. Qisman yopiq siklli klassifikatsiya operatsiyasi qanday yanchish sxemalarida qo'llaniladi?

9. Quyulmaning nazorat klassifikatsiyasi nima maqsadda qo'llaniladi?

10. Qumming nazorat klassifikatsiyasi nima maqsadda qo'llaniladi?

## **5. Alovida turdag'i polimtall rudalar uchun flotatsiyaning prinsipial sxemalarini tanlash**

Mineral tarkibi va metallning miqdoriga qarab polimetall rudalar to'rt guruhga bo'linadi.

**Birinchi guruhi** - rangli metalllar miqdori yuqori, yaxlit sulfidli rudalar. Bu rudalar asosan qo'rg'oshin, mis, va temir sul'fidlaridan tashkil topgan. Sulfidlarning umumiy miqdori 75-90%, rangli metallarning miqdori 6-15%.

Bu guruhdagi rudalarni boyitish uchun, odatda, to'g'ri selektiv flotatsiya sxemasi qo'llaniladi. Flotatsiya chiqindisi oltingugurtga yetarli darajada boy va sul'fat kislota ishlab chiqaruvchi sanoat uchun xomashyo sifatida ishlatish mumkin bo'lgan holda to'g'ri selektiv flotatsiya sxemalari, ayniqsa, maqsadga muvofiqdir.

**Ikkinchchi guruhi** - rangli metalllar miqdori kam va oltingugurning miqdori yuqori, yaxlit sulfidli rudalar. Rudalarning bu guruhiga ko'pchilik mis-ruxli, piritli rudalar kiradi. Mis-ruxli, piritlardagi misning miqdori 1-2 %, ruxning miqdori esa 1-2,5%.

Bu guruhlardagi rudalarni boyitishning eng samarali usuli boy piritli chiqindi olinuvchi mis va rux sulfidlarini dastlabki kollektiv flotatsiyalash hisoblanadi..

Rudada oltingugurning miqdori kam bo'lganda kollektiv flotatsiya chiqindisi oltingugurning miqdori bo'yicha talabga javob bermaydigan hisoblanadi. Bu holda barcha sulfidlarni dastlabki kollektiv flotatsiyalash sxemasi ayniqsa manfaatli hisoblanadi.

**Uchinchi guruhi** - rangli metallarning miqdori yuqori va ora-sira joylashgan polimetall rudalar. Bu guruhga foydalani layotgan qo'rg'-

oshin, ruxli va mis–ruxli konlarning rudalari kiradi. Bu turdagи rudalarda mis, qo‘rg‘oshin va ruxning umumiy miqdori 8-15% gacha yetadi.

Foydali mineralli yirik va ora-sira joylashgan rudalar to‘g‘ri selektiv flotatsiyalash sxemasi bo‘yicha boyitiladi. Agregatli va ora-sira joylashganda dastlabki kollektiv flotatsiyalash sxemasi ko‘proq samara beradi.

**To‘rtinchи guruhi** - rangli metallarning miqdori kam bo‘lgan va ora-sira joylashgan rudalar. Rangli metallarning umumiy miqdori qoidaga ko‘ra 3-4% dan ortmaydi, ba’zi hollarda esa 2%. Piritning miqdori ba’zan 30-40%ga yetadi. Bu guruhdagi rudalarni boyitishda iqtisodiy shartlar bo‘yicha dastlabki kollektiv flotatsiya sxemasini qo‘llash maqsadga muvofiq.

## **6. Boyitishning alohida siki va bosqichlarida flotatsiya sxemalarini tuzish**


Amalda ishlatiladigan flotatsiya sxemalari shuncha ko‘pki, ularni alohida hol uchun ko‘rib chiqishga imkoniyat yo‘q.

Boyitish siklining eng oddiy misoli bitta flotatsiya operatsiyali sxema hisoblanadi. Lekin bunday oddiy sxema faqat bitta ohirgi mahsulot olinadigan siklda ishlatilishi mumkin. Masalan, birinchi bosqichda flotatsiyalashda tayyor boyitmaning bir qismi va qaytadan yanchishga va flotatsiyaning ikkinchi bosqichiga tushuvchi boy chiqindi olinadi.

Agar boyitish siklida ikkita oxirgi mahsulot-konditsion boyitma va tashlab yuboriladigan chiqindi olinishi kerak bo‘lsa, murakkabroq boyitish sxemalari qo‘llaniladi.

Flotatsiya sxemasining tarmoqlanish yo‘nalishi asosan uchta shartga –rudadagi qimmatbaho mineralning miqdoriga, boyitmaga qo‘yiladigan talablarga va qimmatbaho mineralning flotatsiyalanish hususiyatlariga bog‘liq.


**1. Rudadagi qimmatbaho komponentning miqdori yuqori, boyitma sifatiga qo‘yiladigan talablar past, puch tog‘ jinslari flotatsion faol emas.** Bunda boyitmani tozalash operatsiyalarisiz, lekin chiqindini bir, ikki marta nazorat flotatsiyalash qo‘llanuvchi flotatsiya sxemasini ishlatish mumkin. Bunday sxemalar ko‘mir boyitish fabrikalarida, shuningdek, rangli metallarning boy rudalarini boyituvchi ba’zi fabrikalarda qo‘llanadi (14-rasm)




**14-rasm. Asosiy flotatsiya chiqindisini nazorat flotatsiyalovchi flotatsiya sxemasi**

**2. Qimmatbaho mineralning flotatsiyalanish qobiliyati past, boyitma sifatiga qo'yiladigan talablar ham past.** Yuzaga qalqib chiqib flotatsiyalangan minerallarni tozalash maqsadga muvofiq emas va ularni jarayondan tezda chiqarib olish kerak. Sxema nazorat flotatsiyalar sonining ortishi yo'nalishida tarmoqlanadi. Misol tariqasida mis-piritli rudalarni flotatsiyalash sxemasini keltirish mumkin (15-rasm).

Boyitmani ikki yoki uchta tozalash va bitta nazorat operatsiyali sxema qimmatbaho mineralning yuqori boyitish darajasiga erishishda yoki puch tog' jinslarining flotatsion aktivligi yuqori bo'lganda ishlataladi. U polimetall rudalarni boyitishning qo'rg'oshinli va ruxli sikllarida qo'llaniladi.



**15-rasm Nazorat flotatsiyasi sonlarining ortishi yo'nalishida rivojlanuvchi flotatsiya sxemasiga misol**



*16-rasm. Boyitmani bir marta tozalash va bitta nazorat flotatsiyali sxema*


**3. Rudadagi qimmatbaho mineralning miqdori kichik, boyitma sifatiga qo'yiladigan talablar yuqori, qimmatbaho mineral yaxshi flotatsiyalanadi.** Flotatsiya sxemasi boyitma tozalash operatsiyalarini soni ortishi yo'nalishida tarmoqlanadi. Bunday sxemalar molibdenli, grafitli rudalarni boyitishda qo'llanadi. Rudadagi molibden miqdorining kamligi boyitmaga qo'yiladigan talablar yuqoriligi sxemaga 5-8 tadan boyitmani tozalash operatsiyalarini kiritishni talab qiladi.

Molibdenitning yaxshi flotatsiyalanishi uni chiqindilar bilan yo'qolishidan cho'chimasdan ko'p sonli tozalash operatsiyalarini qo'llashga imkon beradi. Kambag'al grafitli rudalarni boyitishda 6-7 ta boyitmani tozalash operatsiyalarini qo'llovchi flotatsiya sxemalari ishlataladi.

Boyitmani bitta tozalash operatsiyasi qo'llaniladigan flotatsiya sxemalari qimmatbaho komponentning yuqori boyitish darajasi talab qilinmaganda, kambag'al ruda va boyitma sifatiga qo'yiladigan talab past; o'rtacha ruda va o'rtacha talablar, boy ruda va yuqori talablardan bo'lganda; o'rtacha ruda va o'rtacha talablarda, boy ruda va yuqori talablarda qo'llaniladi. Bunday sxema ko'pincha misli flotatsiyalashning kollektiv flotatsiyasida uchraydi.

Boyitmani bir marta tozalash operatsiyali flotatsiya sxemalari qimmatbaho komponentning yuqori boyitish darajasini olish talab qilinmaganda; kambag'al rudalar va boyitma sifatiga qo'yiladigan talab past bo'lganda; o'rtacha ruda va o'rtacha talablarda, boy ruda va yuqori talablarda qo'llaniladi. Bunday sxema ko'pincha misli flotatsiyalashning asosiy siklida, polimetall rudalarni kollektiv flotatsiyalash siklida uchraydi. Boyitmani ikki va uch marta tozalash va bitta nazorat

flotatsiyali sxemalar qimmatbaho mineralning yuqoriq boyitish darajasiga erishish lozim bo‘lganda yoki puch tog‘ jinslarining flotatsiyalanish faolligi yuqori bo‘lganda ishlatiladi. (17-rasm)



**17-rasm. Boyitmani ikki marta tozalash va bitta nazorat flotatsiyali flotatsiya sxemasi**

### Tayanch so‘z va iboralar

Polimetall rudalar, guruh, qimmatbaho komponentlar, flotatsiya, boyitma, chiqindi, flotatsiya sxemasi, nazorat va tozalash flotatsiyasi, sifatga talablar.

### Nazorat uchun savollar

1. Polimetall rudalarining birinchi guruhiga qanday rudalar kiradi?
2. Polimetall rudalarining ikkinchi guruhiga qanday rudalar kiradi?
3. Polimetall rudalarining uchinchi guruhiga qanday rudalar kiradi?
4. Polimetall rudalarining to‘rtinchi guruhiga qanday rudalar kiradi?
5. Rudadagi qimmatbaho komponentning miqdori yuqori boyitma sifatiga qo‘yiladigan talablar past rudalar uchun qanday flotatsiya sxemasi qo‘llaniladi?
6. Qimmatbaho mineralning flotatsiyalanish qobiliyatni past, boyitma sifatiga qo‘yiladigan talablar ham past bo‘lgan rudalar qanday flotatsiya sxemasi bo‘yicha boyitiladi?

7. Rudadagi qimmatbaho mineralning miqdori kichik, boyitma sifatiga qo'yiladigan talablar ham past bo'lgan rudalar qanday flotatsiya sxemasi bo'yicha boyitiladi?
8. Boyitmani bir marta tozalash operatsiyali flotatsiya sxemalari qanday hollarda qo'llaniladi?
9. Boyitmani ikki va uch marta tozalash va bitta nazorat flotatsiyali sxemalar qanday hollarda qo'llaniladi?
10. Molibdenli rudalarni boyitish uchun qanday flotatsiya sxemasi qo'llaniladi?

## 7. Boyitish jarayonining miqdor sxemasini hisoblash

Flotatsiya va gravitatsiya usulida boyitish jarayonining miqdor sxemasini hisoblash bir-biriga o'xhash bo'lgani uchun flotatsiya usulida boyitish jarayonining miqdor sxemasini hisoblash usulini keltiramiz (12-rasm).

Boyitishning miqdor sxemasini hisoblashda sxemadagi barcha mahsulotlar uchun asosiy texnologik ko'rsatkichlar –  $Q$ ,  $\gamma$ ,  $\beta$ ,  $\varepsilon$  larning son qiymati aniqlanadi:  $Q$  - mahsulotning og'irligi (t/soat yoki t/sut);  $\gamma$  - mahsulotlarning chiqishi, %;  $\beta$  - mahsulotlardagi qimmatbaho komponentning miqdori, %;

$E$  mahsulotlarga ajralish, %. Ba'zi hollarda qo'shimcha ravishda  $E$  - xususiy ajralishning qiymati aniqlanadi.

Miqdor sxemasi quyidagi tartibda hisoblanadi:

1. Sxemani hisoblash uchun kerakli va yetarli bo'lgan dastlabki ko'rsatkichlarning soni aniqlanadi.
2. Dastlabki ko'rsatkichlarning, ya'ni  $\varepsilon$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ , larning soni tanlanadi.
3. Dastlabki ko'rsatkichlarning son qiymati belgilanadi.
4. Sxema dastlabki ko'rsatkichlarni bog'lovchi tenglamalar orqali hisoblanadi.

5. Hisoblash natijalari jadval va grafiklar tarzida rasmiy lashtiriladi.

Sxemani hisoblash uchun kerak bo'ladigan dastlabki ko'rsatkichlar soni  $N=A-B$ , bu yerda:

$N$  – dastlabki ko'rsatkichlarning soni;  $A$  – dastlabki ko'rsatkichlarning umumiy soni,  $B$  – tenglamalarning umumiy soni.

Har qanday boyitish sxemasi ikki turdag'i jarayonlarni, ya'ni ajralish va qo'shilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ajralish jarayonlarida bitta

mahsulotdan ikki va undan ortiq, qo'shilish jarayonlarida esa ikki va undan ortiq mahsulotdan bitta mahsulot olinadi. Sxemadagi umumiy jarayonlar soni

$$a=a_a+a_q,$$

bu yerda:  $a$ ,  $a_a$ ,  $a_q$  – tegishli ravishda sxemadagi barcha operatsiyalar, ajralish va qo'shilish operatsiyalari soni.

Masalan, 12-rasmagi sxemada jami 8 ta operatsiya bo'lib, ulardan 5 tasi ajralish va 3 tasi qo'shilish operatsiyalaridir.

Har qanday boyitish sxemasi 3 turdag'i mahsulotlardan tashkil topadi:

1. Dastlabki mahsulotlar –  $n_d$
2. Ajralish mahsulotlari –  $n_a$
3. Qo'shilish mahsulotlari –  $n_q$ .

$$N = n_d + n_a + n_q$$

Berilgan sxema uchun  $n_d=1$ ,  $n_a=10$ ;  $n_q=3$ .

$$N=14$$

Hisoblanuvchi komponentlar soni s harfi bilan belgilanadi.

$s=1+ye$  (nometall rudalar uchun)

bu yerda:  $ye$  – hisoblanuvchi qo'shimcha komponentlar.

Sxemani hisoblashda har qaysi qayta ishlanuvchi mahsulot uchun  $\gamma, E, \beta$  ni son qiyatini aniqlash kerak.

Monometalli rudalar uchun  $s=2$ , ikki komponentli rudalar uchun  $s=3$  deb qabul qilinadi.

### Miqdor sxemasini hisoblash tartibi

1.  $N = c \cdot (1 + n_a + a_a) - 1$  formula orqali sxemani hisoblash uchun kerakli va yetarli dastlabki ko'rsatkichlarning soni aniqlanadi.

2.  $N = c \cdot (n_a - a_a)$  formula orqali qayta ishlash mahsulotlariga doir dastlabki ko'rsatkichlarning soni aniqlanadi.

3.  $N_{air,max} = n_a - a_a$  formula orqali sxemani hisoblash uchun kerak bo'ladigan ajralishga doir ko'rsatkichlarning soni aniqlanadi.

4.  $N_n = N_\gamma + N_\beta + N_s$  formula orqali sxemani hisoblash uchun mahsulotlardagi qimmatbaho komponentning miqdoriga doir ko'rsatkichlarning soni aniqlanadi. Bunda  $N_\gamma = 0$  va  $N_t = N_{air,max}$  deb qabul qilinadi.

5. Berilgan rudani boyitiluvchanlikka tekshirish hamda amalda ishlab turgan boyitish fabrikasi ish tajribalariga tayanib, boyitilgan mahsulot (boyitma) uchun  $\varepsilon, E, \beta$  ning son qiymatlari belgilanadi.

6. Texnologik ko'rsatkichlarni bog'lovchi tenglamalar orqali sxemadagi barcha mahsulotlar uchun  $\varepsilon_n$  ning qiymatlari topiladi.

7.  $\gamma_n = \frac{\beta_1 \cdot \varepsilon_n}{\beta_n}$  formula orqali  $\beta_n$  ning qiymati ma'lum mahsulotlar uchun chiqish hisoblanadi.

8. Balans tenglamalarini tuzish va hisoblash orqali sxemadagi boshqa mahsulotlarning chiqishi hisoblanadi.

9.  $\beta_n = \frac{\beta_1 \cdot \varepsilon_n}{\gamma_n}$  formulasi orqali sxemadagi qolgan mahsulotlar uchun  $\beta_n$  ning qiymati hisoblanadi.

10.  $Q_n = Q_1 \cdot \gamma_n$  va  $P_n = P_1 \cdot \varepsilon_n$  formulalari orqali mahsulotlarning og'irligi va ulardagi metallning massasi aniqlanadi.

### Boyitishning miqdor sxemasini hisoblashga misol

Berilgan sxemada operatsiyalar soni 7 ta, ulardan 4 tasi ajralish operatsiyalari, 3 tasi qo'shilish operatsiyalari. Ajralish mahsulotlarining soni 8 ta, qo'shilish mahsulotlarining soni 3 ta.

$$\begin{aligned} N &= n_\delta + n_a + n_q \\ n_\delta &= 1, \quad n_a = 8; \quad n_q = 3 \\ N &= 1+8+3=12 \\ a_a &= 4 \quad a_q = 3 \quad a = a_a + a_q = 8 \\ c &= 2 \end{aligned}$$

1. Sxemani hisoblash uchun dastlabki ko'rsatkichlarning kerakli va yetarli sonini aniqlaymiz.

$$N = c(1+n_a + a_a) - 1 = 2(1+8-4) - 1 = 9$$

2. Qayta ishlash mahsulotlariga doir dastlabki ko'rsatkichlarning kerakli va yetarli sonini aniqlaymiz.

$$N_n = c(n_a + a_a) = 2(8-4) = 8$$

3. Ajralishga doir ko'rsatkichlarning maksimal soni aniqlanadi.

$$N_{air. max} = n_a - a_a = 8 - 4 = 4$$

4. Qimmatbaho komponentning miqdoriga doir ko'rsatkichlarni quyidagi sharoitda aniqlaymiz.

$$N_{\gamma} = 0 ; N_e = 4$$

$$N_n = N_{\gamma} + N_{\beta} + N_e$$

$$10 = 0 + N_{\beta} + 4 \quad N_{\beta} = 4$$

Shunday qilib, dastlabki ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi: bitta ko'rsatkich dastlabki rudaga tegishli  $\beta_1$ , to'rtta ko'rsatkich ajralishga doir, to'rtta ko'rsatkich boyitmalardagi qimmatbaho komponentning miqdoriga doir. Qayta ishlanayotgan mahsulotlar uchun dastlabki ko'rsatkichlar sifatida oxirgi boyitmaga ajralish, asosiy va tozalash flotatsiyalarida xususiy ajralish, barcha boyitish operatsiyalari boyitmalaridagi qimmatbaho komponentning miqdori.

5. Rudani boyitiluvchanlikka tekshirish va boyitish fabrikasi ish tajribalariga tayanib dastlabki ko'rsatkichlarning son qiymatini qabul qilamiz.

$$E_3 = 85\% \quad \beta_6 = 50\%$$

$$E_8 = 92\% \quad E_{13} = 8\%$$

$$\varepsilon_8 = 90\% \quad \beta_3 = 40\%$$

$$\beta_8 = 60\% \quad \beta_{10} = 10\%$$

$$E_6 = 90\% \quad \beta_1 = 10\%$$

6.  $\varepsilon$  ning qiymatlarini aniqlaymiz.

$$\varepsilon_6 = \frac{\varepsilon_8}{E_8} = \frac{0,90}{0,92} = 0,978 = 97,8\%,$$

$$\varepsilon_9 = \varepsilon_6 - \varepsilon_8 = 97,8 - 90 = 7,8\%,$$

$$\varepsilon_5 = \frac{\varepsilon_6}{E_6} = \frac{0,978}{0,90} = 1,087 = 108,7\%,$$

$$\varepsilon_3 = \varepsilon_5 - \varepsilon_9 = 108,7 - 7,8 = 100,9\%,$$

$$\varepsilon_7 = \varepsilon_5 - \varepsilon_6 = 108,7 - 97,8 = 10,9\%,$$

$$\varepsilon_2 = \frac{\varepsilon_3}{E_3} = \frac{1,009}{0,85} = 1,187 = 118,7\%,$$

$$\varepsilon_{11} = \varepsilon_2 - \varepsilon_{10} = 118,7 - 100 = 18,7\%,$$

$$\varepsilon_4 = \varepsilon_2 - \varepsilon_3 = 118,7 - 100,9 = 17,8\%,$$

$$\varepsilon_{10} = \varepsilon_{11} - \varepsilon_7 = 18,7 - 10,9 = 7,8\%,$$

$$\varepsilon_{12} = \varepsilon_4 - \varepsilon_{10} = 17,8 - 7,8 = 10,0\%,$$

Tekshirish:  $\varepsilon_{12} = \varepsilon_1 - \varepsilon_8 = 100 - 90 = 10\%$

7.  $\gamma_n = \frac{\beta_1 \cdot \varepsilon_n}{\beta_n}$  formula orqali  $\beta_n$  ning ma'lum qiymatlari bo'yicha 3, 6, 8,

10 - mahsulotlarning chiqishini aniqlaymiz.

$$\gamma_3 = \frac{10 \cdot 100,9}{40} = 25,2\%,$$

$$\gamma_6 = \frac{10 \cdot 97,8}{50} = 19,6\%,$$

$$\gamma_8 = \frac{10 \cdot 90}{60} = 15\%,$$

$$\gamma_{10} = \frac{10 \cdot 7,8}{10} = 7,8\%,$$

8. Balans tenglamalari orqali qolgan hamma mahsulotlarning chiqishini hisoblaymiz.

$$\gamma_9 = \gamma_6 - \gamma_8 = 19,6 - 15 = 4,6\%,$$

$$\gamma_5 = \gamma_3 + \gamma_9 = 25,2 + 4,6 = 29,8\%,$$

$$\gamma_7 = \gamma_5 - \gamma_6 = 29,8 - 19,6 = 10,2\%,$$


$$\gamma_{11} = \gamma_7 + \gamma_{10} = 10,2 + 7,8 = 18,0\%,$$

$$\gamma_2 = \gamma_7 + \gamma_{11} = 100 + 18 = 118,0\%,$$

$$\gamma_4 = \gamma_2 - \gamma_3 = 118,0 - 25,2 = 92,8\%,$$

$$\gamma_{12} = \gamma_4 - \gamma_{10} = 92,8 - 7,8 = 85\%.$$

Tekshirish:  $\gamma_{12} = \gamma_1 - \gamma_8 = 100 - 15 = 85\%$



18-rasm. Boyitshning miqdor sxemasini hisoblash natijalarini sifat sxemasiga o'tkazish

9.  $\beta_n = \frac{\beta_1 \cdot \varepsilon_n}{\gamma_n}$  formula orqali mahsulotlardagi qimmatbaho komponentning miqdorini hisoblaymiz:

$$\beta_2 = \frac{10 \cdot 118,7}{118} = 10,6\%,$$

$$\beta_9 = \frac{10 \cdot 7,8}{4,6} = 16,96\%,$$

$$\beta_4 = \frac{10 \cdot 17,8}{92,8} = 1,92\%,$$

$$\beta_{11} = \frac{10 \cdot 18,7}{18} = 10,38\%,$$

$$\beta_5 = \frac{10 \cdot 108,7}{29,8} = 36,47\%,$$

$$\beta_{12} = \frac{10 \cdot 10}{85} = 1,18\%,$$

$$\beta_7 = \frac{10 \cdot 10,9}{10,2} = 10,69\%,$$

10.  $Q_n = Q_1 \cdot \gamma_n$  formula orqali mahsulotlarning og'irligini aniqlaymiz.

$$Q_2 = 200 \cdot 1,0435 = 208,7 t / soat$$

$$Q_3 = 200 \cdot 0,078 = 15,6 t / soat$$

$$Q_4 = 200 \cdot 0,9655 = 193,1 t / soat,$$

$$Q_5 = 200 \cdot 0,0921 = 18,42 t / soat,$$

$$Q_6 = 200 \cdot 0,0606 = 12,12 t / soat,$$

$$Q_7 = 200 \cdot 0,0315 = 6,3 t / soat,$$

$$Q_8 = 200 \cdot 0,465 = 93,0 t / soat,$$

$$Q_9 = 200 \cdot 0,0141 = 2,82 t / soat,$$

$$Q_{10} = 200 \cdot 0,912 = 182,4 t / soat,$$

$$Q_{11} = 200 \cdot 0,0435 = 87,0 t / soat,$$

$$Q_{12} = 200 \cdot 0,9535 = 190,7 t / soat,$$

11.  $P_n = P_1 \cdot \varepsilon_n$  formula orqali mahsulotlardagi metallning miqdorini aniqlaymiz.

$$P_1 = \beta \cdot \varepsilon_1 \cdot Q_1$$

$$P_1 = 3,1\% \cdot 100\% \cdot Q_1 = 0,031 \cdot 1 \cdot 200 = 6,2 t / soat$$

$$P_2 = 6,2 \cdot 1,187 = 7,36 t / soat,$$

$$P_3 = 6,2 \cdot 1,009 = 6,25 t / soat,$$

$$P_4 = 6,2 \cdot 0,178 = 1,1 t / soat,$$

$$P_5 = 6,2 \cdot 1,087 = 6,74 t / soat,$$

$$P_6 = 6,2 \cdot 0,978 = 6,06 t / soat,$$

$$P_7 = 6,2 \cdot 0,109 = 0,67 t / soat,$$

$$P_8 = 6,2 \cdot 0,9 = 5,58 t / soat,$$

$$P_9 = 6,2 \cdot 0,078 = 0,48 t / soat,$$

$$P_{10} = 6,2 \cdot 0,078 = 0,48 t / soat,$$

$$P_{11} = 6,2 \cdot 0,187 = 1,16 \text{ t / soat},$$

$$P_{12} = 6,2 \cdot 0,01 = 0,062 \text{ t / soat},$$

Boyitishning hisoblangan miqdor sxemasi maxsus forma asosida 6-jadvalga kiritiladi va grafikda  $\varrho, \gamma, \beta, \varepsilon$  ko'rinishida ifodalanadi. (18- rasm)

*6-jadval*

### Boyitishning miqdor sxemasini qayd qilish shakli

No	Jarayonlar va mahsulotlarning nomi	Q, t/soat	$\gamma, \%$	$\beta, \%$	$\varepsilon, \%$	$P, m / coar$
I	<i>Asosiy flotatsiya</i> Tushadi: 1. Klassifikator quyulmasi. 11. Oraliq mahsulot	200,0 36	100 18	10 10,38	100 18,7	20 3,74
2.	Ja'mi Chiqadi:	236	118	10,06	118,7	23,74
3.	Asosiy flotatsiya boyitmasi	50,4	25,2	40,0	100,9	20,18
4.	Asosiy flotatsiya chiqindisi	185,6	92,8	1,92	17,8	3,56
II	Ja'mi: <i>Boyitmani I-tozalash</i> Tushadi: 3. Asosiy flotatsiya boyitmasi 9. II-tozalash chiqindisi	236,0 50,4 9,2	118 25,2 4,6	10,06 40,0 16,96	118,7 100,9 7,8	23,74 20,18 1,56
5.	Ja'mi Chiqadi:	59,6	29,8	36,47	108,7	21,74
6.	I-tozalash boyitmasi I-tozalash chiqindisi	39,2 20,4	19,6 10,2	50,0 10,69	97,8 10,9	19,56 2,18
III	Ja'mi <i>Boyitmani II-tozalash</i> Tushadi; 6. I-tozalash boyitmasi	59,6 39,2	29,8 19,6	36,47 50,0	108,7 97,8	21,74 19,56
8.	Ja'mi Chiqadi;	39,2	19,6	50,0	97,8	19,56
9.	Oxirgi boyitma II- tozalash chiqindisi	30,0 9,2	15,0 4,6	60,0 16,96	90,0 7,8	18,00 1,56

IV	Ja'mi Nazorat flotatsiyasi Tushadi:	39,2	19,6	50,0	97,8	19,56
4.	Asosiy flotatsiya chiqindisi	185,0	92,8	1,92	17,8	3,56
10.	Ja'mi Chiqadi;	185,0	92,8	1,92	17,8	3,56
12.	Nazorat flotatsiyasi boyitmasi	15,6	7,8	10,0	7,8	1,56
	Oxirgi chiqindi	170,0	85,0	1,18	10,0	2,00
	Ja'mi	185,0	92,8	1,92	17,8	3,56

Boyitishning miqdor sxemasini hisoblash natijalari sifat sxemasiga quyidagi tartibda kiritiladi:  $\frac{Q_n; \gamma_n}{\beta_n; \varepsilon_n}$

### Tayanch so'z va iboralar

Dastlabki ko'rsatkichlar, ajralish, qo'shilish, component miqdori, mahsulotning chiqishi, qo'llanish maqsadlari, og'irlilik, miqdor sxemasi.

### Nazorat uchun savollar

1. Dastlabki ko'rsatkichlarning kerakligi va yetarli soni qanday aniqlanadi?
2. Dastlabki ko'rsatkichlarning son qiymati qanday belgilanadi?
3. Ajralishga doir ko'rsatkichlar soni qaysi tenglamadan topiladi?
4. Mahsulotlarning og'irligi (Q) va ulardag'i metallning massasi qaysi formuladan topiladi?
5.  $\varepsilon$ , E,  $\beta$  larning qiymatlari nima asosida belgilanadi?
6. Mahsulotlarning chiqishi qaysi formuladan topiladi?
7. Flotatsiyaning miqdor sxemasini hisoblash natijalari qay tarzda rasmiylashtiriladi?
8. Suv sarfi sxemasini loyihalash va hisoblash

Suv sarfi sxemasini loyihalashning maqsadi operatsiyalardagi suyuqlikning qattiq zarrachalarga (S:Q) nisbatini, operatsiyalarga qo'shila-

digan va buning aksicha mahsulotlardan ajralib chiqadigan suvning miqdorini, sxemalardagi mahsulotlar uchun S:Q nisbatini, boyitish fabrikasining suvgaga bo'lgan umumiy ehtiyojini aniqlash va suv bo'yicha balans tuzishdan iborat.

Sxemani hisoblash uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz.

$R_n$  – suyuqlikning qattiq zarrachalarga nisbati, son qiymati ( $m^3$  suv/ $1\text{ t}$  qattiq zarrachaga teng);

$W_n$  – operatsiya yoki mahsulotdagi suvning miqdori, ( $m^3$ /vaqt birligiga);

$L_n$  – operatsiya yoki mahsulotga qo'shiladigan suvning miqdori ( $m^3$ /vaqt birligiga);

$S_n$  – mahsulotning namligi, %;

$\delta_n$  – mahsulotdagi qattiq zarrachalarning zichligi,  $t/m^3$ ;

$V_n$  – bo'tananing hajmi,  $m^3$ /vaqt birligiga;

$L_n$  – alohida operatsiyalarga qo'shiladigan toza suvning sarfi,  $m^3/t$ ;

$$W_n = R_n \cdot Q_n \quad R_n = \frac{W_n}{Q_n} \quad (9)$$

$$R_n = \frac{S_n}{1 - S_n} \quad (10)$$

$$S_n = \frac{R_n}{1 + R_n} = \frac{W_n}{Q_n + W_n} \quad (11)$$

$$V_n = W_n + \frac{Q_n}{\delta_n} = R_n \cdot Q_n + \frac{Q_n}{\delta_n};$$

$$V_n = Q_n(R_n + \frac{1}{\delta_n}) \quad (12)$$

### Shlam sxemasini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar

Boyitishning yuqori texnologik ko'rsatkichlariga erishish uchun har qaysi mahsulotni qayta ishlash operatsiyalarini S:Q ning optimal nisbatida, ya'ni  $R$  ning optimal qiymatida o'tkazish kerak. Bu qiymatlar berilgan homashyoning boyitiluvchanligini o'rghanish natijalari hamda amalda ishlab turgan boyitish fabrikasi ish tajribalarini o'rghanish asosida belgilanadi.  $R$  ning belgilangan qiymatlari shlam sxemasini hisoblash uchun dastlabki ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ular dastlabki ko'rsatkichlarning birinchi guruhiga kiradi. Istalgan mahsulotning suyuqliagini unga suv qo'shib yoki undan suvni ajratib olib o'zgartirish mumkinligi tufayli boyitish operatsiyalarining barchasidagi suyuqlikning optimal imkoniyatlarini yaratish mumkin. Biroq,  $R$  ning qiymatini suv qo'shib oson oshirish mumkin bo'lsa, uning qiymatini pasaytirish murakkab

tuzilishga ega dastgohlarni qo'llovchi suvsizlantirish operatsiyalarini talab qiladi.

Ko'pchilik qayta ishlash operatsiyalarida bu operatsiyalardan chiquvchi ba'zi mahsulotlarning namligini boshqarish imkon bo'lmaydi. Masalan, mexanik klassifikatsiyalashda oddiy usullar bilan qumning namligini boshqarish mumkun emas. Flotatsiya operatsiyalarida berilgan boyitmaning sifati, reagent tartibida boyitmaning namligini keng chegarada o'zgartirish mumkin emas. Xuddi shular konsentratsion stolda, cho'ktirish mashinalarida, yuvishda, magnit separatorlarida boyitishga ham tegishli. Sanab o'tilgan boyitish operatsiyalarning barchasida qayta ishlashga tushayotgan mahsulotlarning suyuqligini o'zgartirish amalda olinadigan boyitmalarining namligini o'zgartirmaydi, lekin chiqindining namligiga ta'sir qiladi. Keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, boyitish operatsiyalaridan chiqadigan mahsulotlarning bir qismi nisbatan doimiy yoki qisqa chegarada o'zgaruvchi namlikka ega. Bunday mahsulotlar uchun R ning qiymati shlam sxemasini hisoblash uchun dastlabki ko'rsatkichlarning ikkinchi guruhini tashkil qiladi.

Ba'zi texnologik operatsiyalarning muvaffaqiyatli ketishini ta'minlash uchun faqat S:Q ning optimal nisbatini ta'minlabgina qolmay, operatsiyaga ma'lum miqdorda qo'shimcha suv qo'shish ham kerak bo'ladi (masalan, cho'ktirishda, yuvishda gidravlik klassifikatsiyada va h.k.).

Bir tonna rudani qayta ishlashga sarflanadigan qo'shimcha suvning miqdori ham sxemani hisoblash uchun dastlabki ko'rsatkichlarga kiradi va dastlabki ko'rsatkichlarning uchinchi guruhini tashkil etadi.

Operatsiya va mahsulotlardagi S:Q ning optimal nisbati, shuningdek qo'shimcha suv sarfi qayta ishlanadigan mahsulotning xossalariiga va qayta ishlash mahsulotlariga qo'yiladigan talablarga asosan keng chegarada o'zgaradi. Shuning uchun, dastlabki ko'rsatkichlar tarkibi jihatidan o'xhash rudani qayta ishlovchi boyitish fabrikalari ish tajribalariga, hamda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida belgilanadi. Hisoblashlar uchun 7-jadval ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

### **Suv sarfi sxemasi quyidagi tartibda hisoblanadi**

Dastlabki ko'rsatkichlarning son qiymati belgilanadi.

1. Yordamchi jadval tuziladi va sifat sxemasidan mahsulotlarning og'irligi va dastlabki ko'rsatkichlar yoziladi.

2.  $W_n = R_n \times Q_n$  formula orqali dastlabki ko'rsatkichlar bo'yicha R ning qiymati, ma'lum mahsulotlar va operatsiyalar uchun suvning miqdori hisoblanadi va yordamchi jadvalga yoziladi.

3. Balans tenglamalari orqali alohida mahsulotlarga qo'shiladigan suvning miqdori aniqlanadi va bir vaqtning o'zida sxemaning barcha mahsulotlaridagi suvning miqdori aniqlanadi.

4. (9) formula orqali  $R_n$  ning qiymati aniqlanadi.

5. (12) formula orqali barcha mahsulotlar va operatsiyalar uchun bo'tananing hajmi hisoblanadi.

6. Suv sarfi sxemasini hisoblashning natijalari jadval va grafik tarzida beriladi.

7. Boyitish fabrikasi bo'yicha suv balansi tuziladi.

7-jadval

### **Boyitishning ba'zi operatsiyalari va mahsulotlaridagi qattiq zarralarning tahminiy miqdorlari**

Operatsiyalar va mahsulotlarning nomi	Qattiq zarralarning miqdori, %	
	Operatsiyaga tushayotgan mahsulotda	Boyitish mahsulotlarida
Sharli va sterjenli tegirmonda yanchish	65-80	-
Klassifikator quyilmasida:		
0,3 mm gacha yanchishda	-	28-50
0,2 mm gacha yanchishda	-	25-45
0,15 mm gacha yanchishda	-	20-35
0,10 mm gacha yanchishda	-	15-30
Spiralli klassifikator qumi	-	80-85
Gidrosiklon qumlari	-	60-70
Ikki bosqichli sxemalarning asosiy flotatsiyasi birinchi bosqichida	30-50	-
Bir bosqichli sxemalarning asosiy flotatsiyasida va ikkinchi bosqichning asosiy flotatsiyasida:		
rudalar uchun	20-35	-
ko'mir uchun	17-25	-
Flotatsiya boyitmalarini tozalash	15-30	-
Asosiy flotatsiya boyitmasi	-	25-45

Nazorat flotatsiya boyitmasi	-	25-35
Flotatsiyaning tozalash operatsiyalari boyitmalar	-	30-50
Toshko'mirnni cho'ktirish	30-40	-
Rudani cho'ktirish	40-50	-
Suvszizlantiruvchi elevatorlar mahsulotlari: yirik mayda donali	- - -	80-90 75-85
Konsentratsion stolda	25-35	-
Stoldagi og'ir mahsulotlar	-	40-60
Stoldagi oraliq mahsulotlar	-	35-45
Vintli separatorlar	25-35	- -
Purkovchi va konusli separatorlar	45-55	20-50
Gidravlik klassifikatsiya	30-50	-
Gidravlik klassifikatorlarning qumli fraksiyasi	-	20-50
Quyiltirgichlarning quyiltirilgan mahsulotlar	-	50-70

8-jadval

### Boyitish operatsiyalariga suvning tahmimiyl me'yorlari (dastlabki bo'tanaga qo'shimcha qo'shiladigan suv)

Operatsiyaning nomi	1t qattiq zarraga sarflanadigan suv, m <sup>3</sup>
Ko'mirning yirik sinflari +12(8) mm ni cho'ktirish	3,5-4,5
Ko'mirning mayda sinflari -12(8) mm ni cho'ktirish	3,0-3,5
Klassifikatsiyalanmagan ko'mirni cho'ktirish, 100-0 mm	3,0-4,0
Qo'zg'aluvchi panjaralari cho'ktirish mashinalarida rudani cho'ktirish	3,0-4,0
Diaphragmali cho'ktirish mashinalarida rudani cho'ktirish	3,5-5,0
Porshnili cho'ktirish mashinalarida rudani cho'ktirish	6,0-8,0
Konsentratsion stolda boyitish	1,5-2,5
Qiya yuvuvchi tog'aralarda yuvish	3,0-6,0
Rudani skrubberlarda yuvish	1,0-2,0

Rudani butaralarda yuvish	0,5-1,5
Ho'l elash va elaklarda shlamsizlantirish	1,0-2,5
Tarmovlardan flotatsiya boyitmasini yuvib tushirish	0,5-1,5
Suspenziyani boyitish mahsulotlaridan yuvish:	
rudani	0,5-1,2
ko'mirni	0,4-0,8
Suvning umumiy sarfi:	
Flotatsiya va magnit boyitish fabrikalari	3-6
Cho'ktirishni qo'llovchi ko'mir boyitish fabrikalari	6-8
Yuvuvchi fabrikalar	4-8

### Suv sarfi sxemasini hisoblashga misol

Yanchish, flotatsiya va suvsizlantirish operatsiyalari uchun suv sarfi semasini hisoblang.

1. Ilmiy-tadqiqot ishlari hisobotlari va amalda ishlab turgan boyitish fabrikasi ko'rsatkichlariga asoslanib, dastlabki ko'rsatkichlarning son qiymatlarini belgilaymiz (7-jadval).

9-jadval

### Suv sarfi sxemasini hisoblash uchun dastlabki ko'rsatkichlar

I guruh. R ning ta'minlanishi kerak bo'lgan optimal qiymatlari	II guruh. R ning boshqarilmaydigan qiymatlari	III guruh. Alovida operatsiyalardagi toza suv sarfining me'yorlari		
$R_1=0,3$ $R_4=1,5$ $R_7=2,5$ $R_{IV}=0,4$ $R_4=2,8$	$R_{VI}=4,0$ $R_{VII}=2,8$ $R_{VIII}=4,0$ $R_X=1,0$ $R_{24}=2,5$	$R_1=0,03$ $R_5=0,25$ $R_8=0,3$ $R_{11}=2,5$	$R_{14}=2,0$ $R_{17}=1,5$ $R_{18}=3,0$	Boyitmani quyultirgichga uzatish uchun $l_{17}=1,5 \text{ m}^3/\text{t}$ , unda $R_{IX}=R_{17}+l_{17}=1,5+1,5=3,0 \text{ m}^3/\text{t}$

2. Yordamchi jadval tuzib, alovida mahsulot va operatsiyalardagi qattiq zarrachalarning miqdorini (miqdor sxemasini hisoblash natijalari asosida) suv sarfi sxemasini hisoblash uchun dastlabki ko'rsatkichlarni va  $W_n = R_n \cdot \delta_n$  formula orqali aniqlangan  $R_n$  ning qiymatlarini 8-jadvalda kiritamiz.

3. Alovida operatsiyalar va mahsulotlarga qo'shiladigan suvning miqdorini hisoblaymiz (65-rasm) [3].

I operatsiya uchun balans tenglamasi bo'yicha  $L_I$  ni aniqlaymiz.

$$W_1 + W_5 + L_m = W_I$$

$$L_I = W_I - W_1 - W_5 = 120 - 6 - 50 = 64 \text{ m}^3 / \text{soat}$$

Xuddi shu tartibda L va W larning keyingi qiymatlarini hisoblaymiz.

$$L_{II} = W_4 + W_5 - W_3 = 300 + 50 - 120 = 230 \text{ m}^3 / soat$$

$$L_{III} = W_7 + W_8 - W_9 - W_4 = 500 + 120 - 160 - 300 = 160 \text{ m}^3 / soat$$

$$L_{IV} = W_{IV} - W_8 = 160 - 120 = 40 \text{ m}^3 / soat$$

Keyingi hisoblashlarni sxema oxiridan olib boramiz.

$$L_{VII} = W_{VII} - W_{14} = 160 - 80 = 80 \text{ m}^3 / soat$$

$$W_{17} = W_{VII} - W_{16} = 160 - 45 = 115 \text{ m}^3 / soat$$

$$L_{VIII} = W_{VI} - W_{11} - W_{16} = 240 - 125 - 115 = 0 \text{ m}^3 / soat$$

$$W_{15} = W_{VI} - W_{14} = 240 - 80 = 160 \text{ m}^3 / soat$$

$$W_{20} = W_{15} + W_{18} = 160 + 60 = 220 \text{ m}^3 / soat$$

$$L_V = W_V - W_7 - W_{20} = 672 - 500 - 220 = -48 \text{ m}^3 / soat$$

I, ning qiymati manfiy chiqdi. Bu degani suvni qo'shish emas, balki yo'qotish maqsadida quyultirish operatsiyasi qo'llaniladi.

V operatsiyada suvning ortiqcha miqdori unchalik ko'p bo'limgani uchun quyultirish operatsiyasidan voz kechamiz. U holda

*10-jadval*

### Suv sarfi sxemasini hisoblash uchun yordamchi jadval

Operatsi-yalar va mahsulot-larning №	Q <sub>n</sub> , t/c	R <sub>n</sub>	W <sub>n</sub> , m <sup>3</sup> /ch	Operatsi-yalar va mahsulot-larning №	Q <sub>n</sub> , t/ch	R <sub>n</sub>	W <sub>n</sub> , m <sup>3</sup> /ch
I	200	0,03	6	13	60	-	-
2	400	-	-	VI	60	4,0	240
I	400	0,03	120	14	40	2,0	80
3	400	0,03	120	15	20	-	-
II	400	-	-	VIII	40	4	160
4	200	1,5	300	16	30	1,5	45
5	200	0,25	50	17	10	-	-
6	600	-	-	VII	190	2,8	532
III	600	-	-	18	20	3,0	60
7	200	2,5	500	19	170	-	-
8	400	0,3	120	20	40	-	-
IV	400	0,4	160	IX	30	3,0	90
9	400	0,4	160	21	0	-	-
10	240	-	-	22	30	1,0	30
V	240	-2,8	672	X	30	1,0	30
11	50	2,5	125	23	0	-	-
12	190	-	-	24	30	0,11	3,3

$$L_V = 0 \quad W_V = W_7 + W_{20} = 500 + 220 = 720 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$R_V = \frac{W_V}{Q_V} = \frac{720}{240} = 3,0$$

$$W_{12} = W_V - W_{11} = 720 - 125 = 595 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$L_{VII} = W_{VII} - W_{12} = 532 - 595 = -63 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Nazorat flotatsiyasida ham biroz ortiqcha suv bor, shuning uchun  $R_{VII}$  ning optimal qiymatiga erishish uchun asosiy flotatsiya chiqindisi quyultirilishi kerak. Lekin ortiqcha suv uncha ko'p bo'lmagan uchun quyultirish operatsiyasini qo'llamaymiz. U holda:

$$L_{VII} = 0 \quad W_{VII} = W_{12} = 595 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$R_{VII} = \frac{W_{VII}}{Q_{VII}} = \frac{595}{191,3} = 3,13 \text{ (2,18 o'smiga)}$$

$$W_{18} = W_{VII} - W_{18} = 595 - 60 = 536 \text{ m}^3/\text{soat}$$


4.  $R_n$  va  $V_n$  ning qiymatlarini (9) va (12) formulalardan topamiz.

Suv sarfi sxemasining hisoblash natijalari 9-jadval tarzida rasmiylashtiriladi.

11-jadval

### Suv sarfi sxemasining hisoblash natijalari

Mahsulotlar operatsiyalar №	Operatsiyalar va mahsulotlarning nomi	$Q, \text{m}^3/\text{s}$	$R$	$W, \text{m}^3/\text{s}$	$V, \text{m}^3/\text{s}$
V	<i>Asosiy flotatsiya Tushadi:</i>				
7	Klassifikator quyulmasi	200	2,5	500	5667
20	Birlashgan oraliq mahsulot Toza suv	40	5,5	220	233,3
10	Ja'mi	240	3,0	720	800,0
11	<i>Chiqadi:</i> Boyitma	50	2,5	125	141,7
12	Chiqindi	190	3,13	595	658,3
10	Ja'mi	240	3,0	720	800,0



19-rasm. Suv sarfi sxemasini hisoblashga doir(15 va 18-mahsulotlarning yig'indisi 20-mahsulot,1-tozalashga qo'shiladigan suvning miqdori-L<sub>vi</sub>)

### Suv balansi

Suv sarfi sxemasi boyitish fabrikasi bo'yicha umumiyl va toza suv balansini tuzishga yordam beradi. Jarayonlarga tushayotgan umumiyl suvning miqdori oxirgi mahsulotlar bilan chiqib ketayotgan suvning umumiyl miqdoriga teng bo'lishi kerak. Shuning uchun suv balansi quyidagi tenglik orqali ifoda qilinadi.

$$W_1 + \sum L = \sum W_o$$

bu yerda:  $W_i$ -dastlabki mahsulotlar bilan tushadigan suv miqdori;  
 L-jarayonga beriladigan suvning umumiyl miqdori;

$\sum W_o$  -oxirgi mahsulotlar bilan jarayondan chiqib ketadigan suvning umumiy miqdori.

Yuqorida hisoblangan suv sarfi sxemasi uchun suv balansi 12-jadvalda keltirilgan.

12-jadval

### Fabrikadagi umumiy suv balansi

Jarayonga tushadigan suv	$m^3 / soat$	Jarayondan chiqib ketadigan suv	$m^3 / soat$
Dastlabki ruda bilan $W_1$	6	Chiqindi bilan	535
I yanchish $L_1$	64	Quyultirgich quyulmasi bilan $W_{21}$	60
I klassifikatsiya $L_{11}$	230	Filtratda $W_{23}$	26,7
II klassifikatsiya $L_{12}$	160	Boyitma bilan $W_{24}$	3,3
II yanchish $L_{1V}$	40		
Boyitmani 2-tozalashga $L_{vIII}$	80		
Oxirgi boyitmaga $L_{16}$	45		
Hammasi bo'lib tushadi: $W_1 + \sum L$	625	Hammasi bo'lib chiqadi: $\sum W_o$	625,0

### Tayanch so'z va iboralar

Sxema, maqsad, hajm, bo'tananing hajmi, dastlabki ko'rsatkichlar, hisoblash natijalari, qattiq zarralar, suv, miqdor, zichlik, namlik, toza suv sarfi, sarflash me'yorlari, natijalar, suv balansi.

### Nazorat uchun savollar

1. Suv sarfi sxemasi nima maqsadda loyihalanadi?
2. Suv sarfi sxemasini hisoblash uchun yordamchi jadval qanday tuziladi?
3. Alovida mahsulotlarga qo'shiladigan suvning miqdori qanday hisoblanadi?
4. Operatsiyalarga tushadigan bo'tananing hajmi qanday aniqlanadi?
5. Dastlabki ko'rsatkichlarning son qiymatlari qanday belgilanadi?
6. Suv sarfi sxemasini hisoblash natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
7. Suv bo'yicha balans qanday tuziladi?

---

## **IV bob. ASOSIY BOYITISH DASTGOHLARINI TANLASH VA TEXNOLOGIK HISOBBLASH**

### **1. Dastgohlarni tanlash va texnologik hisoblashning umumiyl tamoyillari**

Boyitish dastgohlarini tanlashda uchta asosiy masalalarini hal qilishga to‘g‘ri keladi:

1. Apparatning turini aniqlash.
2. Uning ishlab chiqarish unumdarligini aniqlash.
3. Apparatning o‘lchami va o‘matiladigan apparatlarning talab qilinadigan sonini aniqlash.

Dastgohni tanlashda talab qilinadigan quvvat, aylanishlar soni va boshqa ko‘rsatkichlar hisoblanmaydi, chunki bu ko‘rsatkichlar dastgohlarni tayyorlovchi zavodlar kataloglaridan olinadi. Ulardan tegirmonlar va maydalagichlar mustasno.

Bir qator hollarda loyihalanayotgan sharoit uchun faqat bir turdag'i apparat qo‘llanishi mumkin. Biroq ko‘pincha bitta operatsiyani bajarish uchun turli turdag'i apparatlari ishlatalishi mumkin. Bunday hollarda apparatlarni to‘g‘ri tanlash alohida turdag'i apparatlarni texnik- iqtisodiy taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Boyitish apparatlaring ishlab chiqarish unumdarligi ko‘p omillarga bog‘liq. Ba’zi apparatlarni texnologik hisoblashdagi nazariy formulalari ideal sharoitlardan kelib chiqqan bo‘lib, oxirgi natijalarga ta’sir qiluvchi asosiy sabablarni hisobga oladi. Shuning uchun nazariy formulalar taqribiy hisoblanadi va bu formulalar bilan hisoblangan yoki natijalar amalda olingan ko‘rsatkichlardan farq qilishi mumkin. Bundan nazariy formulalar foydasiz degan hulosa kelib chiqmaydi. Ularning qimmatligi shundaki, ular oxirgi natija qanday sharoitlarga bog‘liq va alohida sharoitlar apparatlari ishiga qanday ta’sir etishini ko‘rsatadi. Nazariy formulalar turli sharoitlarda ishlovchi apparatlarning ishlab chiqarish unumdarligini aniqlashga asoslangan tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Boyitish dastgohlarining ishlab chiqarish unumdarligini aniqlash uchun quyidagi usullar ishlataladi.

**Ishlab chiqarish unumdorligini nazariy formulalar orqali aniqlash.** Ishlab chiqarish unumdorligi taxminan nazariy formulalar yordamida aniqlanishi mumkin bo‘lgan apparatlarga jag‘li va konusli maydalagichlar, gidravlik klassifikatorlar, quyultirgichlar va tindirgichlar, gidroseparatorlar, gidrosiklonlar, cho‘ktiruvchi sentrifugalar, siklonlar kiradi.

Yuqoridaagi apparatlar 2 turga bo‘linadi. Birinchi guruhga maydalangan mahsulotning hajmi va massasi nazariy aniqlanishi mumkin bo‘lgan maydalash mashinalari kiradi; ikkinchi guruhga esa qattiq jismning suvda va havoda og‘irlik yoki inersiya kuchi ta’sirida harakatlanish nazariyasiga asoslangan klassifikatsiyalovchi mashinalar kiradi.

**Ishlab chiqarish unumdorligini empirik formulalardan aniqlash** giratsion, inertsion, panjarali elaklar, spiralli klassifikatorlar va boshqa ba’zi apparatlar uchun qo‘llaniladi.

Empirik formulalar nazariy formulalarga o‘xshab ishlab chiqarish unumdorligi qayta ishlanayotgan mahsulotning eng muhim xossalari apparatning ishlash tartibiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Nazariy formulalardan farq qilib empirik formulalar shu formulalarning to‘g‘riliqi (haqligi) tajriba yo‘li bilan aniqlangan sharoitlarning orasida qo‘llanilishi mumkin.

**Ishlab chiqarish unumdorligini energiyaning solishtirma sarfi normalari bo‘yicha aniqlash.** Bu usulning mohiyati shundan iboratki, qayta ishlanadigan mahsulotning hajmi yoki massa birligiga energiya solishtirma sarfining normasi belgilanadi.

**Energiyaning solishtirma sarfi normalarini aniqlash uchun solishtirma yuk normalarini aniqlash**dagi usullar qo‘llaniladi, ya’ni asos uchun etalon mahsulot energiyasining solishtirma sarfini, etalon va tekshirilayotgan material energiya sarfini taqqoslash orqali belgilanadigan energiya sarfini nisbiy koeffitsientiga ko‘paytmasiga teng.

**Ishlab chiqarish unumdorligini qayta ishlanuvchi mahsulotning apparatda bo‘lish vaqtiga qarab aniqlash.** Ba’zi jarayonlarning muvaffaqiyatlari ketishi uchun mahsulotni qayta ishlashning aniq vaqtini talab qilinadi. Bu guruhdagi apparatlarning foydali hajmi vaqt birligida talab qilinadigan hajmiy ishlab chiqarish unumdorligini kerakli qayta ishlash vaqtiga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Alovida operatsiyalar uchun qayta ishlash vaqtini tadqiqot ishlari natijalari asosida belgilanadi.

**Ishlab chiqarish unumdorligini katalog va ma’lumotlardan aniqlash.** Ba’zi apparatlar (masalan tishli maydalovchi valoklar,

konsenratsion stollar)ning ishlab chiqarish unumtdorligi ularni tayyorlagan zavod kataloglari yoki ma'lumotnomalardan olinadi. Jag'li yoki konusli maydalagichlarning ishlab chiqarish unumtdorligi ham odatda, maydalanayotgan mahsulotning zichligiga va maydalagich bo'shatish tuynugining kengligiga tuzatish koeffitsiyenti kiritib kataloglardan olinadi. O'matiladigan apparatlarning soni dastgohning tanlangan o'lchamiga bog'liq. Kichik o'lchamdagи apparatlarni ishlatish binoning katta maydonini egallaydi, ularga hizmat ko'rsatish va ta'mirlashni qiyinlashtiradi. Ikkinci tomondan katta o'lchamdagи apparatlarni ishlatish binoning balandligini, kranlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishga hamda bitta apparat to'xtaganda katta miqdorda unumtdorlikning yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun har qaysi loyihalanayotgan boyitish fabrikasi uchun o'matiladagan dastgohning optimal o'lchamini aniqlash kerak. Ba'zi hollarda apparat o'lchamini tanlash faqat texnik shartlar orqali aniqlanadi. Masalan, maydalanuvchi bo'lakning o'lchamiga qarab tanlangan jag'li maydalagich ortiqcha unumtdorlikka ega bo'lsa, qolgan barcha variantlar bekor qilinadi, chunki kichik o'lchamli maydalagichni o'matish mumkin emas.

Agar texnik shartlarga asosan yirik va kichikroq dastgohlarni o'matish mumkin bo'lsa, apparatlar o'lchamini tanlash bir necha variantlami asosiy ko'rsatkichlar – dastgohning og'irligi, narxi, quvvati, binoning talab qilinadigan maydoni va hajmini texnik –iqtisodiy taqqoslash orqali tanlanadi.

Umumiyl holat sifatida quyidagilarni e'tiborga olish kerak: agar qandaydir operatsiya uchun bir turdagи apparatlarning hisoblangan soni 4-6 dan ko'p chiqsa, o'lchami kattaroq apparatga o'tish afzal (bu holatdan teskari hulosa chiqarish mumkin emas).

Zaxiradagi maydalagich va elaklarning soni maydalash sexi ishining sutkalik davomiyligi, qabul qiluvchi bunkerlarning hajmiga bog'liq.. Maydalashning birinchi bosqichi uchun zaxira maydalagich o'matilmaydi. Maydalashning ikkinchi va uchinchi bosqichida 2-3 ta ishlovchi maydalagich uchun bitta zaxira maydalagichi, 3-4 ta ishlovchi elak uchun bitta zaxira elak o'matiladi. Yanchish, boyitish va quyultirish operatsiyalari uchun zaxira apparatlari o'matilmaydi. Bunda dastgohlarni ta'mirlash uchun kerak bo'ladigan vaqt kalendar kunlarga nisbatan bir yildagi ish kunlari sonini qisqartirish hisobiga ko'zda tutiladi.

Boyitmalarни quritish va filtrlash uchun dastgohlar ishlab chiqarish unumtdorligining zaxirasi bilan loyihalanadi.

Ishlab chiqarish unumdarligi o‘rtacha va katta boyitish fabrikalarida filtrlash va quritish sexlari odatda boyitish sexi bilan bir vaqtda ishlaydi. Bu holda bosz binoning ishini chegaralamaslik uchun filtrlash va quritish sexlarida 3-4 ishlovchi apparatga bitta zaxira o‘rnataladi. Ishlab chiqarish unumdarligi kichik fabrikalarda, shuningdek, ishlab chiqarish unumdarligi katta, lekin boyitmaning chiqishi kichik (masalan, molibden) fabrikalarda boyitma quyultirgichlarda va bufer chanlarida to‘planishi mumkin. Bunda filtrlash va quritish sexining ishi bitta smenaga zaxira dastgohlarisiz loyihalanadi.

Bo‘tanani bir joydan ikkinchi joyga haydash uchun nasoslar yo galma-gal ishlaydi, yo ikkita ishlovchi nasosga bitta zaxira o‘rnataladi.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Bo‘tana, boyitish apparatlari, ishlab chiqarish unumdarligi, apparatda bo‘lish vaqt, apparatlar soni, qayta ishlash.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Boyitish apparatlarining turi qanday tanlanadi?
2. Apparatlarning ishlab chiqarish unumdarligi nazariy va formulalar orqali qanday aniqlanadi?
3. Apparatning ishlab chiqarish unumdarligi energiyasining solishtirma sarfi normalari bo‘yicha qanday aniqlanadi?
4. Ishlab chiqarish unumdarligi qayta ishlanayotgan mahsulotning apparatda bo‘lish vaqtiga qarab qanday aniqlanadi?
5. Yuzli va konusli maydalakichlarning ishlab chiqarish unumdarligi qanday aniqlanadi?
6. O‘rnataladigan apparatlar soni nimaga bog‘liq?

### **2. Maydalash uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash**

Yirik va o‘rta maydalash uchun maydalagichlarning turini va o‘lchamini tanlash foydali qazilmaning fizik xususiyatlariga, maydalagichning talab qilinadigan ishlab chiqarish unumdarligiga, maydalangan mahsulotning yirikligiga bog‘liq. Foydali qazilmaning fizik xususiyatidan qattiqligi va qovushqoqligi, loyning borligi, namlik, eng katta bo‘lakning o‘lchami va h.k. lar ahamiyatga ega.

## *Qattiq va o'rtacha qattiqlikdagi foydali qazilmalarni maydalash.*

Birinchi bosqichda yirik maydalash uchun jag'li va yirik maydalovchi konusli maydalagichlar ishlataladi.

Tanlangan maydalagichlar talab qilinadigan ishlab chiqarish unumidorligini maydalangan mahsulotning loyihalanadigan yirikligida ta'minlashi kerak.

Maydalagichning qabul qilish tuynugi maydalashga kelib tushadigan mahsulot tarkibidagi eng katta bo'lakning o'lchamidan 10-15 % katta bo'lishi kerak. Tanlashda jag'li va yirik maydalovchi konusli maydalagichning quvvati, og'irligi, narxi, joylashtirish qulayligi bo'yicha taqqoslash kerak.

Maydalagichlarning o'lchami ularni ishlab chiqaruvchi zavodlar kataloglaridan tanlanadi.

Birinchi bosqichda maydalash uchun maydalagichni shunday o'lchamda tanlash kerakki, boyitish fabrikasining kerakli ishlab chiqarish unumidorligi bitta maydalagichda ta'minlansin.

Kataloglarda maydalagichlarning ishlab chiqarish unumidorligi sochma zichligi  $1,6 \text{ t/m}^3$ , o'rtacha qattiqlikdagi va ruddagi eng katta bo'lakning o'lchami  $0,8-0,9 \text{ B}$  (bu yerda B- maydalagich qabul qilish tuynugining kengligi) sharoit uchun berilgan.

Boshqa fizik xususiyatli rudalar uchun rуданing qattiqligiga, sochma zichligiga, yirikligiga, namligiga tuzatish koeffitsientlari kiritilishi mumkin. Rudaning sochma zichligiga tuzatish quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$K_3 = \frac{\delta_c}{1,6} \approx \frac{\delta}{2,7}$$

bu yerda:  $K_3$  - tuzatish koeffitsienti;  $\delta_c$  -rudaning sochma zichligi  $\text{t/m}^3$ ;  $\delta$  -rudaning zichligi  $\text{t/m}^3$ , 1,6 va 2,7 - o'rtacha rudaning sochma zichligi va zichligi.

Hamma tuzatishlarni hisobga olgan holda maydalagichning ishlab chiqarish unumidorligi ( $t/\text{soat}$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Q = Q_k \cdot k_m \cdot k_\delta \cdot k_{yir} \cdot k_{nam}$$

bu yerda:  $Q_k$ -maydalagichning katalog bo'yicha ishlab chiqarish unumidorligi,  $t/\text{soat}$ ;  $k_m$  -rudaning qattiqligiga tuzatish,  $\text{t/m}^3$ ;  $k_{yir}$  -rudaning dastlabki yirikligiga tuzatish;  $k_{nam}$ -namlikka tuzatish koeffitsienti.

Amalda tuzatishlar maydalanuvchi rudaning xossalari o'rtacha rudaning xossalaridan keskin farq qilganda kiritiladi. Jag'li va konusli maydalagichlar quvvati o'ta qattiq rudani ham maydalay olishga yetadigan elektr dvigatellarga egaligi uchun ular faqat eng katta bo'lakning o'lchami va ishlab chiqarish unumidorligi bo'yicha tanlanadi.

Elektrodvigatel talab qiladigan quvvatni Bond usuli bilan hisoblash orqali topish mumkin. Berilgan ruda uchun mahsus soddalashtirilgan usul bo'yicha ish indeksi  $W_c$  aniqlanadi. Ruda namunasidan 50-75 mm o'lchamli 30-40 ta bo'lak ajratib olinadi. Bo'laklar ikki tomondan uriluvchi bolg'achalar yordamida maydalniladi. Tajriba natijalari asosida ish indeksi hisoblanadi..

It rudani maydalash uchun talab qilinadigan energiya quyidagi formuladan topiladi,  $kVt$  . soat/t:

$$W = 7.5 \omega_i \left( \frac{1}{\sqrt{d_{80}}} - \frac{1}{\sqrt{D_{80}}} \right)$$

bu yerda  $\omega$  ;- Bondning ish indyeksi;  $D_{80}$  va  $d_{80}$  –dastlabki va maydalangan mahsulot tarkibidagi teshiklaridan 80% mahsulot o'tadigan elak ko'zining o'lchamlari.

Hisoblashlarda  $D_{80}=(0.5-0.67)B$  deb qabul qilinadi, V-maydalagich qabul qilish tuynugining o'lchami .

Elyektrodvigatyelning istye'mol qiladigan quvvati.

$$N_{el.v.} = W \cdot Q \text{ } kVt$$

bu yerda  $Q$ - maydalagichning ishlab chiqarish unumidorligi, t/soat.

Maydalagichning turini tanlash asosan maydalashga kelib tushadigan eng katta bo'lakning o'lchami va kerakli ishlab chiqarish unumidorligining nisbati bilan aniqlanadi. Qabul qilish tuynugining kengligi bir xil bo'lganda konusli maydalagichlarning bo'shatish tuynugining uzunligi jag'li maydalagichnikiga nisbatan 2,5-3 marta katta. Shuning uchun konusli maydalagichning ishlab chiqarish unumidorligi ham xuddi shunday jag'li maydalagichnikiga nisbatan 2,5-3 marta katta. Buning oqibatida yirik ruda va uncha katta bo'limgan ishlab chiqarish unumidorligida konusli maydalagich to'la ishlay olmaydi. Bu holda jag'li maydalagichni o'matish afzalroq. Buning aksicha, ishlab chiqarish unumidorligi katta va rуданing yirikligi kichikroq bo'lganda konusli maydalagich o'matish maqsadga muvofiq.

Maydalagich turini tanlashda ishlab chiqarish unumidorligi va rudadagi eng katta bo'lakning o'lchamidan tashqari shuni hisobga olish kerakki, jag'li maydalagichlar konstruktiv jihatdan soddaroq tuzilishga

ega, balandligi jihatdan kam joy egallaydi, nam va loyli rudalarni maydalashda bosilib qolmaydi va h.k. Lekin jag'li maydalagichlar mahsulotni bir tekis berishni talab qiladi, ular mahsulot tizilib qolsa ishlamaydi, shuning uchun mahsulotni berish uchun ta'minlagich o'matiladi, ularning almashtiriladigan qismlari konusli maydalagichlarnikiga nisbatan tezroq ishdan chiqadi.

Shuning uchun agar jag'li maydalagichni texnik-iqtisodiy taqqoslash yaqqol afzalliklarni ko'rsatmasa, konusli maydalagichlarni qabul qilish kerak.

Qattiq va o'rtacha qattiqlikka ega rudalarni o'rta va mayda maydalash o'rta va mayda maydalovchi konusli maydalagichlarda amalgamoshiriladi. Bu maydalagichlar katalog va ma'lumotnomalardan tanlanadi. Kataloglarda ishlab chiqarish unumdorligi o'rtacha qattiqlikdagi rudalar uchun berilgani tufayli rudaning maydalanuvchanligiga, sochma zichligiga va yirikligiga tuzatishlar kiritiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Maydalagich turlari, qabul qilish tuynugi, bo'shatish tuynugi, o'lcham, ishlab chiqarish unumdorligi, tuzatish koefisienti, formula, elektrosvigatel, quvvat.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Maydalashlarning turini tanlash qaysi omillarga bog'liq?
2. Maydalashning qabul qilish tuynugi qanday tanlanadi?
3. Maydalagichlarning o'lchamlari qanday tanlanadi?
4. Maydalagichning ishlab chiqarish unumdorligi qaysi formuladan aniqlanadi?
5. Qaysi hollarda ishlab chiqarish unumdorligini hisoblash formulasiga tuzatish koefisientlari kiritiladi?
6. Maydalagich elektrosvigateli talab qiladigan quvvat qaysi usul bilan hisoblanadi?

### **3. Elash uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash**

Elaklarni ko'p sonli konstruksiyalari ichida quyidagilari ahamiyatiga ega: qo'zg'almas panjaralari, qutisi vertikal tekislikda aylanma tebranuvchi bir valli eksentrik (giratsion), qutisi vertikal tekislikda aylanma

yoki elliptik tebranuvchi inersion, qutisi panjara tekisligiga burchak ostida o'matilgan gorizontal to'g'ri chiziqli tebranuvchi vibratsion, rezonansli mexanik va elektrovibratsion, shuningdek yoysimon elaklar.

Qo'zg'almas panjaralari elaklar yirik elash uchun qo'llaniladi.

Panjaralari elaklar elash samaradorligining past bo'lishi (60-70%) mumkin bo'lganda va mahsulotning uvalanishi muhim ahamiyatga ega bo'limganda o'matiladi. Ularni maydalashning birinchi bosqichidan oldin rudani dastlabki elash uchun ishlatiladi. Panjaralar orasidagi masofani bu holda 60-70 mm dan ortiqroq qabul qilinadi.

Panjaralari elaklarda panjaraning yuzasi ( $m^2$ ) quyidagi empirik formuladan aniqlanadi.

$$F = \frac{Q}{2.4 \cdot a}$$

bu yerda: Q- elakning ishlab chiqarish unumdonligi, t/soat; a-panjaralar orasidagi masofa, mm.

Dastlabki ruda tarkibidagi katta bo'laklar ko'p bo'lganda mahsulot turib qolmasligi uchun elakning kengligi B ni eng katta bo'lakning o'lchamidan kamida 3 marta ortiq, yirik bo'laklarning miqdori uncha katta bo'limganda eng katta bo'lak o'lchamining 2 baravariga 100 mm qo'shib qabul qilinadi. Elakning uzunligi odatda kengligidan 2 barobar katta, ya'ni  $L=2B$  deb qabul qilinadi va amalda u 3,5 m dan 6 m gachani tashkil etadi.

Panjaralari elaklarning o'lchami uni o'matish sharoitlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, chunki elak bir vaqtning o'zida rudani maydalagichga uzatadi. Elakka mahsulotni to'nkariluvchi vagonlardan yuklashda uning kengligi vagon kuzovining uzunligiga, plastinkasimon ta'minlagich orqali yuklanganda ta'minlagich kengligiga teng deb qabul qilinadi. Elakning qiyalik burchagi rudani elash uchun  $30-35^{\circ}$ . Yopishib qolishga olib keladigan nam mahsulotni elashda elakning qiyalik burchagini  $5-10^{\circ}$ ga oshirish mumkin.

Yengil turdag'i vibratsion inertsiyon elaklar o'rtacha yiriklikdagi (teshiklar o'lchami 40 mm gacha) va mayda mahsulotni yuqori samaradorlikda elash uchun qo'llaniladi. Bunday elaklar asosan ko'mirni va kichikroq zinchlikdagi mahsulotni elash uchun ishlatiladi.

O'rta va og'ir turdag'i vibratsion, inersion elaklar yirik, o'rta va mayda mahsulotni elash uchun ishlatiladi. Og'ir turdag'i elaklar  $1,6 \text{ t/m}^3$  dan ortiq zinchlikka ega yirik va o'rtacha yiriklikdagi mahsulotni elash uchun tavsiya qilinadi.

Gorizontal vibratsion o‘z-o‘zini balanslovchi vibratorli elaklar quruq, yuvish orqali elovchi, suvsizlantirish, og‘ir suyuqliklarda boyitish mahsulotlarini suspenziyadan ajratish uchun tavsiya qilinadi. Bunday elaklar ko‘mirmi elash uchun yengil turda tayyorlanadi. Aglomeratni elash uchun o‘z-o‘zini balanslovchi elaklar elash yuzasi  $18 \text{ m}^2$  gacha va teshiklari  $20 \text{ mm}$  gacha o‘ta og‘ir turda tayyorlanadi.

Giratsion va vibratsion elaklarning ishlab chiqarish unumdonligi empirik formulalardan aniqlanadi.

Ruda, ko‘mir va maydalangan qurilish materiallarini elovchi elaklarni hisoblash uchun o‘zlarining tuzatish koeffitsientlariga ega turli formulalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ularning asosida bir xil solishtirma yuk yotadi, turli materiallar uchun tuzatish koeffitsientlaridagi farq yetarli darajada asoslanmagan.

Giratsion va vibratsion elaklarning ishlab chiqarish unumdonligi ( $t/\text{soat}$ ) taxminan quyidagi formuladan aniqlanishi mumkin:

$$Q = F \cdot q \cdot \delta \cdot k \cdot l \cdot m \cdot n \cdot o \cdot p$$

bu yerda:  $F$ -elakning ishchi maydoni,  $\text{m}^2$   $q$ -elakning  $1 \text{ m}^2$  yuzasiga to‘g‘ri keladigan solishtirma ishlab chiqarish unumdonligi,  $\text{m}^3/\text{soat}$ .

$\delta$  - mahsulotning sochma zichligi,  $\text{t/m}^3$

$k$   $l$   $m$   $n$   $o$   $p$  - tuzatish koeffitsientlari.

Hisoblashlarga aniqlik kiritish natijasida qo‘srimcha ravishda solishtirma ishlab chiqarish unumdonligiga tuzatish kiritish mumkin [1] a) to‘ming jonli kesimi (j.k.)ga koeffitsient:

$$\text{rudalar uchun } k_{j,k} = \frac{j \cdot k}{50}$$

$$\text{ko‘mir uchun } k_{j,k} = \frac{j \cdot k}{60}$$

b) ishchi yuza teshiklarining shakli

kvadrat, teshik  $k_t=1$

dumaloq  $k_t=0,8$

to‘rtburchak

2:1  $k_t=1,15$

3:1  $k_t=1,20$

4:1  $k_t=1,25$

v) val uzatmasining aylanish yo‘nalishiga:

elak qiyaligining yo‘nalishi bo‘ylab  $k_y=1$

qiyalikka teskari  $k_y=0,9$

Tanlangan elakni mahsulot qatlami qalinligi bo'yicha tekshirish kerak. Elakning bo'shatish tomonida mahsulot qatlami rudani elashda elak teshigi o'lchamidan 4 marta, ko'mirni elashda elak 3 marta, umuman ruda uchun 100 mm dan kichik va ko'mir uchun 150 mm dan kichik bo'lishiga ruxsat etiladi.

Elakning bo'shatish tomonidan elak usti mahsuloti qatlaming qalinligi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$h = \frac{P}{3.6 \cdot \delta \cdot g_m}$$

bu yerda:  $h$ - qatlamning qalinligi ,mm

$P$ - elak usti mahsulotining massasi,t/soat;

$\delta$  - mahsulotning sochma zichligi, t/m<sup>3</sup>;

$B$ - elakning ishchi kengligi (nominal kenglik-0,15m);

$g_m$  - mahsulotning elakda harakatlanish tezligi,m/s.

Hisoblashlar uchun mahsulotning elakda harakatlanish tezligini quyidakicha qabul qilish mumkin:

Aylanma harakatli elak (tebranishlar chastotasi 750-900 min<sup>-1</sup>, tebranishlar diametri-  $2r=8+11$ mm: elakning qiyaligi 20°,

$g_m=0,5-0,63$  m/sek

to'g'ri chiziqli tebranishli elak (tebranishlar chastotasi 850-900 min<sup>-1</sup>)

$g_m=0,2-0,23$  m/sek

Elash operatsiyalarida ham, suvsizlantirish operatsiyalarida ham elakning qiyalik burchagi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulotning elak bo'ylab harakatlanish tezligini va qalinligini belgilaydi.

Elakning optimal qiyalik burchagi tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Amalda elakni optimal burchak ostida joylashtirishga imkon yaratish uchun dastgohlarni joylashtirish vaqtida elakni maksimal burchak ostida o'matish kerak.

#### **4. Yanchish uchun tegirmonlarni tanlash va hisoblash**

Tegirmoning turini tanlashda birinchi navbatda po'lat yanchish vositali tegirmonlarni yoki o'zida-o'zini yanchuvchi tegirmonlarni ishlatalish masalasini hal etish kerak. Bu masala maydalash va yanchish sxemalari variantlarini texnik iqtisodiy taqqoslash orqali yechiladi.

Boyitish fabrikalarida po'lat yanchuvchi vositali tegirmonlardan asosan, sterjenli, markaziy bo'shatiluvchi sharli tegirmonlar ishlatiladi.

Sterjenli tegirmonlar mahsulotni 1-3 mm gacha yanchishda sharli tegirmonlarga nisbatan yuqoriq ishlab chiqarish unumdorligini beradi, lekin ular maydaroq mahsulot olish talab qilinganda samarali ishlay olmaydi. Bu tegirmonlar gravitatsiya va magnit usulida boyitiluvchi rudalarni (masalan,kamyob va qora metalllar rudalarini) dag'al (0,5-3 mm) tuyishda, shuningdek, ikki bosqichli yanchish sxemalarining birinchi bosqichida ishlatiladi. Boshqa hollarda sharli tegirmonlar samaraliroq ishlaydi.

Sharli tegirmonlardan panjara orqali bo'shatiluvchi tegirmonlar kengroq tarqalgan. Ularning ishlab chiqarish unumdorligi yuqoriq va yanchilgan mahsulotda shlamlarning miqdori markaziy bo'shatiluvchi tegirmonlarda qidari kamroq.

Panjara orqali bo'shatiluvchi tegirmonlarning solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi markaziy bo'shatiluvchi tegirmonlarga nisbatan 10-15% ortiq.

Panjara orqali bo'shatiluvchi tegirmonlarning kamchiligi ular tuzilishining nisbatan murakkabligi va buning natijasida narxining balandligi, hamda ularni ekspluatatsiya qilishning murakkabligidir.

Markaziy bo'shatiluvchi tegirmonlarning kamchiligi solishtirma ishlab chiqarish unumdorligining pastligi va yanchilgan mahsulotning kamroq shlamlanishi. Markaziy bo'shatiluvchi tegirmonlar mahsulotning o'ta yanchilishi keyingi qayta ishlash uchun foydali bo'lganda qo'llaniladi.

Keyingi yillarda markaziy bo'shatiluvchi tegirmonlar kengroq ishlatila boshlandi, bunga sabab spiralli klassifikatorlami gidrosiklonlarga almashtirilishidir. Markaziy bo'shatiluvchi tegirmonlar bo'tanasi tarkibida panjara orqali bo'shatiluvchi tegirmonlarda qidari nisbatan yirik sinf miqdori kam bo'lgani uchun tegirmonlar bilan yopiq siklda ishlovchi nasos va gidrosiklonlarning ishdan chiqishi kamayadi.

Po'lat yanchuvchi vositali tegirmonlar turini va o'lchamini tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish kerak.

1. Amaldagi standartlarga asosan sharli va sterjenli tegirmonlarni 4,5 m gacha diametrda tayyorlanadi. Kelajakda undan ham kattaroq tegirmonlarni ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

2. Katta o'lchamdagagi tegirmonlarni o'matish kapital harajatlarni sezilarli iqtisod qiladi, shu bilan bir vaqtda ular, ishlatilganda energiya

va po'lat sarfidan iqtisod qilinishi kutilmaydi. Ekspluatatsiya harajatlaridan bitta ishchiga tegirmonga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligi ortishi hisobiga ish haqi qisqaradi. Katta diametrli tegirmonlar o'rtacha diametrli tegirmonlarga nisbatan qoplamani almashtirish uchun tez-tez to'xtatib turiladi. Bu esa tegirmonlarning ishlatilish koeffitsientining pasayishiga olib keladi.

3. Tadqiqotlar natijasida sharli tegirmonlarga tushuvchi mahsulotning optimal yirikligi 10 mm ekanligi aniqlangan. Bunday yiriklikka rudani flotatsion yiriklikkacha bir bosqichda diametri 4-6 m li katta tegirmonlarda 50-80 mm li sharlar bilan yanchish orqali erishiladi. Potensial ishlab chiqarish unumdorligini belgilovchi tegirmonning iste'mol qiladigan quvvati sharlarning o'lchamiga bog'liq.

Agar tegirmondagи sharlarning diametri tegirmon diametridan  $0,012 \div 0,01$  kichik bo'lsa, tegirmon iste'mol qiladigan quvvat tegishli ishlab chiqarish unumdorligini pasaytirib kamayadi. Kichik sharlar ishlatilganda tegirmonda sharlarning bir nechta qatlamlari hosil bo'ladi va bu qatlanning qatlami ustida sirpanishi natijasida ichki qatlamlar tegirmon barabanini uzatmasidan berilgan aylanma momentni qabul qilmaydi va yanchuvchi vosita ichida tegirmonda ishlamaydigan qo'zg'almas sharlarning yadrosi hosil bo'ladi. Agar katta o'lchamdagи tegirmonlarni dastlabki rudaning yirikligiga mos kelmaydigan yirik sharlar bilan yuklansa, yanchish samaradorligi pasayib ketadi.

4. Agar rudani tegirmon qabul qiladigan 10 mm gacha o'lchamda tayyorlash mumkin bo'lmasa (loyli nam rudada maydalagich tiqilib elak to'rlari bekilib qoladi), sterjenli va sharli tegirmonlarda ikki bosqichda yanchishni qo'llashni ko'rib chiqish kerak.

Sterjenli tegirmonlarga mahsulotni 20 mm dan kichik o'lchamda berish maqsadga muvofiq. Sterjenli tegirmonda yanchilgan mahsulot yanchishni davom ettirish uchun sharli tegirmonga tushadi.

### **Tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligini aniqlash**

Sharli va sterjenli tegirmonlarning ishlab chiqarish unumdoligi bir qancha omillarga bog'liq: rudaning yanchiluvchanligi, dastlabki va oxirgi mahsulotning o'lchami; tegirmonning turi va o'lchami, qoplamaning shakli; tegirmonning yanchuvchi vosita bilan to'ldirilish darajasi; yanchuvchi vositaning granulometrik tarkibi, shakli, zichligi va qattiqligi, tegirmon barabanining aylanishlari soni; bo'tananing zichligi,

tegirmon ichida aylanuvchi yukning kattaligi; klassifikatsiyalovchi moslamaning ishlash samaradorligi va h.k.

Rudaning yanchiluvchanligi va boshqa sharoitlari keng o'zgarib turishi mumkinligi tufayli, tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligi katalog va ma'lumotnomalardan emas, balki hisoblashlar orqali aniqlanadi.

Ko'pincha, tegirmonlarning ishlab chiqarish unumdorligini hisoblash uchun ikkita usul: solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi va yanchish samaradorligi bo'yicha hisoblash ishlataladi.

Solishtirma ishlab chiqarish unumdorligini dastlabki ruda bo'yicha yoki ko'pincha, yangidan hosil bo'layotgan hisoblanuvchi sinf (-0,074 mm) ni tegirmon barabanining hajm birligiga nisbatidan aniqlanadi, keyin esa tegirmonning umumiyl ishlab chiqarish unumdorligi hisoblanadi. Yanchish samaradorligi tonnalardagi tayyor mahsulot yoki tonnalarda yangidan hosil bo'layotgan hisoblanuvchi sinfning 1kVt.suat sarflangan energiyaga nisbatidan aniqlanadi, keyin tegirmonning iste'mol qiladigan quvvatini hisobga olib umumiyl ishlab chiqarish unumdorligi hisoblanadi. Loyihalanayotgan tegirmonning solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi va yanchish samaradorligini aniqlashda amalda ishlab turgan, tegirmonlari optimalga yaqin sharoitda ishlovchi rudaning hususiyatlari va yanchish jarayoni yetarli darajada barqaror boyitish fabrikasida olingan ma'lumotlardan foydalaniadi.

### **Tegirmonni solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi bo'yicha hisoblash**

Loyihalanayotgan tegirmonning yangidan hosil bo'layotgan hisoblanuvchi sinf bo'yicha solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$q = q_1 \cdot K_s \cdot K_a \cdot K_D \cdot K_m$$

bu yerda:

q - loyihalanayotgan tegirmonning yangidan hosil bo'layotgan hisoblanuvchi sinf bo'yicha solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi, t/m<sup>3</sup>suat.

$q_1$  -boyitish fabrikasida ishlayotgan tegirmonning shu sinf bo'yicha solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi, t/m<sup>3</sup>suat.

$K_{ya}$ - loyihalanayotgan va qayta ishlanayotgan rudaning yanchiluvchanligidagi farqni hisobga oluvchi koeffitsient;

$K_y$ - loyihalanayotgan va qayta ishlanayotgan rуданинг охирги ва дастлабки махсулотларининг ўрікливігінде фарқні сиобеңгі олуышчи коеффициент.

$K_D$ - loyihalanayotgan va ishlayotgan тегірмөн барабанлары диаметріндегі фарқні сиобеңгі олуышчи коеффициент;

$K_T$ -loyihalanayotgan va ishlayotgan тегірмөнлардың түрдегі фарқні сиобеңгі олуышчи коеффициент.

Loyihalanayotgan va ishlayotgan тегірмөнлардың бoshqa ish sharoitlari uchun farqlarini (тегірмөн барабаныннің аяланышлары сони, тегірмөн ічіда аяланувчи Yuk, klassifikatorning ishlab samaradorligi va boshqalar) odatda hisobga olinmaydi, chunki loyihalanayotgan тегірмөн ishlab turgan тегірмөннің optimal ish tartibiga соzlangan deb taxmin qilinadi. Agar ishlayotgan тегірмөн optimal sharoitda ishlamasa, keltirilgan hisoblash usuli loyihalanayotgan тегірмөннің ishlab chiqarish unumdarligida bir muncha zaxira (rezerv) hosil bo'lishiga olib keladi. Bu holda aniq hisoblash uchun qo'shimcha tuzatishlar kiritish talab qilinadi.

$K_y$  коеффициентінің qiymati tekshirilayotganrudani yanchishda hosil bo'layotgan hisoblanuvchi sinf bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligini shu тегірмөнни etalon ruda deb qabul qilinganrudani yanchishda shu sinf bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligiga nisbati sifatida tajriba yo'li bilan (laboratoriya sharoitida ham mumkin) aniqlanadi. Ikkala holda ham rуданың ўрікливі, yanchilgan mahsulotdagи hisoblanuvchi sinfnинг miqdori va yanchish tartibi bir xil bo'lishi kerak .

$K_y$  коеффициентінің qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$K_y = \frac{m_2}{m_1}$$

bu yerda:  $m_1$  - amalda ishlab turgan boyitish fabrikasida qayta ishlanayotgan ruda uchun hisoblanuvchi sinf bo'yicha тегірмөннің nisbiy ishlab chiqarish unumdarligi.

$m_2$ - xuddi shuning o'zi loyihalanayotgan ruda uchun.

O'rtacha qattiqlikdagи rудалар uchun hisoblanuvchi sinf (-0,074mm) ning dastlабki  $\beta_s$  va oxirgi  $\beta_e$  mahsulotlardagи taxminiy qiymatlari 13-jadvalda ko'rsatilgan.

**Hisoblanuvchi sinf (-0,074mm) ning dastlabki  $\beta_s$  va oxirgi** **$\beta_o$  mahsulotlardagi taxminiy qiymatlari**

Dastlabki mahsulotning yirikligi, mm.	-	-	40-0	20-0	10-0	5-0	3-0
$\beta_s$ - dastlabki mahsulotdagi - 0,074 mm li sinfnинг miqdori %	-	-	3	6	10	20	23
Oxirgi mahsulot yirikligi, mm.	1-0	0,4-0	0,3-0	0,2-0	0,15-0	0,1-0	0,074-0
$\beta_o$ - oxirgi mahsulotdagi - 0,074 mm li sinfnинг miqdori %	30	40	48	60	72	85	95

$m_1$  va  $m_2$  larning qiymati 13-jadvaldan aniqlanadi.

 **$M_1$  va  $M_2$  larning qiymati**

Dastlabki mahsulotning yirikligi, mm.	-0,074 mm li sinfnинг oxirgi mahsulotdagi miqdori; %						
	30	40	48	60	72	85	95
m ning qiymati							
40-0	0,68	0,77	0,81	0,83	0,81	0,80	0,78
20-0	0,81	0,89	0,92	0,92	0,88	0,86	0,82
10-0	0,95	1,02	1,03	1,00	0,93	0,90	0,85
5-0	1,11	1,15	1,13	1,05	0,95	0,91	0,85
3-0	1,17	1,19	1,16	1,06	0,95	0,91	0,85

$K_D$  koeffitsientining qiymati quyidagi formuladan hisoblanadi.

$$K_D = \left( \frac{D - 0.15}{D_1 - 0.15} \right)^{0.5}$$

bu yerda: D va  $D_1$  tegishli ravishda loyihalanayotgan va ishlayotgan (etalon) tegirmon barabanining diametri.

$K_T$  koeffitsientning qiymati markaziy bo'shatiluvchi tegirmondan panjara orqali bo'shatiluvchi tegirmonga o'tishda 1,10-1,15, teskarisida 0,9-0,85 deb qabul qilinadi.

Dastlabki ruda bo'yicha tegirmonning ishlab chiqarish unumdonligi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$Q = \frac{qV}{\beta_o - \beta_s}$$

bu yerda : V- tegirmon barabanining hajmi,  $m^3$

## **Tegirmonlarni yanchish samaradorligi bo'yicha hisoblash**

Loyihalanayotgan tegirmon uchun yanchish samaradorligi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$ye = ye \cdot K_{ya} \cdot K_y$$

$K_{ya}$  va  $K_y$  -yanchiluvchanlik va yiriklik koeffitsientlari tegirmonning solishtirma ishlab chiqarish unumdarligini hisoblashdagidek aniqlanadi

bu yerda:  $ye$ -loyihalanayotgan tegirmonning yangidan hosil bo'ladigan hisoblanuvchi sinf bo'yicha yanchish samaradorligi, t/kVt. soat ;  $ye_1$ - amalda ishlayotgan tegirmonning yangidan hosil bo'ladigan hisoblanuvchi sinf bo'yicha yanchish samaradorligi, t/kVt. soat.

Yanchish samaradorligini hisoblash formulasiga tegirmonning turi va o'lchamini hisobga oluvchi koeffitsientlar kirmaydi, chunki ular yanchish samaradorligining kattaligiga sezilsiz ta'sir ko'rsatadi.

Tegirmonning dastlabki ruda bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligi (t/soat) quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$Q = \frac{N \cdot I}{\beta_o - \beta_g} = \frac{N_y \cdot \eta \cdot e}{\beta_o - \beta_g}$$

bu yerda:  $N$  – tegirmonning iste'mol qiladigan quvvati, kVt;

$N_u$ - o'matish quvvati, kVt;

$\eta$  -iste'mol qiladigan quvvatning o'matish quvvatiga nisbati, ( $\eta=0,85-0,90$ )

$\beta_o$  va  $\beta_g$  larning qiymati avvalgidek.

## **Tayanch so'z va iboralar**

Tegirmonlar turi, shar, sterjen, bo'laklar, o'lcham, quvvat, yanchish sxemalari, tegirmonning ishlab chiqarish unumdarligi, afzallik, kamchilik, tuzatish koefisietti, yanchish samaradorligi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Tegirmonlarning turi nima asosida tanlanadi?
2. Sterjenli tegirmonlar qanday hollarda qo'llanadi?
3. Sharli tegirmonlar qanday turlarga bo'linadi?

4. Katta o'lchamdag'i tegirmonlarni o'matishning afzalliklari va kamchiliklari.
5. Tegirmonlarning iste'mol qiladigan quvvati nimaga bog'liq?
6. Ikki bosqichli yanchish qanday hollarda qo'llaniladi?
7. Tegirmonlarning ishlab chiqarish unumdarligi qanday omillarga bog'liq?
8. Tegirmonlarning ishlab chiqarish unumdarligini hisoblash uchun qanday usullar mavjud?
9. Tegirmonning ishlab chiqarish unumdarligi deganda nimani tu-shuniladi?

## **5. Klassifikatsiya uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash**

**Mexanik klassifikatorlar va gidrotsiklonlar.** Mexanik klassifikatorlarga reykali, spiralli va kosali klassifikatorlar kiradi. Reykali va kosali klassifikatorlar qumni chiqarib yuborish mexanizmining murakkabligi tufayli spiralli klassifikatorlar tomonidan siqb chiqarilgan va hozirda qurilayotgan fabrikalarda qo'llanilmaydi. Spiralli klassifikatorlar ikki turda-botmagan va botgan spiralli qilib tayyorlanadi. Amaldagi boyitish fabrikalarida ikkala turdag'i klassifikatorlarni uchratish mumkin. Lekin spiralli klassifikatorlar ham gidrosiklonlarga almashtirilmoqda.

Spiralli klassifikatorlar gidrotsiklonlarga nisbatan kam elektr energiya sarflaydi, nisbatan yirikroq mahsulotni klassifikatsiyalay oladi va uzoqroq ta'mirlash davriga ega. Asosiy kamchiligi narxining balandligi va gabarit o'lchamlarining kattaligi. Bu dastgohlarga va boyitish fabrikasi binolarining qurilishiga kapital harajatlarni oshiradi. Shu kamchiliklar tufayli spiralli klassifikatorlar gidrosiklonlar tomonidan siqb chiqarilmoqda.

Dastlabki vaqtarda gidrosiklonlar mexanik klassifikatorlar o'miga asosan yanchishning ikkinchi bosqichida o'matildi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, ikkinchi bosqich tegirmonidan tushiriladigan mayin tuyulgan mahsulotda nasoslar va gidrosiklonlarning ishdan chiqishi, gidrosiklon nasadkasining yopilib qolish ehtimoli yanchishning birinchi bosqichidagi tegirmondan chiqayotgan yirik mahsulotga nisbatan kam.

Keyinroq, qo'pol spiralli klassifikatordan qutulish va shu bilan nasos va gidrosiklonlar ishini osonlashtirish uchun birinchi bosqich

sterjenli tegirmonlar mahsuloti to'g'ridan to'g'ri ikkinchi bosqich sharli tegirmoniga tushuvchi yanchish sxemasi qo'llanila boshlandi. Bu sxemaning kamchiligi shundaki, ikkinchi bosqichda yanchish tegirmoniga katta miqdorda yiriklik bo'yicha tayyor mahsulot tushadi. Bu rudaning ortiqcha shlamlanishiga va tegirmonning yangidan hosil bo'layotgan tayyor sinf bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligini pasayishiga olib keladi.

Ba'zi boyitish fabrikalarida sterjenli tegirmonlarning quyulmasi gidrosiklonlarga tushadi, bunda tegirmonning bo'g'ziga yirik mahsulotni ajratib olish uchun butara o'matiladi. Gidrosiklonlarni sterjenli tegirmonlar quyulmalarini klassifikatsiyalash uchun ishlatilishi mumkinligi spiralli klassifikatorlarni ishlatish sohalarini yanada chegaralaydi.

Biroq bir qator sharoitlarni jamlaganda spiralli klassifikatorlarni o'matish tejamliroq hisoblanishi mumkin. Bunday sharoitlarga quyidagilar kiradi: tegirmonni bitta spiralli klassifikator bilan bog'lashga imkon beruvchi o'rtacha o'lchami, yirik va abraziv mahsulotni klassifikatsiyalash zaruriyati, elektr energiyaning yuqori narxi, markazdan qochuvchi nasos va gidrosiklonlarning almashtiriluvchi qismlari uchun yeyilmaydigan materiallar qo'llash imkonining chegaralanganligi. Bu holda spiralli klassifikatorning roli gidrosiklonga kelib tushadigan mahsulot tarkibidagi nisbatan yirik qumlarni ajratib olib, sharli tegirmonga yo'naltirishga qaratilgan. Mexanik klassifikatorlarning o'lchamini kichraytirish uchun klassifikatorning maksimal ishlab chiqarish unumdarligiga to'g'ri keluvchi zichlikda imkon boricha dag'al (-0,6-0,8mm) quyulma olish kerak. Qolgan barcha hollarda gidrotsiklonlarni qo'llash afzal.

### **Spiralli klassifikatorlarni hisoblash**

Tanlangan klassifikator talab qilinadigan ishlab chiqarish unumdarligini quyulma va qum bo'yicha ta'minlanishi kerak.

Spiralli klassifikatorlarning quyulmadagi qattiq zarrachalarning massasi bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligi klassifikator tog'orasining o'lchami va qiyalik burchagiga, quyulmaning yirikligiga, zichligiga, klassifikatsiyalanuvchi mahsulotning granulometrik tarkibiga, bo'tananing qovushqoqligiga bog'liq.

Spiralli klassifikatorning quyulma bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligi quyidagi formuladan topiladi:

$$Q=4.55 m \cdot k_{\beta} \cdot k_{\delta} \cdot k_c \cdot k_{\alpha} \cdot D^{1765}$$

bu yerda:  $m$ -spirallar soni;  $k_{\beta}$  -quyulmaning yirikligiga tuzatish koefitsienti;  $k_{\delta}$  -rudaning zichligiga tuzatish koefitsienti;  $k_c$  -quyulmaning zichligiga tuzatish koefitsienti;  $k_{\alpha}$  -klassifikator tubining qiyalik burchagiga tuzatish koefitsienti.

$\alpha^0$	14	15	16	17	18	19	20
$k_{\alpha}$	1.12	1.10	1.06	1.03	1	0.97	0.94

$k_{\delta}$  - klassifikatsiyalanuvchi mahsulotning zichligi 2,2 dan 5,0  $t/m^3$  orasida bo'lganda

$$k_{\delta} = \frac{\delta}{2.7}$$

$k_c$  koefitsientining qiymati  $R_t : 2,7$  nisbatdan topiladi; bu yerda:  $k_{2,7}=S:Q$  ning bazis nisbati (15-jadvaldan),  $R_t$ -klassifikator S:Q ning texnologik jarayonning talab qilinadigan sharoitlari bo'yicha nisbati.

### 15-jadval

#### Quyulmaning suyuqligini hisobga oluvchi $k_c$ koefitsienti

Rudanining zichligi, $t/m^3$	R <sub>t</sub> : R <sub>2,7</sub> nisbati					
	0,4	0,6	0,8	1,0	1,2	1,5
2,7	0,60	0,73	0,86	1,00	1,13	1,33
3,0	0,63	0,77	0,93	1,07	1,23	1,44
3,3	0,66	0,82	0,98	1,15	1,31	1,55
3,5	0,68	0,85	1,02	1,20	1,37	1,63
4,0	0,73	0,92	1,12	1,32	1,52	1,81
4,5	0,78	1,00	1,22	1,45	1,66	1,99

Mayin shlamlarning miqdori ko'p mahsulotni klassifikatsiyalashda bo'tananing qovushqoqligi ortadi, natijada zarrachalarning chiqish tezligi sekinlashadi. Shuning uchun formula bo'yicha hisoblangan ishlab chiqarish unumдорлиги birlamchi shlamlarning miqdori yuqori bo'lgan rudalar uchun 20-25% ga, shlamlarning miqdori kam bo'lgan rudalar uchun 10-20% ga kamaytirilishi kerak.

## Gidrosiklonlarni hisoblash

Gidrosiklonlarni tanlash klassifikatsiyaning shlamli sxemasini aniqlashdan boshlanishi kerak.

Klassifikatsiya yoki yanchishning yopiq sikli bilan bog'lanmagan shlamsizlantirish operatsiyalarini hisoblashda, odatda, dastlabki bo'tananing suyuqligi va granulometrik tarkibi, shuningdek quyulmaning yirikligi (faqat ma'lum sinf bo'yicha) beriladi.

Hisoblashlar uchun quyidagi holatlarni qabul qilish tavsiya etiladi:

1) dastlabki mahsulot va quyulmaning granulometrik tarkibini Rozin va Rammlerning soddalashtirilgan tenglamasi bilan ta'riflanadi:  $1-\beta_d^{kd}=1-\beta_g^{kd}$ -bu yerda  $\beta_d^{kd}$  mahsulotdagi d dan mayda sinfnинг miqdori; k-tenglamaning parametri.

2) 0,15  $d_n$  dan mayda sinf (uni  $\beta^1$  deb belgilaymiz) mahsulotlar uchun suvdek taqsimlanadi, bu yerda  $d_n$ -quyulmaning nominal yirikligi, ya'ni ustida 5% mahsulot qoluvchi elakning o'lchami.

$$\frac{Q_e \cdot R_e}{Q_g \cdot R_g} = \frac{Q_x \cdot \beta_e^1}{Q_g \cdot \beta_g^1}$$
$$R_e = \frac{\beta_g^1}{\beta_d^1} \cdot R_g$$

bu yerda:  $Q_q$  va  $Q_d$ -quyulma va dastlabki mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumдорлиги.

3) qumming suyuqligi  $R_q=0,67-0,33$  (65-75% qat), qattiq zarracha-larning bundan ortiq miqdori yirik quyulma va katta zichlikdagи rudalarga to'g'ri keladi.

4) yuqoridagi holatlar asosida quyulmaning va qumming (operatsi-yadan) chiqishini hisoblaymiz.

$$\gamma_c = \frac{\beta_d^1 \cdot R_g - \beta_x^1 \cdot R_{qym}}{\beta_x^1 \cdot (R_x - R_{qym})} \quad \gamma_{qym} = 1 - \gamma_x$$

bu yerda:  $\beta_d^1$  va  $\beta_g^1$  dastlabki mahsulot va quyulmadagi mayda sinf (-0,15  $d_n$ )ning miqdori.

Gidrosiklonni tegimon bilan yopiq siklda ishlagandagi shlam sxemasini hisoblash uchun tegimon ichida aylanuvchi yukni berish kerak.

1) Shunday qilib quyulmaning chiqishi dastlabki ko'rsatkichlar qatorida namoyon bo'ladi:

$$\gamma_q = \frac{Q_s}{Q_s(1+C)} = \frac{1}{1+C}$$

bu yerda: C- tegirmon ichida aylanuvchi yukning kattaligi;

$$Q_{qum} : Q_g = C$$

2) quyulmaning yirikligi berilgan

3) quyulmadagi qattiq zarrachalarning miqdorini quyidagi empirik formuladan aniqlash mumkin.

$$\beta_q^{qat} = \frac{[1 - 0.7 \beta_q^{-0.74} \cdot (\frac{2.7}{\rho})^{0.25}] \cdot \beta_{qum}^{qat} \cdot \gamma_q}{\beta_{qum}^{qat} - [1 - 0.7 \beta_r^{-0.74} \cdot (\frac{2.7}{\rho})^{0.25}] (1 - \gamma_q)}$$

bu yerda:  $\beta_q^{qat}$  va  $\beta_{qum}^{qat}$  –gidrosiklon quyulmasi va qumdag'i qattiq zarrachalarning miqdori;

$\beta_q^{-0.74}$  quyulmadagi -74 mkm sinfning miqdori ;  $\gamma_5$ -quyulmaning chiqishi .

Gidrotsiklonning dastlabki ruda bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligi quyidagi empirik formuladan aniqlanadi.

$$V = 3k_a \cdot k_D \cdot d_n \cdot d \sqrt{P_0}$$

bu yerda: V- ishlab chiqarish unumdorligi,  $m^3$ /soat;  $k_a$  –i gidrosiklon konuslik burchagiga tuzatish.

$\alpha$	$k_a$
10°	1.15
20°	1.0

$k_D$ - gidrosiklon diametriga tuzatish

$$k_D = 0.8 + \frac{1.2}{1+0.1D}$$

bu yerda: D-gidrosiklon diametri.

D, sm.....15 25 36 50 71 100 140 200

$k_D$ ..... 1,28 1,14 1,06 1,0 0,95 0,91 0,88 0,81

Gidrosiklon balandligi.Hg,m - - - - - 3,5 4,5 6 8

$d_n$ -bo'tana bilan ta'minlanuvchi teshikning diametri, sm,  $R_0$  - bo'tananing gidrotsiklonga kirishdagi bosimi, MPa

Diametri 50 sm dan katta bo'lganda gidrotsiklonning balandligini ham hisobga olish kerak:

$$P_0 = P + 0.01 H_g \cdot \rho_n$$

bu yerda:  $R_0$ - gidrosiklonga kirishdagi bosim MPa;  $H_g$ -gidrosiklon balandligi .m;  $\rho_n$  – dastlabki bo'tananing zichligi,g/sm<sup>3</sup>

## **Tayanch so‘z va iboralar**

Klassifikator, mexanik, spiral, gidrosiklon, bosqich, ta’sir qiluvchi omillar, afzallik, kamchilik.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Mexanik klassifikatorlarga qaysi klassifikatorlar kiradi?
2. Spiralli klassifikatorlarning qanday turlari bor?
3. Spiralli klassifikatorlarning afzallik va kamchiliklari.
4. Gidrosiklonlarni afzallik va kamchiliklari nimadan iborat?
5. Tanlangan spiralli klassifikator qanday talablarga javob berishi kerak?
6. Spiralli klassifikatorlarning ishlab chiqarish unumдорligi qanday omillarga bog‘liq?
7. Shlamsizlantirish operatsiyasini hisoblash uchun qanday ma’lumotlar beriladi?
8. Gidrosiklonlar qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha tanlanadi?
9. Gidrosiklonlar yanchishning qaysi bosqichida qo‘llanadi?

### **6. Gravitatsiya usulida boyitish dastgohlarini tanlash va hisoblash. Cho‘ktirish mashinalari**

Keyingi yillarda cho‘ktirishning og‘ir suspenziyalarda va vintli separatorlarda boyitish bilan siqib chiqarilayotgani uchun cho‘ktirish mashinalarining ishlatish sohalari bir munkha qisqarmoqda, lekin bir qator hollarda, masalan, dastlabki mahsulotda shlamlanuvchi mineralarning ishtirok etishi, g‘ovak rudani boyitish fabrikalarining ishlab chiqarish unumдорligi kichik bo‘lganda og‘ir suspenziyalarda boyitish cho‘ktirish bilan raqobatlasha olmaydi.

Cho‘ktirishni ko‘mirmi boyitishda qo‘llash og‘ir fraksiyaning miqdori bilan chegaralanadi. Agar dastlabki ko‘mirda zichligi 1,8 va 2,0  $\text{g/sm}^3$  dan ortiq fraksiyalarning miqdori 50-55 % dan ortiq bo‘lsa, cho‘ktirishning ko‘rsatkichlari keskin yormonlashadi. Cho‘ktirish usulida boyitiluvchi mahsulot yirikligining yuqori chegarasi: toshko‘mir uchun 120-175 mm, rudalar uchun 40-50 mm. Yiriklikning quyi chegarasi ajratilayotgan mineralarning zichligiga bog‘liq: ko‘mir uchun 0,3-0,5

mm, qora va rangli metalllar rudalari uchun 0,1-0,15 mm, kamyob metalllar rudalari uchun 0,05-0,1 mm.

Cho'ktirish mashinalarining turini tanlash qayta ishlanayotgan mahsulotning turiga, mashinaga kelib tushadigan mahsulotning yirikligiga va boyitish mahsulotlariga qo'yiladigan talablarga bog'liq.

Kamyob va rangli metalllar rudalarini cho'ktirish usulida boyitish uchun cho'ktirish mashinalarida nisbatan kichik amplitudada tebranishlar sonini oshirish ( $250\text{-}500 \text{ min}^{-1}$ ) talab qilinadi.

Konstruktiv shartlar bo'yicha cho'ktirishning bunday tartibi konusli pulsatorli mashinalarda hosil qilinadi. Shuningdek, suv tebranishing cho'ktirish panjarasining butun yuzasi bo'ylab bir tekis taqsimlanishi ham katta ahamiyatga ega. Bunday shartga diafragmasi panjara ostida joylashgan mashinalar javob beradi.

Qimmatbaho komponent ora-sira joylashgan rudalar va toshko'mir uchun bo'tananing tebranishi siqilgan havo yordamida hosil qilinuvchi porshensiz cho'ktirish mashinalarini qo'llash tavsiya qilinadi.

Cho'ktirish mashinalarining ishlab chiqarish unumdorligi panjaraning  $1 \text{ m}^2$  yuzasiga to'g'ri keluvchi solishtirma yuk normalari bo'yicha aniqlanadi. Mashinaning ishlab chiqarish unumdorligi ajraluvchi minerallar zichligidagi farqning va dastlabki mahsulot yirikligining ortishi bilan ko'tariladi. Dumaloq va kubsimon shakldagi zarrachalarda ishlab chiqarish unumdorligi yassi va cho'ziq shakldagiga nisbatan yuqori.

Cho'ktirish mashinalarining dastlabki mahsulot bo'yicha taxminiy solishtirma yuki 16-jadvalda keltirilgan.

Solishtirma yuk me'yorlari aynan shunga o'xshash rudani boyituvchi fabrikaning cho'ktirish usulida boyitish amaliy ma'lumotlarini umumlashtirish yoki tajriba yo'li bilan belgilanadi.

Aniq hollarda solishtirma yuk me'yorlari o'rtachadan oshishi mumkin. Masalan, yengil boyitiluvchi ko'mirni boyitishda yuk 20-25% ga ortishi, qiyin boyitiluvchi ko'mirni boyitishda (cho'ktirishda) 25-30% ga kamayishi mumkin. Birlamchi boyitmalarini boyitishda tozalash operatsiyalarida solishtirma yukni 16 – jadvalda keltirilgandan 30-40% ga kamaytirib qabul qilinadi.

Kolumbitli va cassiteritli sochma kon rudalarini boyitishda cho'ktirish panjaralarining har bir metr kengligiga 10 t/soat gacha yuk ruxsat etiladi.

Sochma konlar oltinli rudalarini boyitishda oltinning yirikligi va cho'ktirish mahsulotlarining sifatiga bog'liq holda solishtirma yuk keng chegarada o'zgaradi. Yirik oltin zarrachalarini ajratish uchun cho'ktirish mashinasi yengil siklga o'matilsa, ayniqsa yuqori solishtirma yukka ( $20-40 \text{ t/m}^2$ soat) cha ruxsat etiladi.

*16-jadval*

**Cho'ktirish mashinalarining dastlabki mahsulot bo'yicha taxminiy solishtirma yuki**

Boylituvchi mahsulot	Olinadigan mahsulot	Dastlabki mahsulot bo'yicha solishtirma yuki, $\text{t/m}^2$ soat
Marganetsli va temirli rudalar, 15-20 mm yiriklik uchun	Boyitma, oraliq mahsulot va chiqindi	5-7
Marganetsli va temirli rudalar, 4-2 mm yiriklik uchun	Boyitma, oraliq mahsulot va chiqindi	2-5
Qalayli va volframli tub kon rudalari, 8-16 mm yiriklik uchun	Dag'al boyitma va keyingi qayta ishlash uchun boy chiqindilar	5-17
Qalayli va volframli tub kon rudalari, 3-1 mm yiriklik uchun	Tashlab yuboriladigan chiqindi va kambag'al boyitma keyingi qayta ishlash uchun	4-6
Oltinli sochma kon rudalari, birlamchi cho'ktirish	Tashlab yuboriladigan chiqindi va kambag'al boyitma keyingi qayta ishlash uchun	10-20
Oltinli tub kon rudalari, cho'ktirish mashinasi mayin tuyush va klassifikatsiya siklida ishlaydi	Boyitmada yirik oltin	20-50 va undan ortiq
Qo'rg'oshin - ruxli polimetall va ruxli, misli monometallrudalar	Oxirgi boyitma, chiqindi va oraliq mahsulotlar	1-2

Ayrim hollarda cho'ktirish mashinasi shunday sharoitda ishlaganda solishtirma yuk  $80-100 \text{ t/m}^2$ soat ga yetadi.

## **Cho'ktirish mashinalarining asosiy parametrlari va ishlab chiqarish tartibi**

Cho'ktirish samaradorligi cho'ktirish mashinalarining konstrukcion xususiyatlari va bir qator texnologik va gidrodinamik parametrlarga bog'liq.

Cho'ktirish mashinalarining asosiy parametrlari: solishtirma ishlab chiqarish quvvati; porshen yoki diafragmaning tebranish chastotasi yoki yurishi; o'rindiqning turi, panjara osti suvining sarfi.

Cho'ktirish mashinalarining solishtirma ishlab chiqarish quvvati turli turdag'i foydali qazilmani boyitishda keng chegarada o'zgarib turadi. Masalan: ko'mirni boyitishd 5 dan 30  $t/m^2$  soat gacha bo'lsa (mahsulot o'lchamiga qarab), temirli va marganetsli rudalarni boyitish 5dan 15  $t/m^2$  soat gacha, oltin va volframli rudalarni boyitish 5dan 20  $t/m^2$  soat ni tashkil qiladi. Mahsulotning yirikligidan tashqari cho'ktirish mashinasining optimal solishtirma ishlab-chiqarish quvvatini tanlashga boyitilayotgan mahsulotning zichligi va fraktsion tarkibi, cho'ktirish mashinasining konstruksion xususiyati va shuningdek cho'ktirish mahsulotlari sifatiga qo'yiladigan talablar ta'sir qiladi.

Solishtirma quvvati optimaldan chiqib ketsa, cho'ktirish samaradorligi pasayadi. Solishtirma ishlab chiqarish quvvati juda katta bo'lsa, boyitilayotgan mahsulotning mashinada bo'lish vaqtি kamayib, mahsulot yetarli darajada qavatlanishga ulgurmaydi va uning sifati yomonlashadi.

Xuddi shuningdek, solishtirma ishlab chiqarish quvvati kamayib ketsa, qavatlangan mahsulot aralashib ketadi va bunda ham mahsulotning sifati yomonlashadi.

Cho'ktirish mashinalarining quvvati panjaraning 1m kengligi yoki  $1m^2$  yuzasiga to'g'ri keladigan solishtirma ishlab chiqarish normasiga asosan aniqlanadi.

Cho'ktirish mashinalarining ishlab chiqarish quvvatini quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$Q = 3,6 HBv \delta\theta, \text{ t/soat.}$$

bu erda: N-mashina kamerasidagi mahsulot qatlamining balandligi, m.

V-cho'ktirish kamerasining kengligi, m.

$\delta$ -mahsulotni kamerada o'rtacha bo'ylama harakatlanish tezligi, m/sek.

$\sigma$ -mahsulotning zichligi, kg/m.

$\theta$ -mahsulotning g'ovaklanish darajasi,  $\theta=0,5$ .

Cho'ktirish vaqtida suv oqimining tebranishlari amplitudasi va chastotasi mahsulotni zichligiga qarab qavatlanishi uchun g'ovaklanishi va muallaq holga o'tishini muvaffaqiyatladi ta'minlay olishi kerak.

Diaphragma yoki porshenning yurishi (ruda zarrachalari tebrana boshlashi uchun) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$60/(2n) = h/v_{st}$$

$$h = 30 v_{ct}/n$$

bu erda:  $n$  - diafragma yoki porshenning tebranishlar chastotasi;  $\text{min}^{-1}$

$v_{ct}$  - zarrachaning siqilib tushish oxirgi tezligi, m/s.

Cho'ktirish uchun yaxshi shart-sharoit suv oqimining uncha katta bo'limgan chastotasi va kattaroq amplitudasida yaratiladi, chunki bu holda mahsulot muallaq holda uzoqroq turadi va uning tezroq qavatlanishi sodir bo'ladi.

Tebranishlar chastotasi kamayib ketsa cho'ktirish beqaror bo'lib qoladi va uning borishini yaxshilab kuzatish kerak bo'ladi.

Minimal tebranishlar chastotasi quyidagi formuladan topiladi:

$$n \geq 27,3 v_{ct}$$

Amalda rudali mahsulotni cho'ktirish usulida boyitishda tebranishlar chastotasi rуданинг ўирілгігә қараб 50 да 300  $\text{min}^{-1}$  гача бўлади.

Cho'ktirish mashinasidagi panjara o'rindig'ining turi ham cho'ktirish jarayoniga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Agar o'rindiqning balandligi yetarli bo'lmasa, bu uning ba'zi joylarida yuqoriga ko'tariluvchi suv oqimining uzilib, qavatlangan mahsulotning aralashib ketishiga olib keladi va aksincha, o'rindiq juda qalin bo'lsa mahsulot yetarli darajada g'ovaklanmaydi va cho'ktirish buziladi.

Mayda mahsulotni boyitishda sun'iy o'rindiq ishlataladi. Sun'iy o'rindiq zarrachalarining o'lchami panjara teshiklari o'lchamidan 3-4 marta katta bo'lishi kerak.

Magnetit, ferrosilitsiy, sulfidlar va po'lat, cho'yan zoldirlar klassifikatsiyalanmagan yoki mayda rudani cho'ktirishda ishlataladi. Chunki mayda teshikli to'rlar tez ishdan chiqadi va teshiklari yopilib qoladi. Sun'iy o'rindiq yirik teshikli to'r ishlatalishga imkon beradi.

Yirik mahsulotni cho'ktirishda tabiiy o'rindiq balandligi

$$h = (5-10)d_{max}$$

$d_{max}$  - cho'ktirishga tushayotgan mahsulot tarkibidagi eng katta bo'lakning o'lchami.

Sun'iy o'rindiqlarning qalnligi esa panjara osti mahsulotining chiqishiga qarab qabul qilinadi. Sun'iy o'rindiqning balandligi qancha

katta bo'lsa, uning o'tkazish qobiliyati shuncha kam bo'ladi va buning aksicha, qancha kam bo'lsa, shuncha ko'p mahsulot o'tkazadi. Shuning uchun boy rudalarni cho'ktirishda sun'iy o'rindiq qalinligi kambag'al rudalarni cho'ktirishdagidan kam bo'lishi kerak. Sun'iy o'rindiq ustidagi mahsulotning balandligi boyitilayotgan ruda tarkibidagi eng katta zarra o'lchamidan 20 marta ortiq bo'lishi kerak.

Cho'ktirish jarayonida suv sarfiga alohida ahamiyat berish kerak. Suv cho'ktirish mashinasiga ruda bilan va qo'shimcha tarzda panjara ostiga beriladi. Panjara osti suvi-cho'ktirish mashinasini boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Panjara ostiga suv yuqoriga ko'tariluvchi suv oqimi tezligini oshirish va pastga harakatlanadigan suv oqimi tezligini pasaytirish uchun beriladi. Bu bilan yuqoriga ko'tariluvchi suv oqimi yordamida o'rindiqni optimal g'ovaklantirishga va pastga harakatlaniruvchi suv oqimi yordamida uni samarali qavatlanishiga sharoit yaratib beriladi. Pastga harakatlanuvchi suv oqimi tezligining kamayishi yengil zarrachalarning o'rindiq yuqori qavatidan pastga surilishini ham kamaytiradi.

Panjara osti suvining sarfi dastlabki mahsulotning xossasiga bog'liq bo'lib, o'rtacha har tonna ruda uchun  $2,5 \text{ m}^3$  ni tashkil etadi.

Cho'ktirish mashinasining normal ishlashini ta'minlovchi muhim shartlardan yana biri boyitilayotgan mahsulotni mashinaga sekin va bir tekis berish hisoblanadi.

## Tayanch so'z va iboralar

Cho'ktirish mashinalari, turlar, rudalar, solishtirma yuk, mahsulot yirikligi, o'rindiq turi, panjara, balandlik, o'lcham, porshen, diafragma, chastota, bo'tana zichligi, amplituda, suv sarfi.

## Nazorat uchun savollar

1. Cho'ktirish mashinalarining turlari
2. Cho'ktirish mashinalarida qanday rydalar boyitiladi?
3. Cho'ktirish mashinasining solishtirma yuki deganda nima tushuniladi?
4. Cho'ktirish mashinasiga qanday yiriklikdagi mahsulot tushadi?
5. Cho'ktirish mashinasining ishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
6. Cho'ktirish mashinalarida o'rindiq sifatida nima ishlatiladi?

## Konsentratsion stollar

Konsentratsion stollar kichik solishtirma ishlab chiqarish unum-dorligiga ega bo‘ladi va shuning uchun o‘rnatishda polning katta maydonini talab qiladi.

Kamyob metalllar sochma va tub konlari rudalarini boyitish uchun yangi loyihalanayotgan fabrikalarda konsentratsion stollar yirikligi 3 mm va undan kichik boyitmalmanni tozalash maqsadida qo‘llaniladi. Konsentratsion stollar bilan vintli purkovchi va konusli separatorlar raqobatlashishi mumkin.

Ko‘mirni konsentratsion stolda boyitishda uning yirikligi 13 mm va ba’zi hollarda 25 mm gacha yetadi.

Konsentratsion stollar bir, uch va olti yarusli qilib tayyorlanadi. Ko‘p yarusli stollar polning kichik maydonini egallaydi va bir yarusli boyitmasion stollarga nisbatan ishlab chiqarish birligiga kamroq energiya iste’mol qiladi. 0,2 mm dan kichik rudali mahsulotni boyitishda uch yarusli boyitmasion stollar bir yarusliga nisbatan bir muncha yomonroq ko‘rsatkichlarni beradi:  $> 0,2 \text{ mm}$  sinf uchun ko‘rsatkichlar bir xil.

Konsentratsion stollarning ishlab chiqarish unum dorligi dastlabki mahsulotning yirikligiga, ajraluvchi minerallar zichlidagi farqqa, boyitish mahsulotlariga qo‘yiladigan talablarga bog‘liq.

Rudalarni xomaki boyitma, oraliq mahsulot va chiqindi olib, birlamchi boyitish uchun bir yarusli konsentratsion stol SKM – 1 ning ishlab chiqarish unum dorligi quyidagi empirik formula orqali hisoblanishi mumkin.

$$Q = 0,1\delta(Fd_{yp} \frac{\sigma_1 - 1}{\sigma_2 - 1})^{0,6}$$

bu yerda  $Q$  – stolning dastlabki quruq ruda bo‘yicha ishlab chiqarish unum dorligi, t/soat.

F-stol yuzasining maydoni,  $\text{m}^2$ .

$d_{o,r}$ -dastlabki mahsulotdagi zarrachalarning o‘rtacha arifmetik yirikligi, mm.

$\sigma$ ,  $\sigma_1$ ,  $\sigma_2$  – tegishli ravishda ruda, qimmatbaho mineral va puch tog‘ jinslarining zichligi,  $\text{g/sm}^3$ .

Boyitishni tozalash operatsiyalarida ishlovchi konsentratsion stolning ishlab chiqarish unum dorligini asosiy siklda ishlovchi stoldagiga nisbatan 20-30 % kam qabul qilish kerak.

SKM – 1 stolining ishlab chiqarish unumdotligi 0-1 mm yiriklikdagi toshko'mirni boyitishda 6-10 t/soat ni, 0-6 mm yiriklikda esa 15-18 t/soat ni tashkil etadi.

## Konsentratsion stollarning asosiy parametrlari va ishlash tartibi

Konsentratsion stollar ishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: plankalarning balandligi; plankalar orasidagi masofa; dekaning tebranishlar chastotasi va amplitudasi; dekaning bo'ylama va ko'ndalang qiyalik burchagi; berilayotgan suv tartibi; stolning solishtirma ishlab chiqarish quvvati.

Plankalarning joylashishi, balandligi va ular orasidagi masofa, birinchi navbatda, boyitilayotgan mahsulotning xususiyatiga, shuningdek, dekaning qiyaligiga, suv sarfi va yuvuvchi suvning berilish tezligiga, stolning ishlab chiqarish quvvatiga bog'liq.

Plankalar balandligi va ular orasidagi masofa boyitilayotgan rуданинг yirikligiga bog'liq. Odatda, rudani boyitishda plankalarning balandligi 4-15 mm, ular orasidagi masofa esa 20-45 mm ni tashkil qiladi. Mahsulot yirikligi ortgan sari bu parametrlar ham ortadi.

Mahsulotning stol yuzasida qavatlanish samaradorligi dekaning tebranishlar chastotasi va amplitudasiga bog'liq bo'lib, u ham, o'z navbatida, boyitilayotgan mahsulot zichligi va yirikligiga bog'liq.

Yirik zarrachali mahsulotni boyitishda mahsulot qalinroq qatlamda joylashadi, bu holda plankalar orasida kattaroq yuqoriga ko'tariluvchi suv oqimi hosil bo'ladi va deka qadam uzunligi kattaroq bo'lishi talab qilinadi. Deka tebranishlari chastotasi esa bunda uncha katta bo'lmaydigan qilib tanlanadi. Mayda zarrachali mahsulotni boyitishda esa tebranishlar amplitudasi kichik, chastotasi esa katta qilib tanlanadi.

Masalan, yirikligi 3 mm li mahsulotni boyitish uchun tebranishlar chastotasi  $200 \text{ min}^{-1}$ , amplitudasi esa 24 mm. Yirikligi  $<0,5 \text{ mm}$  li mahsulot uchun esa tebranishlar chastotasi  $300-350 \text{ min}^{-1}$  ga ko'tarilib, amplitudasi esa 12-14 mm ga kamaytirilishi kerak.

Boyitilayotgan mahsulot yirikligiga qarab tebranishlar chastotasi va amplitudasini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$l = 18 \sqrt[4]{d_{\max}}$$

$$n = 250 / \sqrt[5]{d_{\max}}$$

bu erda: l – tebranishlar amplitudasi, mm.

n – tebranishlar chastotasi, min<sup>-1</sup>.

d<sub>max</sub> – boyitiladigan mahsulot tarkibidagi eng katta zarracha, mm.

Stol yuzasining ko'ndalang qiyalik burchagi ham boyitilayotgan mahsulotning yirikligiga bog'liq. Qiyalik burchagining ortishi bo'tana oqimining va suvning yuvilish tezligini ortishiga olib keladi, buning natijasida og'ir zarrachalar stolning yonbosh tarafiga yetib kelmasdan stol yuzasidan yuvilib tushib ketish ehtimoli ortadi.

Mahsulot qancha yirik bo'lsa, stol shuncha ko'proq egilgan bo'lishi mumkin. Mayin zarrachali mahsulot uchun stolning qiyalik burchagi minimal bo'lishi kerak. Odatda, stol yuzasining qiyalik burchagi 1-10<sup>0</sup> orasida bo'ladi.

Yuzaning qiyalik burchagi faqatgina mahsulotning yirikligiga emas, balki plankalarning balandligiga ham bog'liq. Ularning balandligi va mahsulotning yirikligi ortgan sari yuzaning ko'ndalang qiyalik burchagi ortadi.

Konsentratsion stolda boyitish samaradorligiga dastlabki mahsulot (bo'tana) ning zichligi va yuvuvchi suvning sarfi katta ta'sir ko'rsatadi. Bo'tananing haddan ziyod suyulib ketishi og'ir minerallarning yo'qolishiga olib keladi. Stol yuzasida suvning yetishmasligi zarrachalar ajralishini yomonlashtiradi va ishlab chiqarish unumdorligini pasaytiradi.

Stolga kelib tushadigan bo'tananing optimal zichligi 20-25 % hisoblanadi. Yuvuvchi suvning sarfi mahsulotning yirikligi va yuzaning qiyalik burchagiga bog'liq holda belgilanadi. Boyitilayotgan mahsulot qancha yirik bo'lsa, yuvuvchi suvning tezligini oshirish, yuzaning qiyalik burchagi katta bo'lganda, yuvuvchi suvning miqdorini kamaytirish mumkin. Odatda, konsentratsion stolda ishlataladigan suvning miqdori har bir tonna ruda uchun 1-2 m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi.

Konsentratsion stolning ishlab chiqarish unumdorligi rudaning xossasiga, yuzaning maydoniga, stolning ishlash tartibi va boshqa omillarga bog'liq.

Konsentratsion stolning solishtirma ishlab chiqarish quvvati  $q = [m(m^2 \cdot coam)]$  ni quyidagi empirik formuladan topish mumkin:

$$q = 0,2 d$$

bu erda: - d boyitilayotgan mahsulotning minimal o'lchami, mm.

Stolga ortiqcha mahsulot berilsa mineral zarrachalar qavatlanishga ulgurmeydi, chunki plankalar orasidagi bo'shliq og'ir minerallar bilan

o‘ta to‘lgan bo‘ladi va yangidan tushayotgan mahsulot suv bilan yuvilib tushib ketadi.

Stolga mahsulot kamroq berilsa, mineral zarrachalar samaraliroq ajraladi, lekin bunda stolning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan bo‘ladi (ishlab chiqarish quvvati nuqtai nazaridan).

Konsentratsion stolning afzalliklari: boyitishning yuqori samaradorligi, mineral zarrachalar ajralishini yaqqol kuzatish mumkinligi va uni darhol sozlash mumkinligidadir.

Stolning kamchiliklari–solishtirma ishlab chiqarish quvvatining pastligi, binoning katta maydonini egallashi, sinish oqibatida nisbatan tez-tez ishdan chiqishi, hamma uzellarni sinchiklab sozlash kerakligi.

Konsentratsion stollarning texnik tavsifi 17-jadvalda keltirilgan.

*17-jadval*

### **SKP turdag'i stolning texnik kvalifikatsiyalari**

Ko‘rsatkichlari	SKP-15	SKP-22	SKP-30
Yuzaning umumiy maydoni, m <sup>2</sup>	15	22,5	30
Yuzalar soni	2	3	4
Bitta yuzaning maydoni, m <sup>2</sup>	7,5	7,5	7,5
Yuzaning tebranishlar chastotasi, min <sup>-1</sup>	280–350	280–350	300
Tebranishlar amplitudasi, mm	10–20	10–20	10–20
Yuzaning qiyaligi, <sup>0</sup> bo‘ylama ko‘ndalang	0–2 0–8	0–2 0–8	0–2 0–8
Zarrachaning o‘lchami, mm		(-3)–(+0,2)	
Ishlab chiqarish unumdorligi, t/soat	2–7	3–10	4–14
Elektrosvigatel quvvati, kVt	2,2	2,2	2,2
Qo‘zg‘aluvchi qismlarining og‘irligi, t	1,8	2,1	2,4

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Konsentratsion stol, turlar, ruda, ishlab chiqarish unumdorligi, to‘silqlar, balandlik, masofa, qiyalik burchagi, tebranishlar chastotasi, amplitudasi, suv sarfi, boyitish ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish unumdorligi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Konsentratsion stolda qanday rudalar boyitiladi?
2. Konsentratsion stollarning qanday turlari mavjud?

3. Konsentratsion stollarning ishlab chiqarish unumдорлиги qaysi formuladan aniqlanadi?

4. Konsentratsion stolning plankalarining balandligi va ular orasidagi masofa nechaga teng?

5. Konsentratsion stolning qiyalik burchagi va bo'tananing zinchligi qanday chegarada o'zgaradi?

6. Konsentratsion stolning tebranishlar chastotasi va amplitudasi boyitish ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

### Shlyuzlar

Ikki turdag'i shlyuzlar – oddiy shlyuzlar deb ataluvchi qo'lida chayiluvchi va avtomatik shlyuzlar deb ataluvchi avtomatik shlyuzlar ishlatiladi. Oddiy shlyuzlarning ishlatilish sohalari - sochma kon oltinli rudalarini boyitish. Kamyob metalllarning sochma rudalari uchun oddiy shlyuzlarni qo'llash, chayish sonlarining va oltinli rudalarni boyitishga nisbatan chiqishning yuqoriliqi tufayli mehnat sarfining ortishiga olib keladi. Shuning uchun, sochma konlar kamyob metallli rudalarini boyitish uchun cho'ktirish mashinalari, konusli, purkovchi va vintli separatorlar o'matilishi kerak; juda mayda qumlar uchun avtomatik shluzlar ishlatiladi.

Avtomatik ko'p qavvatlari shlyuzlar, shuningdek, tub kon rudalarini gravitatsiya usulida boyitishda olingan mayin shlamlardan, metalllarning flotatsiya chiqindilaridan kamyob metallli minerallarni ajratib olish uchun ishlatiladi. Bu ajratishlarning boyitmasion stolga nisbatan afzalligi polning kichik maydonini egallashi va ularni avtomatik ishlashidadir.

Vintli shlyuzlar vintli separatorlardan vintli tarnovchaning shakli bilan farq qiladi. Agar vintli separatorlarning tubi yarim doira shaklida bo'lsa, shlyuzlarning tubi qiya tekis yuzadan iborat. Vintli shlyuzlar kamyob metalllar rudalari va qalayning mayda sinflari va shlamlarini boyitish uchun qo'llaniladi.

Shlyuzlarning kerakli maydoni ruxsat etilgan solishtirma yuk me'yorlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Flotatsiya fabrikalarida oltinni ajratib olish uchun klassifikator quyulmasi yoki flotatsiya chiqindilarini shlyuzlarda qayta ishlashda solishtirma yuk  $0,5\text{-}1,0 \text{ t/m}^2$  soatni tashkil qiladi. Mayin mahsulot uchun yuqori yukning qo'llanilishi shu bilan tushuntiriladiki, mazkur holda

shlyuzlar nisbatan yirik oltin zarrachalarini ushlab qolish uchun mo'ljallangan; oltinning asosiy qismi esa flotatsiya usulida ajratiladi.

Tub konlar qalayli va volframli rudalarini gravitatsiya usulida boyitishda olingan juda mayin klassifikatsiyalangan shlamlarni shlyuzlarda boyitishda  $-70 +40$  mkm sinfi uchun taxminiy yuk  $-15$  t/m<sup>2</sup>soat,  $-40 +25$  mkm sinfi uchun  $-0,06$  t/m<sup>2</sup>soat,  $-25+13$  mkm sinfi uchun  $-0,04$  t/m<sup>2</sup>soat. Tanlangan solishtirma yuk asosida shlyuzlarning umumi maydoni va soni hisoblanadi..

### Vintli separatorlar

Vintli separatorlar qo'zg'oluvchi qismlarga ega emas, mexanik nosozliklar tufayli turib qolmaydi, shu bilan bir vaqtida yuqori darajada boyitish ko'rsatkichlarini beradi. Vintli separatorlarda qumlarni boyitish narxi cho'ktirish mashinalidagiga nisbatan 15-60%, suv sarfi esa 35-40% ga kam. Qulay granulometrik tarkibga ega qumni vintli separatorlarda boyitishda qimmatbaho mineralarning boyitishga ajralishi cho'ktirishdagi ajralishga nisbatan 3-10% ga yuqori. Tub konlar rudalarini vintli separatorlarda boyitilganda konsentratsion stolda boyitishdagiga nisbatan pastroq texnologik ko'rsatkichlar olinadi, lekin separatorlar polni egallagan maydon va ekspluatatsiya harajatlari bo'yicha sezilarli iqtisod beradi.

Vintli separatorlar yuqori zichlikka ega qimmatbaho komponentlarni saqlovchi qumlarni boyitishda ishlataladi. Separatorga beriladigan mahsulotdagi puch tog' jinslari zarrachalar yirikligininng yuqori chegarasi 15-20 mm. Vintli separatorlarda samarali ajratiladigan foydali ogir minerallar yirikligining chegarasi 4-0,1 mm, 0,05-0,07 mm dan kichik zarrachalar amalda ajratilmaydi.

Puch tog' jinslarining yassi zarrachalari boyitmani ifloslantiradi. Dastlabki mahsulotni shlamsizlantirish maqsadga muvofiq. Dastlabki mahsulot tarkibida 15-20% dan ortiq loy-balchiqli mahsulot bo'lsa, uni dastlab shlamsizlantirish kerak. Kamyob mineralli tub kon rudalarini boyitishda vintli separatorlar boyitishning asosiy siklida dastlabki mahsulot yirikligi  $-2 +0,1$  (0,074) mm chegarasida va tashlab yuboriladigan chiqindi olinmaydigan operatsiyalarda qo'llanilishi mumkin. Flotatsiya fabrikalarida bu separatorlar flotatsiya chiqindilaridan katta zichlikdagi yo'ldosh minerallarni ajratib olish uchun o'rnatiladi. Vintli separatorlar, shuningdek, temirli rudalarini boyitishdan oldin mayin

tuyush talab etilmaydigan kuchsiz magnitli oksidlarni ajratib olish uchun ishlataladi.

Vintli separatorlarning ishlab chiqarish unumdorligi tarnovcha o'lchamlari diametriga, vintli chiziqning ko'tarilish burchagiga, boyitiluvchi mahsulotning yirikligi va moddiy tarkibiga bog'liq. O'ramning diametri va vintli chiziq ko'tarilish burchagi ortishi bilan ishlab chiqarish unumdorligi ortadi. Dastlabki mahsulotdagi zarrachalarning yirikligi va qimmatbaho minerallarning kamayishi, shuningdek, dastlabki mahsulot tarkibidagi loy va shlamlar miqdorining ortishi separator ishlab chiqarish unumdorligini kamaytiradi.

Loyihalashda vintli separatorlarning ishlab chiqarish unumdorligi amaliy ma'lumotlar yoki tajriba ishlari asosida olinadi. Separatorlarning taxminiy ishlab chiqarish unumdorligi 18-jadvalda berilgan.

*18-jadval*

### **Separatorlarning taxminiy ishlab chiqarish unumdorligi**

Boyitiluvchi mahsulot	Dastlabki mahsulot yirikligi, mm		Separator o'ramlarining diametri, mm	Ishlab chiqarish unumdorligi, t/soat
	Tog' jinsi	Qimmatbaho mineral		
Qumlar	-16+0,05	+0,25	1200	15-20
Qumlar	-4+0,05	+0,25	1200	10-12
Qumlar	-16+0,05	-0,25	1200	9-10
Qumlar	-1+0,05	+0,25	1200	6-8
Qumlar	-2	-0,25	1200	3-4
Kamyob metallarning tub kon rudalarli	-2+0,074	-	1200	10-15
Qumlar	-6	-	600-750	1,5-1,7
Flotatsiyaning shlamsizlantirilgan chiqindisi	-0,6+0,1	-	600-750	1,7-2,3
Rangli metalllar gravitatsiya fabrikalarining chiqindisi	-0,1+0,4	-	600-750	1,2-1,3

### **Purkovchi va konusli separatorlar**

Bu separatorlarning ishlash tamoyili bir xil-bo'tananing torayuvchi oqimda qavatlanishi.

Ishlatilish sohalari-zarrachalarining o'lchami 2,5-0,04 mm li rudalarni ho'l gravitatsiya usulida boyitish. Ko'pincha, purkovchi va konusli separatorlar sochma konrudalarini boyitishda ishlatiladi, lekin ular tub konlar rudalari uchun ham ishlatilishi mumkin. Ularni birlamchi boyitish operatsiyalarida, shuningdek, chiqindilarning nazorat operatsiyalarida qo'llash afzalroq.

Konusli va purkovchi separatorlarning konsentratsion stol va vintli separatorlarga nisbatan afzalliklari: tuzilishining soddaligi, narxining sezilarli arzonligi, apparatning ishchi maydonining birligiga to'g'ri keladigan solishtirma ishlab chiqarish unumdoorligining yuqoriligi. Konusli va purkovchi separatorlar uchun talab qilinadigan ishlab chiqarish maydoni konsentratsion stolga nisbatan 5-10 marta, vintli separatorlarga nisbatan 1,5-2 marta kichik, suv sarfi esa taxminan 4 marta kam.

Purkovchi va konusli separatorlarning konsentratsion stol va vintli separatorlarga nisbatan kamchiligi. bitta operatsiya uchun boyitish darajasining pastligi; dastlabki mahsulotni yaxshilab shlamsizlantirish zarurligi; bo'tanani zichlik bo'yicha bir tekis berish zarurligi; jarayonning bir tekis borishi uchun 120-150% gacha yetuvchi katta aylanuvchi yuk (asosiy operatsiya oraliq mahsuloti, nazorat operatsiya boyitmasi, tozalash operatsiyasi chiqindisi), aylanuvchi yukni jarayon boshiga qaytarish uchun nasosning kerakligi.

Keltirilgan kamchiliklarga qaramay konusli va purkovchi separatorlarni sochma va tub konrudalarini gravitatsiya usulida boyitishda qo'llash mumkin. Konusli separatorlarda asosan shlamsizlangan mahsulotni boyitish mumkin. Lekin tozalash operatsiyalari uchun vintli separator yoki konsentratsion stol ishlatish kerak. Bu katta aylanuvchi yuk va uni nasos yordamida haydashdan qutulishga imkon beradi. Konusli separatorlar mayin zarrachali mahsulotni boyitishga to'g'ri kelmaydi, chunki uni yaxshilab shlamsizlantirish kerak.

Konusli va purkovchi separatorlarning ishlab chiqarish unumdoorligi mahsulotning yirikligi va ajratiluvchi minerallarning zichligidagi farq ortishi bilan oshib boradi. Ishlab chiqarish unumdoorligi, shuningdek, boyitiluvchi mahsulot zarrachalarining shakliga ham bog'liq. Har qanday ruda uchun texnologik jihatdan optimal hisoblanadigan solishtirma ishlab chiqarish unumdoorligi mavjud bo'lib, u quyidagi empirik formuladan aniqlanadi.

$$q = Kd_{\sigma_2} \frac{\sigma_1 - 1}{\sigma_2 - 1}$$

Bu yerda  $K$  – koeffitsient 10-14 ga teng,  $K$  ning katta qiymatlari dastlabki rudadagi yirik zarrachalar uchun, kichik qiymatlari esa mayda zarrachalar uchun;

$d_{\sigma_2}$ -dastlabki mahsulotdagি zarrachalarning o'rtacha o'lchami, mm.  
 $\sigma_1$  va  $\sigma_2$  qimmatbaho mineral va puch tog' jinslarining zichligi, g /sm<sup>3</sup>.

### Tayanch so'z va iboralar

Shlyuz, vintli separator, purkovchi va konusli separatorlar, afzallik, kamchilik, ruda, bo'tana zichligi, o'ramlar soni, zarracha shakli, aftomat, solishtirma yuk, qo'llanish sohalari.

### Nazorat uchun savollar

1. Shlyuzlarning texnologik parametrlariga nimalar kiradi?
2. Vintli separatorlarning o'ramlari soni nechta?
3. Vintli separatorlarda qanday rudalar boyitiladi?
4. Purkovchi va konusli separatorlar qanday rudalarni boyitish uchun qo'llaniladi?
5. Purkovchi va konusli separatorlarning ishlab chiqarish unumdorligi qaysi omillarga bog'liq?
6. Purkovchi va konusli separatorlar qanday afzallik va kamchiliklarga ega?

### 7. Flotatsiya uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash

**Flotatsiya mashinasi turini tanlash.** Bo'tanani havoga to'yintirish (aeratsiya) va aralashtirish usuliga qarab flotatsiya mashinalari mexanik, pnevmomexanik va pnevmatik mashinalarga bo'linadi.

Pnevmomexanik flotatsiya mashinalari mexanik mashinalarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: bir xil texnologik ko'rsatkichlarda flotatsiya vaqt 35-40% ga kam; 1 t rudaga sarflanadigan energiya 40-50% ga kam; bo'tana oqiminинг yuqori tezligida ishlash mumkin; bo'tanani havo bilan to'yintirishni keng chegarada boshqarish (1,5-1,8 m<sup>3</sup>/min) mumkin.

Pnevmatik flotatsiya mashinalaridan aerolift mashinalari eng ko'p tarqalgan. Ular sodda tuzilishga ega va arzon, yuqori ishlab chiqarish unumdorligiga ega; energiya sarfi arzimas, polning sathini mexanik mashinalarga nisbatan kamroq egallaydi. Aerolift flotatsiya mashinalari ning kamchiliklari quyidagilardan iborat: qiyin flotatsiyalanuvchi rudalarni flotatsiyalashda yetarli darajada barqaror bo'lмаган texnologik ko'rsatkichlar va yuqori namlikdagi boyitmalar olinadi, vannaning tubiga yirik va zichligi nisbatan yuqori zarrachalarning cho'kish xavfi yoki bo'tanani jadal aralashtirmasligi tufayli bunday zarrachalarning vannaning pastki qismida to'planishi; oraliq mahsulotni chiqarib olishning imkoni yo'qligi, bu esa murakkab boyitish sxemalarda ko'p sonli nasoslarni o'matishni talab qiladi.

Pnevmatik flotatsiya mashinalarni quyidagi sharoitlar bilan birgalikda qo'llash tavsiya qilinadi: foydali qazilma oson flotatsiya-langanda, uning kichik yoki o'rtacha zichligida, sodda boyitish sxemasida, boyitmaning chiqishi kattaroq bo'lganda. Boshqa sharoitlarda, ko'pincha, pnevmomexanik mashinalar tanlanadi. Biroq texnologik sabablarga ko'ra flotatsiya jarayonini jadallashtirishning imkoni bo'lmasa, mexanik mashinalar nisbatan tejamliroq bo'lishi mumkin.

Flotatsiya mashinalarining taxminiy solishtirma yuki 19-jadvalda keltirilgan.

*19-jadval*

### **Flotatsiya mashinalarining taxminiy solishtirma yuki, t/m<sup>3</sup> soat.**

Flotatsiya mashinalarining turi	Monomyetall rudalar			Toshko'mir
	Oson flotatsiya- lanuvchi, t=9+15min	O'rtacha flotatsiyala- nuvchi, t=15+30min	Qiyin flotatsiyala- nuvchi, t=30+50min	
Pnevmomexanik	2,0±1,2	1,2±0,6	0,6±0,35	-
Mexanik	1,2±0,7	0,7±0,35	0,35±0,2	-
Aerolift	1,2±0,7	0,7±0,35	0,35±0,2	-
Ko'mirni boyitish uchun mexanik	-	-	-	1,5±1,0

Mexanik flotatsiya mashinalarining o'zgargan shakli qaynar qatlamlili mashinalar -0,8 mm li va yirikroq zarrachalari (-3 mm) qalayli rudalarni flotatsiyalash uchun muvaffaqiyatli ishlatilmogda.

Turbomarkazdan qochuvchi impellerli flotatsiya mashinalari (FTM va FMIZ) ikkita havoga to'yintirish va qalqib chiqish kameralariga ega bo'lib, mayin tuyulgan shlamli bo'tanalarni flotatsiyalashga mo'ljallangan. Mashinalar havoni so'rish, yoki pnevmomexanik mashinalardagiga o'xshab tagidan havo berish orqali ishlashi mumkin.

Pnevmomexanik mashinalar yuqorida ko'rsatilgan afzallikkabi tufayli ko'proq qo'llaniladi. Ular oddiy bo'tanalar (40% qattiq zarrachalar va 50% dan kam bo'limgan -0,074 mm sinfi) uchun ishlatiladi. Bu mashinalar oqib o'tuvchi mashinalar bo'lib, ularni bo'tana sathi kameralar bo'yicha boshqarilmaganda va ortiqcha mahsulotlarni tez-tez qaytarishlar bo'limganda tavsiya qilinadi.

Mashinaga mahsulotlarni so'rish va bo'tanani qabul qilish uchun mexanik kameralar (bosh kameraladagidek) o'matish mumkin.

Pnevmatik mashinalar ichida Mexanobr institutining chuqur aerolift mashinalari eng yaxshi hisoblanadi.

Ko'pikli separatsiya qo'llaniladigan FP-2,5 pnevmatik mashina - 0,074 mm li sinfning miqdori 30% dan kam bo'limgan yirik zarrachali rudalarni boyitishda asosiy va nazorat flotatsiya operatsiyalarida ishlatiladi.

***Flotatsiya mashinalarining o'lchami va kameralarning kerakli sonini aniqlash.*** Mexanik mashinalar kameralarining kerakli soni har qaysi flotatsiya operatsiyasi uchun alohida-alohida quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$n = \frac{Vt}{1440 \cdot g_k \cdot k} = \frac{Q(R + 1/\delta)t}{1440g_kk},$$

bu yerda  $n$ - operatsiya uchun talab qilinadigan kameralar soni;

$V$ -flotatsiyalanuvchi bo'tananing sutkalik hajmi;  $m^3/sutka$ ;

$t$ -tegishli flotatsiya operatsiyasining vaqt, min;

$v_k$ - kameralarning geometrik hajmi,  $m^3$ ;

$k$  - mashinadagi bo'tana hajmini kameralarning geometyetrik hajmiga nisbati,  $k = 0,7-0,8$ ;  $Q$ - mashinaning qattiq zarrachalar bo'yicha sutkalik ishlab chiqarish unumdonorligi,  $t/sut$ ;  $\delta$ - qattiq fazaning zichligi,  $t/m^3$ ;  $R$ - bo'tanadagi suyuqlikning qattiq zarrachalarga nisbati.

Alohida operatsiyalar uchun flotatsiya vaqtini mahsulotning flotatsiyalanish xususiyatlarini taxminan o'rganish natijalari va boyitiluvchi mahsulotga o'xshash mahsulotni boyituvchi fabrikaning amaliy ko'rsatichlari asosida aniqlanadi. Flotatsiya vaqtini bo'tanani havo bilan to'yintirilishiga bog'liq. Agar loyihalanayotgan fabrikaga o'matiladigan

flotatsiya mashinalaridagi bo'tanani havoga to'yintirish tekshiri-  
layotganidan farq qilsa, flotatsiya vaqtini quyidagi formuladan aniqlash  
mumkin.

$$t = t_0 \sqrt{\frac{a_0}{a}}$$

Bu yerda  $t$  – loyihalanayotgan fabrikaga o'matiladigan  
mashinalardagi flotatsiya vaqt, min;

$t_0$  – tekshirishlardagi flotatsiya vaqt,  $l/min\cdot m^2$ ;

$a_0$  – tekshirishlardagi bo'tananing havo bilan to'yintirish,  $l/min\cdot m^2$ ;

$a$  – o'matiladigan mashinalardagi bo'tanani havo bilan to'yintirish.

Flotatsiya mashinalarini takomillashtirishning hozirgi bosqichi  
kamera hajmini kattalashtirishga yo'naltirilgan. Hozirda hajmi 12,5; 17;  
25  $m^3$  li mashinalar ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda. Kameralari katta  
hajmli flotatsiya mashinalarining afzalliklari.

-xuddi shunday texnologik ko'rsatkichlarda kameralar soni  
kamayadi;

-flotatsiya mashinalarini sotib olishga, montaj qilishga, elektr  
moslamalari, avtomatizatsiya vositalariga ketadigan harajatlar kamayadi;

-flotatsiya sexlarining hajmi va maydoni hamda qurilishga sarflana-  
digan harajatlar kamayadi;

-xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni kamayadi va ishlab chiqarish  
unumдорлиги ortadi.

Kameralarning maksimal hajmi quyidagi shartlar bilan chegaralani:  
kambag'al chiqindilarni olish uchun asosiy va nazorat  
flotatsiyalar uchun kameralarning umumiyligi soni 6-8 tadan kam  
bo'lmasligi, boyitmani tozalashda yaxshi natijalarga erishish uchun bu  
operatsiyalardagi kameralar soni 1-2 tadan kam bo'lmasligi kerak.

Flotatsiya tezligi  $de/dt$  mashina orqali o'tadigan oqim tezligi ortishi  
bilan ortadi. Shuning uchun kameralarning soni va o'lchami, shuningdek,  
parallel ishlovchi mashinalarning sonini shunday tanlash kerakki,  
alohida mashinalarga 1 minutda tushadigan bo'tananing miqdori katta  
bo'lsin va mexanik mashinalar uchun 1,2 v -2 v, pnevmomexanik  
mashinalar uchun 2 v -3 v chegarasida joylashsin (v-bitta kameraning  
geometrik hajmi). Bu qoidaga, ayniqsa, asosiy va nazorat operatsiyalarda  
rioya qilinishi kerak, chunki ular orqali katta hajmdagi bo'tana  
o'tadi. Tozalash operatsiyalari uchun boyitmaning chiqishi uncha katta  
bo'lmagan hollarda bu qoidadan chetga chiqishga ruxsat etiladi.

Ko'ndalang kesim yuzasi  $2,5 \text{ m}^3$  bo'lgan «Mexanobr» aerolift mashinalari uchun bo'tananing optimal miqdori  $5\text{-}8 \text{ m}^3/\text{min}$  ni tashkil etadi.

Aerolift mashinalarini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin.

$$L = \frac{Vt}{1440S \cdot k} = \frac{Q(R + 1/8)t}{1440S \cdot k}$$

Bu yerda: L – berilgan operatsiya uchun mashinaning umumiy uzunligi, m;

S – mashinaning ko'ndalang kesim yuzasi,  $\text{m}^2$ ;

### **Flotatsiya mashinalari ishiga ta'sir qiluvchi omillar**

Flotatsiya – universal va yuqori texnologik ko'rsatkichlarga erishish mumkin bo'lgan jarayon hisoblanib, uning borishiga ko'p sonli omillar ta'sir qilishi mumkin. Ularga: dastlabki mahsulotning mineral tarkibi va yirikligi, bo'tananing zichligi, harorat, reagent tartibi, suvning tarkibi, flotatsiya vaqtqi, bo'tananing mashinadagi aeratsiyalanish darajasi va h.k.lar kiradi.

Qo'llanadigan reagentlarni tanlash, ularning sarfi va rudadagi komponentlarni ajralish ketma-ketligi boyitilayotgan rуданing mineral tarkibiga bog'liq. Rudani mineral-petrografik o'rganish asosida flotatsiyadan oldin hamma mineral komponentlarning tarkibi, o'simtalarning o'zaro tuzilishi, begona aralashmalarning oksidlanish darajasi va har qaysi komponentning massa ulushi belgilanadi. Buning asosida reagentlar tanlanadi, yanchish va flotatsiya sxemalari belgilanadi.

Turli xil rudalar turlicha flotatsiyalanadi. Sulfidli minerallarni nosulfid minerallardan flotatsiya usuli bilan oson ajratish mumkin. Sulfidli rudalarning oksidlanishi va tanlab eritilishi natijasida hosil bo'lgan oksidli rudalarning flotatsion qobiliyati sust bo'ladi va ular avval sulfidlanmasdan turib flotatsiyalanmaydi.

Flotatsiyada dastlabki mahsulotning yirikligi shunday bo'lishi kerakki, qimmatbaho komponent zarrachalari o'ziga yopishgan puch tog' jinslari minerallaridan to'liq ozod bo'lgan va flotatsiyalanuvchi zarrachalarning o'lchami havo pufakchalarining ko'tarilish kuchiga mos kelishi kerak.

Odatda, flotatsiyani zarrachalarning o'lchami  $0,02\text{-}0,5 \text{ mm}$  orasida olib boriladi. Flotatsiyalanuvchi mineral zarrachalarning maksimal o'lchami ularning gidrofobligiga va shakliga bog'liq. Rudani flotatsiyadan oldin yanchganda shunga erishish kerakki, dastlabki bo'tana

tarkibida flotatsiyalanishi mumkin bo‘lmagan yirik zarrachalar ham, shuningdek, ajralishni keskin yomonlashtiruvchi va reagentlar sarfini oshiruvchi, o‘lchami 0,02 mm dan kichik shlamlar ham bo‘lmasin.

Bo‘tana qattiq zarrachalarining massa ulushi 15-40% gacha bo‘lishi mumkin. Flotatsiyaning ba’zi operatsiyalarida suyuqroq bo‘tana ishlatish maqsadga muvofiq bo‘lsa, ayrim operatsiyalar uchun esa bo‘tana quyultiriladi.

Bo‘tananing zichligi katta bo‘lganda uning pufakchalar bilan to‘yinish darajasi pasayadi, yirik mineral zarrachalarning flotatsiyalanishi yomonlashadi, boyitmaning sifati pasayadi. Yuqori sifatli boyitma olinishi talab qilinganda flotatsiya suyuqroq bo‘tanada olib boriladi.

Haroratning ortishi ko‘p hollarda flotatsiya jarayoniga ijobiy ta’sir etadi. Bunda bir qator reagentlar (ayniqsa, yog‘ kislotalari vasovunlar)ning eruvchanligi ortib, ularning sarfi kamayadi. Shu bilan bir vaqtida to‘plovchi sifatida ksantogenatlar ishlatilganda bunday hol kuzatilmaydi va bunda bo‘tanani faqat qish kunlaridagina isitish maqsadga muvofiq.

Flotatsiyada reagentlar tarkibi ishlatilayotgan reagentlarning turi, ularning sarfi, jarayonga berilish tartibi reagentlarning bo‘tana bilan ta’sirlashuv vaqtini bilan belgilanadi. Reagent tartibi, berilgan rуданing flotatsion qobiliyatini, mineral zarrachalarni yirikligi, suvning tarkibi va h.k.larni o‘rganish borasida olib borilgan tajribalar asosida tanlanadi.

Odatda reagentlar quyidagi ketma-ketlikda qo‘shiladi: muhitning regulyatorlari, so‘ndiruvchilar, faollashtiruvchilar, to‘plovchi va ko‘pik hosil qiluvchilar.

Muhit regulyatorlari tegirmonga yoki chanlarga beriladi. To‘plovchilar esa kontakt chanlar yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri flotomashinalarga beriladi. To‘plovchi odatda bira to‘la emas, balki oz-ozdan qo‘shiladi. Ko‘pik hosil qiluvchilar flotatsion kameraga beriladi.

Suvning tarkibi ham flotatsiya jarayoniga ta’sir qiladi, chunki suv o‘zining tarkibida har xil ionlar, erigan gazlar va boshqa qo‘sishimchalarni saqlaydiki, ular muhitning pH ini o‘zgartirib, ko‘pik hosil bo‘lishini yomonlashtiradi va reagentlar sarfini oshiradi. Bo‘tanadagi ionlar kerak bo‘lmagan holda minerallarga aktivligini oshiruvchi yoki so‘ndiruvchi sifatida ta’sir qilishi mumkin.

Flotatsiya vaqtini flotatsiyalanuvchi komponentning boyitmaga ajralish darajasi va boyitmaning sifatini belgilaydi. Olib borilgan

tajribalar shuni ko'rsatadiki, flotatsiya vaqtining ma'lum bir chegarasi (optimum) bo'lib, flotatsiya vaqtining optimumdan oshishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas, chunki qimmatbaho komponentning boyitmaga ajralishining sezilarsiz darajada ortishi flotatsiya vaqtining ancha uzayishi, boyitma sifatining yomonlashishi va flotatsion mashina ishlab chiqarish unumdorligining kamayishi hisobiga sodir bo'ladi.

Bo'tananing aeratsiyalanish darajasi flotatsiya vaqt va boyitishning texnologik ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Bo'tananing aeratsiyalanish darajasi ortishi bilan flotatsiya vaqt kamayadi. Biroq, bo'tanani havo bilan haddan tashqari to'yintirish ularning qo'shilishini ko'paytiradi. Nisbatan yirik pufakchalar katta tezlikda qalqib chiqib, ulardan mineral zarrachalarning ajralish ehtimolini oshiradi. Bo'tanada mineral zarrachalarni ko'tarish uchun nisbatan yirik pufakchalar ( $d = 1$  mm) ning va mineral zarracha yuzasini faollashtiruvchi mayda pufakchalar ham bo'lishi kerak.

Flotatsiyaning samarali ketishiga flotatsion mashinaning ishslash sharoiti ham ta'sir qiladi. Mashinaga tushayotgan bo'tananing hajmi va undagi qattiq zarrachalarning massa ulushi (zichligi) doimiy bo'lishi kerak.

Flotatsion mashinani haddan tashqari yuklash metallni boyitmaga ajralishini kamaytiradi, chunki flotatsiya vaqt kamayadi. Mashinaga etarli miqdorda mahsulot solinmasa, buning aksicha, flotatsiya vaqt ortadi va ko'pikli mahsulotga puch tog' jinslari o'tib ketib, boyitma sifati yomonlashadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Flotatsiya, bo'tana zichligi, harorat, flotatsiya sxemalari, mexanik, pnevmatik, pnevmomexanik, reagent tartibi, kameralar soni, hajmi, takomillashtirish yo'nalishlari.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Flotatsion mashinalar qanday turlarga bo'linadi?
2. Flotatsion mashinalarning o'lchami va kameralarning kerakli soni qanday aniqlanadi?
3. Flotatsion mashinalarning takomillashtirish yo'nalishlari nimadan iborat?

- Kameralar katta hajmli flotatsiya mashinalari qanday afzalliklarga ega?
- Flotatsiya jarayoniga qanday omillar ta'sir qiladi?
- Flotatsiyada reagent tartibi qanday belgilanadi?
- Flotatsion reagentlar qanday ketma-ketlikda qo'shiladi?

## **8. Magnitli boyitish uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash**

Magnit separatorining turini tanlash asosan boyitmaga ajraluvchi mineralarning magnitlanish xususiyatiga, dastlabki mahsulotning yirikligiga, separatsiya amalga oshiriladigan muhitga (quruq yoki ho'l), hamda boyitish mahsulotiga qo'yiladigan talablarga bog'liq.

Magnit separatorlarining asosiy turlari va ularning ishlatish sohalari 22-jadvalda keltirilgan.

Separatorlarning ishlab chiqarish unumdarligini aniqlash boyitmaga ajraluvchi mineralarning magnit xususiyatiga, dastlabki mahsulotning yirikligiga, boyitish mahsulotlarining sifatiga qo'yiladigan talablarga va separator turiga bog'liq. Solishtirma yukning ruxsat etiladigan me'yorlari tajriba yo'li bilan aniqlanadi.

Kuchli magnitli rudalarni quruq separatsiyalash uchun separatorlarning ishlab chiqarish unumdarligi taxminan quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$Q = 0,82n(L - 0,1)V \cdot \delta \frac{d_2 - d_1}{\lg d_2/d_1} a\sigma$$

Bu yerda  $Q$  – dastlabki mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumdarligi, t/soat.

$n$  – asosiy separatsiya uchun barabanlar soni,

$L$  – baraban uzunligi;

$V$  – asosiy (bosh) barabanda materialning harakatlanish tezligi ( $V=1\text{ m/sek}$ );

$\delta$  – rudanining zinchligi,  $\text{t/m}^3$

$d_1$  va  $d_2$  dastlabki mahsulotdagi eng kichik va eng katta zarrachaning o'lchami (klassifikatsiyalangan mahsulot tushganda  $d_1=0,01$   $d_2$  deb qabul qilinadi);

a-dastlabki mahsulotning yirikligiga bog'liq koeffitsient (20-jadval).

b- chiqindini tozalash barabanlari soni va asosiy barabanlar soni orasidagi nisbatga bog'liq koeffitsient (21-jadval).

Shunday qilib, quruq separatsiyalash magnit separatorlari empirik koeffitsientlar bilan tuzatilgan ishlab chiqarish unumdoorligini nazariy formulalari orqali hisoblanadi. Bosh barabanda chiqindini tozalash operatsiyasi mavjud bo'lsa, boyroq chiqindi olish mumkin. Bu holda ishlab chiqarish unumdoorligini va bosh baraban aylanish tezligini oshirish kerak. Shunday qilib, **b** koeffitsienti bosh baraban chiqindilari sifatiga qo'yiladigan talablarni hisobga oladi.

Kuchli magnitli rudalarni ho'l usulda separatsiyalovchi separatorlarning ishlab chiqarish unumdoorligi ta'minlagichning 1m kengligiga to'g'ri keluvchi solishtirma yukning me'yorlari asosida hisoblanadi. Hisoblash quyidagi formula orqali olib boriladi.

$$Q = q \cdot n (L - 0,1)$$

bu yerda: Q - separatorning dastlabki quruq mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumdoorligi, t/soat; q - solishtirma yuk, t/m soat; n separatorordagi bosh barabanlar soni; L - har qaysi barabanning uzunligi, m.

*20-jadval*

### Formuladagi a koeffitsientining qiymati, V=1m/sek

Dastlabki mahsulotning yirikligi, mm	10-0	20-0	30-0	40-0 dan 60-0 gacha	10-5	20-6	30-6	40-6 dan 60-6 gacha
a ning qiymati	2,5	1,5	1,1	1,0	1,2	0,75	0,65	0,6

*21-jadval*

### Formuladagi b koeffitsientining qiymati

Chiqindilarni tozalash uchun ishlataladigan barabanlar sonining asosiy barabanlar soniga nisbati	0:1	1:2	1:1	2:2
b koeffitsientining qiymati	1,0	1,25	1,5	1,5

Shishali qumlarni, kerakli mahsulotlarni va abraziv zarrachalarni temirsizlantirish uchun valokli separator ishlataladi. Kamyob metalllar boyitmalarining sifatini me'yorga yetkazish va qora metalllar kuchsiz

## Magnit separatorlari asosiy turilarning kvalifikatsiyasi va ishlatlilik sohalari

Magnit maydonining kuchlanganligi va magnit kuchi.	Kuchsiz magnit maydoni (N100-130kA/m) va ochiq magnit sistemali separatordar.		Kuchi magnit maydonli (N600-1450 kA/m) va yopiq magnit sistemali separatordar.
Boylish usuli	Quruq	Hö'l	Hö'l
Mahsulotini berish usuli	Oqib o'tirvchi	Oqib o'tirvchi	Qurug'
Berilgan va nomagnit mineralini harakallanish yo'nalishi.		Qarana- qarshi oqimli	Oqib o'tirvchi
Magnit aralashitirishning yoki yo'qиги	Yo'q	Bor	Yo'q
Separatoring konstruktiv turi	Baraban – shikvidi	Barabani, tasmani	Barabani rolikli
Separatoring ishlatlilik sohalari	Kuchi magniti rudalani boyitish  50 mm dan yiriklik	6 mm gacha yiriklikdagi kuchi magniti rudalani boyitish  50 mm gacha yiriklik	0,2 mm gacha yiriklikdagi kuchi magniti rudalani boyitish  Shisha va keramika mahsulotda n kuchsiz magnit q'shumchasi ani
			Shisha va keramika mahsulotda tozalash kuchsiz magnit rudalani boyitish.
			Kamyob metallar boyitmalarni tozalash kuchsiz magnit temirli rudalani boyitish.
			Manganetsli va boishqa kuchsiz magnit rudalani boyitish.

magnitli rudalarini boyitish uchun nisbatan samaraliroq va arzonroq hisoblanuvchi valokli separatorlarni qo'llash kerak. Diskli separatorlar valokli separatorlarga nisbatan kamroq iqtisodiy samaradorlikka ega.

Kuchsiz magnitli rudalar uchun separatorlarning ishlab chiqarish unumдорлиги амалий ма'lумотлар ва каталоглардан олинади.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Diamagnit, paramagnet, ferromagnit, kuchli magnitli, kuchsiz magnitli, magnit moment, magnit maydonining kuchlanganligi, magnitlanishga moyillik, magnit maydoni, magnit separatorlari.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Magnit separatorlari qanday turlarga bo'linadi?
2. Magnit separatorlarining ishlab chiqarish unumдорлиги qanday aniqlanadi?
3. Magnit separatorlari qanday rudalar boyitiladi?
4. Magnitlovchi kuydirish nima maqsatda qo'llaniladi?
5. Magnitli separatsiyalashning qanday turlarini bilasiz?

### **9. Suvsizlantirish uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash**

Suvsizlantirish uchun dastgohlarni tanlash dastlabki mahsulotning yirikligi va namligiga hamda suvsizlantirilgan mahsulotning ruxsat etilgan namligiga bog'liq.

Odatda, suvsizlantirilgan mahsulotlarning namligi umumiyligi namlikning miqdori bilan harakterlanadi. Bu ko'rsatkich gravitatsiya, kapillar va gigroskopik namliklarni o'z ichiga oladi. Oxirgi namlik suvsizlantirish operatsiyalarida yo'qolmaydi, shuning uchun umumiyligi namlik suvsizlantiruvchi apparatlarning bir xil mineralogik va granulometrik tarkibga ega mahsulot tushgandagi ishlash samarodorligini belgilaydi. Ko'mirni va temirli boyitmalarini boyitishda puch tog' jinslarining miqdori ko'p bo'lgani uchun nisbatan mayin shamlarni suv bilan yuvish va chetlashtirishda ularni qo'shimcha tarzda boyitish sodir bo'ladi va bu holat yuqoridaagi boyitmalarini suvsizlantirish uchun dastgohlarni tanlashda hisobga olinishi kerak. Suvsizlantirilgan mahsulotlarning dastlabki mahsulotning yirikligi va suvsizlantirish

uchun ishlataladigan dastgohga bog'liq holda taxminiy namligi 23-jadvalda keltirilgan.

*23-jadval*

### Suvsizlantirilgan mahsulotlarning taxminiy namligi

Dastlabki mahsulot	Suvsizlantirish uchun ishlataladigan dastgoh	Suvsizlantirilgan mahsulot namligi, %
1	2	3
Yirik ko'mirli boyitma >13 mm	Elak	6-12
Mayda ko'mirli boyitma, <13 mm	Elak	10-12
	Elak, filtrlovchi tsentrifuga	7-9
Ko'mirni boyitishda yirik oraliq mahsulot, >13 mm	Elevator, bunker	10-16
Shuning o'zi <13 mm	Elevator, filtrlovchi sentrifuga	8-12
1	2	3
Sulfidli flotatsion boyitmalar: Misli	Quyultirgich, vakuum - filtr	10-15
Qo'rg'oshinli	Quyultirgich, vakuum - filtr	6-14
Ruxdi	Quyultirgich, vakuum - filtr	9-15
Piritli	Quyultirgich, vakuum - fil'tr	7-14
Molibdenli	Quyultirgich, vakuum-fil'tr	20-25

Mayda mahsulotlarni filtrlashda cho'kmaning namligi ba'zan bo'tanaga sirt-aktiv moddalar qo'shilganligi sababli sezilarli darajada kamayishi mumkin. Masalan, marganetsli boyitmalarini filtrlashda polioksietilennинг qo'llanilishi cho'kmaning namligini 3-4 % ga kamaytiradi. Filtrlash jarayonini filrlanuvchi bo'tanani yoki filtrdagи cho'kmani isitish orqali jadallashtirish mumkin.

### Bo'lakli va donachali mahsulotlarni suvsizlantirish uchun dastgohlarni tanlash

Yirik ko'mirli boyitmalarini (>6-12) suvsizlantirishning birinchi bosqichi elaklarda yoki suvsizlantiruvchi elevatorlarda amalga oshiriladi.

Agar bu holda mahsulotning namligi me'yorga yetmasa, mahsulot bunkerlarda qo'shimcha tarzda suvsizlantiriladi. Elaklarda suvli mahsulotni suvsizlantirishda suvning bir qismi (75% atrofida) dastlab 1,0-0,5 mm teshikli elaklarda taxminiy suvsizlantiriladi. Suvsizlantirish uchun mahsulotni elakda yetarli darajada silkita oluvchi istalgan ikki to'qli elaklarni ishlatish mumkin.

Og'ir suyuqliklarda boyitishda suspenziyani va suvsizlantirish mahsulotlarini chayish bilan ajratish uchun ustki to'rining o'lchamlari 6; 13 va 25 mm li ikki to'qli elaklar ishlatiladi. Ostki to'r teshiklarining o'lchami suvsizlantiriluvchi mahsulotning yirikliligiga bog'liq holda 0,5-1,5mm. Elaklar 1m kenglikka tushadigan yuk bo'yicha hisoblanadi. Elakning uzunligi 5,5 – 6 m (suspenziyani ajratish qismi 1,5 m, chayish qismi 1,5-2m, chayishdan keyingi suvsizlantirish qismi 1,5- 2 m )

### Ruxsat etiladigan yuklar

Mahsulotning yirikligi, mm	0,5-6	0,5-20	6-50	13-50	13-150	25-100
1m kenglikka to'g'ri keladigan yuk,t/soat	20-22	25-28	30-35	40-45	50-55	60-70

Mayda ko'mirli boyitmalarini (<6-12) suvsizlantirish odatda, ikki bosqichda, ortiqcha suvni dastlab qo'zg'almas tirqishli to'r o'matilgan elaklarda, so'ngra filtrlovchi sentrifugalarda yo'qotiladi.

Suvsizlantiruvchi elevatorlardan olinadigan mayda mahsulotlar ham filtrlovchi sentrifugalarda qo'shimcha tarzda suvsizlantiriladi.

Mayda ko'mirli boyitmalarini suvsizlantirish uchun GSL, GISL va boshqa turdag'i elaklardan foydalaniladi.

Suvsizlantirishning ikkinchi bosqichida filtrlovchi sentrifugalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Ular cho'kmani inersion, shnekli va vibratsion tushiradigan qilib ishlab chiqariladi.

40% gacha – 0,074 mm li sinfni saqlovchi mayda zarrachali rudali boyitmani birlamchi suvsizlantirish odatda, mexanik klassifikatorlarda olib boriladi. Ikkilamchi suvsizlantirish esa tasmali vakuum-filtrlarda yoki suvsizlantiruvchi omborlarda amalga oshiriladi. Bu boyitmalar bir bosqichda cho'ktiruvchi sentrifugalarda ham suvsizlantirilishi mumkin.

Mexanik klassifikatorlar va vakuum-filtrlarni birgalikda ishlatish varianti iqtisodiy jihatdan arzonga tushadi.

## *Mayin tuyulgan mahsulot va shlamlar uchun dastgohlarni tanlash.*

Mayin tuyulgan mahsulotlar va shlamlarni suvsizlantirish bir yoki ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ikki bosqichda suvsizlantirish nisbatan ko'proq ishlatiladi. Birinchi bosqichda silindrik quyultirgichlar, ayrim hollarda konuslar; ikkinchi bosqichda vakuum-filtrlar, kamroq hollarda filtr – presslar ishlatiladi. Bir bosqichda suvsizlantirish uchun cho'ktiruvchi sentrifugalar ishlatilishi mumkin. Bu sentrifugalarning tindirilgan suvlarini 3-15 mkm gacha yiriklikdagi rudali zarrachalarini va 10-40 mkm gacha yiriklikdagi ko'mir zarrachalarini saqlaydi.

Cho'ktiruvchi sentrifugalar ko'mir shlamlarini suvsizlantirish va aylanma suvlarni tindirish uchun ishlatiladi.

Cho'ktiruvchi shnekli sentrifugalarning aylanma suvni olish maqsadida flotatsiya chiqindilarini qayta ishlash uchun ham ishlatish mumkin.

Foydali minerallarning miqdori ko'p mahsulotni flotatsiyalashda (masalan, toshko'mir, apatitli ruda) quyuq ko'pik hosil bo'ladi va uni to'g'ridan to'g'ri filtrlashga yuborish mumkin. Filtrlashning quyulmasi quyultiriladi va filtrlashga qaytariladi.

Boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumдорligi katta bo'lganda mayin mahsulotni quyultirish uchun, ko'pincha, konusga nisbatan quyultirilgan mahsulotda qattiq zarrachalarning miqdorini ko'proq beruvchi bir yarusli (tsilindrik) quyultirgichlar ishlatilatidi.

Bir yarusli quyultirgichlar diametri 100 m gacha markaziyligi vall qilib tayyorlanadi. Ko'mir boyitish fabrikalarida flotatsiya chiqindilarini yuqori boyitmasigacha quyultirish uchun cho'kmani zichlashtiruvchi quyultirgichlar (konusligi yuqori va giperboloid taglikka ega) ishlatiladi.

Ma'lum miqdorda qumli fraksiyani saqlovchi mahsulotni quyultirishda ular dastlab gidrotsiklonlarda klassifikatsiyalanadi. Bu holda quyultirgichga gidrotsiklon quyulmasi jo'natiladi.

Quyultirilgan mahsulotlar va qattiq zarrachalarning miqdori yuqori bo'lganda flotatsiya boyitmalarini filtrlashga yuboriladi. Filtrlash, odatda, uzluksiz ishlaydigan vakuum-filtrlarda amalga oshiriladi.

Vakuum –filtrlarning turi asosan qattiq fazaning yiriklik kvalifikatsiyasi, uning zichligi, talab qilinadigan ishlab chiqarish unumдорligi va namlikka qo'yiladigan me'yorlarga bog'liq holda aniqlanadi. Tez cho'kuvchi va nisbatan donachali rudali boyitmalarini (< 60-70% -0,074 mm li sind saqlovchi) filtrlashda ichki filtrlovchi yuzali barabanli filtrlar ishlatiladi.

Boyitish fabrikasining ishlab chiqarish unumdorligi katta bo'lganda va filtrlashga mayin tuyulgan mahsulot tushganda diskli vakuum-filtrlar ishlataladi. Bu filtrlarda filtrlovchi matoni almashtirish oldindan tayyorlab qo'yilgan sektorlar yordamida amalga oshiriladi va bu filtrlarni uzoq vaqt to'xtab qolishining oldini oladi.

Diskli vakuum-filtrlarning barabanli vakuum -filtrlarga nisbatan kamchiligi cho'kma namligining ortiqligi (1-2% ga), cho'kmaning filtrlovchi matoda unchalik mustahkam ushlanib qolmasligi.

Tashqi filtrlovchi yuzali barabanli va qum filtrlar diskli vakuum-filtrlarga nisbatan kamroq ishlataladi, diskli filtrlarga nisbatan qo'pol va qimmatroq.

Barabanli filtrlarda filtrlovchi matoni o'zgartirish ko'p vaqt talab qiladi. Shuning uchun tashqi filtrlovchi yuzali barabanli filtrlar suvsizlantiriluvchi mahsulotning namligini pasaytirish katta ahamiyatga ega bo'lganda yoki donachali mahsulotning diskli filtni yuzasida ushlanib qolishi qiyin bo'lganda ishlataladi.

Barabanli vakuum-filtrlar mahsulot berilayotgandagi tebranishlarni kamroq sezadi, katta solishtirma ishlab chiqarish unumdorligiga ega. Yirik donali 30%- 0,1 mm li sinf saqlovchi ko'mirli boyitmani boyitishda diskli filtrning ishlab chiqarish unumdorligi  $350 \text{ kg/m}^2$  soat, barabanli filtrniki esa  $500 \text{ kg/m}^2$  soat.

Hamdo'stlik mamlakatlari boyitish fabrikalarida shlamlar flotatsiyasining ko'mirli boyitmalari asosan diskli vakuum-filtrlarda suvsizlantiriladi.

Flokulyant poliakrilamid (PAA)ning qo'shilishi vakuum -filtrlarning ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, lekin ularning turli tarkibili ko'mirli boyitmalarga ta'siri turlicha. PAA katta miqdorda qo'shilsa, cho'kmaning namligi ortadi. Flokulyant narxining balandligi hamma vaqt ham uni qo'llashni iqtisodiy jihatdan oqlamaydi.

Cho'ktiruvchi sentrifugalar flotatsion boyitmalarda namligi fil'trlardagiga nisbatan 2-3% ga ortiq cho'kma byeradi va faqat 90 g/l gacha qattiq zarrachalarni saqlaydi. Cho'ktiruvchi sentrifugada olinadigan cho'kmaning namligi ( $\beta, \%$ ) dastlabki boyitmadagi 0,074 mm dan kichik sinfnинг miqdoriga ( $\beta^{-0,074}$ ) bog'liq bo'ladi.

$$\beta = 6,8 + 0,68\beta^{-0,074}$$

Cho'ktiruvchi sentrifugalarni qo'llash boyitmadagi mayin va kulli shlamlarning miqdori yuqori bo'lganda o'zini oqlaydi. Bu holda vakuum-filtrlarning ishlab chiqarish unumdorligi keskin kamayadi,

cho'kmaning namligi esa ortadi. Sentrifugada namligi vakuum - filtrlardagidek yoki hatto undan kichik cho'kma olinishi mumkin. Vakuum - filtr yoki sentrifugani qo'llashning oxirgi tanlovi bir necha variantlarni texnik - iqtisodiy jihatdan taqqoslash yoki tekshirish asosida amalga oshiriladi.

Ko'mirli shlamlar flotatsiyasining chiqindilarini suvsizlantirish uchun filtr-presslarni qo'llash tashqi tindirgichlarni ishlatmasdan aylanma suv muammosini hal qiladi. Shu bilan atrof- muhitni saqlash masalasi ham hal bo'ladi.

### Dastgohlarning ishlab chiqarish unumdorligini hisoblash

**Suvsizlantiruvchi elaklar** panjaraning yuza birligiga to'g'ri keladigan solishtirma yuk bo'yicha hisoblanadi. Ruxsat etiladigan yuk suvsizlantirishga tushadigan mahsulot yirikligiga, uning zichligiga, elak ko'zining o'lchamlariga bog'liq.

Ko'mirmi suvsizlantirishda quyidagi yuklar qabul qilinadi ( $t/m^2 soat$ ):

Yirik boyitma(>6-12 mm) 1 mm li to'rda:

Bunkerlarda qo'shimcha suvsizlantirish bilan 15-20

Bunkerda qo'shimcha suvsizlantirishsiz 6-8

Mayda boyitma(<6-12 mm) sentrifugada qo'shimcha suvsizlantirish bilan:

1 mm li to'rda 10-12

0,5 mm li to'rda 6-8

Shlamlar (<2-1mm):

0,5 mm li to'rda 2-3

0,3 mm li to'rda 1-1,2

Rudali boyitmalarни elakkarda suvsizlantirishda solishtirma yuk boyitmaning sochma zichligi ortishiga proporsional tarzda ortadi.

**Suvsizlantiruvchi elevatorlar.** Suvsizlantiruvchi elevatorlar uchun quyidagi ish tartibi qabul qilinadi. Kovshlarning harakatlanish tezligi yirik ko'mirmi suvsizlantirishda 0,2-0,3 m/sek, mayda ko'mirmi suvsizlantirishda 0,15-0,18 m/sek, oraliq mahsulot uchun 0,3-0,38 m/sek; kovshni bo'tanadan chiqqandan keyingi suvsizlantirish vaqtı yirik ko'mir uchun 40-50 sek, elevatording qiyalik burchagi 60-70°. Elevatorning ishlab chiqarish unumdorligi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$Q = 3,6 \frac{i}{a} g \cdot \delta \cdot \eta$$

bu yerda  $Q$  - nam mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumadorligi (bo'shatishda), t/soat;  $i$ - kovshning hajm,  $a$ -kovshlarning markazlari orasidagi masofa (zanjirning ikki qadamiga teng), m;  $g$  - kovshlarning harakatlanish tezligi, m/sek;  $\delta$  - nam mahsulotning sochma zichligi,  $t/m^3$ ;  $\eta$  -kovshlarni to'ldirish koefitsienti;  $\eta = 0,5$  qaytadan boyitishga tushmaydigan mahsulotlar uchun; ( $\eta = 0,7-0,9$  qaytadan boyitishga tushadigan oraliq mahsulotlar uchun).

**Suvsizlantiruvchi bunkerlar.** Suvsizlantiruvchi bunkerlar hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$V = \frac{qT}{\delta \cdot \eta}$$

Bu yerda  $V$  – bunkerning hajmi,  $m^3$ ;  $q$ -suvsizlantirishga tushadigan mahsulot massasi, t/soat;  $T$  – suvsizlantirish bitta siklining davomiyligi, soat;  $\delta$  - mahsulotning sochma zichligi,  $t/m^3$ ,  $\eta$  - bunkerning to'ldirish koefitsienti.

Suvsizlantirish bitta siklining davomiyligi bunker bitta yacheykasini to'ldirish vaqt, suvsizlantirish vaqt, yacheykani bo'shatish vaqt va uni keyingi to'ldirishga tayyorlash vaqlarining yig'indisidan iborat. Bunker bitta yacheykasini to'ldirish vaqt.

$$t_1 = \frac{v \cdot \eta \delta}{q}$$

Bu yerda  $t_1$  – yacheykani to'ldirish vaqt, soat;  $v$  – yacheykaning geometrik hajmi,  $m^3$ ,  $\delta$  - mahsulotning sochma zichligi,  $t/m^3$ ,

$\eta$  - bunkerning to'ldirish koefitsienti,  $q$ -suvsizlantirishga tushadigan mahsulot massasi, t/soat;

Kokslanuvchi ko'mirning sinflari uchun suvsizlantirish vaqt 6-8 soat, 25 mm dan yirik energetik ko'mirlar uchun 2-3 soat, 13-25 mm li sinf uchun 4-5 soat, 6-13 mm li sinf uchun 6-8 soat.

Bunker yacheykasini bo'shatish va yana yuklash uchun tayyorlash vaqt uning sig'imi, bo'shatish ishini tashkil qilishga bog'liq. 80-150 t sig'imli yacheykani bo'shatish va tayyorlash vaqt taxminan 2 soatga teng.

Bunkerning yacheykalari soni  $n = V/v$

## Tayanch so'z va iboralar

Yiriklik, namlik, namlik me'yori, mikroskopik, kapilyar, gravitatsiya, bo'lak, dona, suspenziya, quyultirgich, sentrifuga, vacuum-filtr, elevator, bunker.

### Nazorat uchun savollar

1. Suvsizlantirish dastgohlarini tanlash qanday omillarga bog'liq?
2. Suvsizlantirilgan mahsulotlarning namligi nima bilan tavsiflanadi?
3. Suvsizlantirishning birinchi bosqichi qayerda amalga oshiriladi?
4. Suvsizlantirishning ikkinchi bosqichi qayerda amalga oshiriladi?
5. Mayin tuyilgan mahsulot va shlamlarni suvsizlantirish qaysi dastgohlarda olib boriladi?

### Filtrlovchi sentrifugalar

**Cho'ktiruvchi sentrifugalar.** Cho'ktiruvchi sentrifugalarning ishlab chiqarish unumдорлиги quyidagi formuladan hisoblanadi.

$$V = \frac{3.5D^2L(\rho - \rho_0)d^2n^2}{100\mu}$$

bu yerda  $V$ -quyulma bo'yicha ishlab chiqarish unumдорлиги,  $\text{m}^3/\text{soat}$ ,  $D$ -quyulish ostonasining diametri, m,  $L$ -mahsulotni yuklash joyidan quyulish ostonasigacha bo'lган masofa, m;  $\rho$  va  $\rho_0$  -tegishli tarzda qattiq va suyuq fazaning zichligi,  $\text{g/sm}^3$ ;  $d$  -quyulmadagi eng katta zarrachaning diametri, mm;  $n$ - konusning aylanish chastotasi, aylan/min;  $\mu$  - qovushqoqlik, P.

Suvning qovushqoqligi  $\mu = 0,01P$ ,  $\rho_0 = 1\text{g/sm}^3$  ga teng deb hisoblab

$$V = 3.5D^2L(\rho - 1)d^2n^2$$

ni olamiz.

Cho'ktiruvchi sentrifugalarning cho'kma bo'yicha ishlab chiqarish unumдорлиги texnik kvalifikatsiyadan olinadi.

**Quyultirgichlar.** Quyultirgichlarning ishlab chiqarish unumдорлигини hisoblash usuli quyultirishga tushayotgan bo'tananing xossalariiga bog'liq.

Koagulyatsiyalovchi moddalarni saqlaydigan suyultirilgan bo'tanani quyultirish quyultiriluvchi bo'tana va tindirilgan suv qatlami orasida aniq chegara chizig'i bo'lmasligi bilan harakterlanadi. Bu holda quyultirgich quyulmaga o'tuvchi eng katta zarrachalarning erkin tushish tezligi asosida klassifikatsiyalovchi apparat sifatida ishlataladi.

Quyultirgichning solishtirma cho'kish yuzasi quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$f = \frac{R_1 - R_2}{g \cdot k}$$

bu yerda:

- $f$  - solishtirma cho'kish yuzasi,  $m^2/tonna$ . soat;
- $R_1$  va  $R_2$  - dastlabki va quyultirilgan mahsulotlarda suyuqlikning qattiq zarrachalarga ( $C: Q$ ) bo'lgan nisbati;
- $g$  - quyulmaga o'tuvchi nisbatan katta zarrachalarning suvda erkin cho'kish tezligi,  $m/soat$ ;
- $k$  - quyultirgichning samarali ishlataladigan yuzasini uning umumiy yuzasiga nisbatiga teng koeffitsient ( $k=0,5-0,6$  kichik va  $k=0,7-0,8$  katta quyultirgichlar uchun).

Tindirilgan suv va quyultirilgan bo'tana qatlami orasida aniq chegara beruvchi quyuq va koagulyatsiyalangan bo'tanalar uchun solishtirma cho'kish yuzasi  $f$  ning quyidagi formula orqali hisoblanuvchi maksimal qiymati qabul qilinadi.

$$f = \frac{R_1 - R_2}{g \cdot k}$$

bu yerda:

- $R$  - quyultirish jarayonida  $R_1$  dan  $R_2$  gacha o'zgaruvchi  $S:Q$  nisbati;
- $g$  - quyulmaga ajraluvchi nisbatan yirik zarralarning suvda erkin tushish tezligi,  $m/soat$ ;  $f, R_2, k$  avvalgi qiymatiga teng.

Turli  $R$  da  $g$  ning qiymati laboratoriya izlanishlari orqali tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Agar bunday tadqiqotlar o'tkazilmagan bo'lsa, quyultirgichlar boyitish fabrikasida tarkibi o'xshash bo'tanani quyultirishda erishilgan solishtirma yuk me'yorlari asosida aniqlanadi. O'xshashlarni hisoblashda cho'kish tezligiga ta'sir qiluvchi sharoitlar, qattiq fazaning mineral va granulometrik tarkibi, bo'tanada elektrolitlarning va maxsus koagulyantlarning mavjudligi, bo'tananing harorati va hokazolarni hisobga olish kerak.

Solishtirma yuk me'yorlarini tanlashda quyultirilayotgan mahsulotning qimmatbaholigini, quyulmani suv havzalariga tashlashdan oldin iflosligining ruxsat etilgan me'yorini ham hisobga olish kerak. Bir yarusli quyultirgichlarning taxminiy solishtirma yuklari 24-jadvalda keltirilgan.

Ko'mir boyitish fabrikalari ko'mirli shlamlarni suvsizlantirish va aylanma suvni tindirishda quyultirishga tushadigan yuk dastlabki bo'tana va quyulmadagi qattiq zarrachalarning miqdoriga, shuningdek, koagulyantlar ishlatilishiga bog'liq.

Poliakrilamid ishlatilganda dastlabki bo'tana bo'yicha solishtirma yuk  $3,5\text{-}4,5 \text{ m}^3 / (\text{m}^2 \text{ soat})$  ni, hamda poliakrilamidsiz faqat  $0,75\text{-}1 \text{ m}^3 / \text{m}^2 \text{ soatnigina tashkil qiladi.}$

*24-jadval*

### Bir yarusli quyultirgichlarning taxminiy solishtirma cho'kish yuzasi va solishtirma yuklari

№	Quyultiriluvchi mahsulot	Solishtirma cho'kish yuzasi, $\text{m}^2/\text{t.soat}$	Solishtirma yuk	
			t/ $\text{m}^2 \text{ soat}$	t/ $\text{m}^2 \text{ sut.}$
1	Flotatsion sulfidli boyitmalar: misli qo'rg'oshinli ruxli piritli molibdenli	16 - 24 24 - 32 20 - 30 12 - 24 30 - 50	0,04 - 0,06 0,03 - 0,04 0,033 - 0,05 0,04 - 0,08 0,02 - 0,033	1 - 1,5 0,75 - 1,0 0,8 - 1,0 1,2 - 2,0 0,5 - 0,8
2	Flotatsiya chiqindilari	12 - 24	0,04 - 0,08	1 - 2
3	Flotatsion marganetsli boyitmalar	35 - 60	0,017 - 0,02	0,04 - 0,07
4	Birlamchi rudali shlamlar	60 - 90	0,01 - 0,017	0,25 - 0,04
5	Sianlashdan oldingi bo'tana	35 - 50	0,02 - 0,028	0,5 - 0,7

Cho'kmani zichlashtiruvchi quyultirgichlar katta solishtirma yukka ega bo'lib, ancha quyuqroq mahsulot olishga imkon beradi. Flotatsiya chiqindilarini koagulyantsiz quyultirishda dastlabki bo'tana bo'yicha solishtirma yuk  $0,5 \text{ m}^3 / \text{m}^2 \text{ soatni tashkil qiladi.}$  Poliakrilamid qo'llanilganda yuk bir necha barobar ortib ketadi va quyultirilgan mahsulotdagi qattiq zarrachalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi, masalan 400 g/l gacha quyultirishda yuk  $4,5\text{-}4,8 \text{ m}^3 / \text{m}^2 \text{ soatni tashkil qiladi.}$

**Quyultiruvchi konuslar va piramidal tindirgichlar.** Bu apparat-larni hisoblash quyultirgichlarni hisoblash kabi olib boriladi.

**Vakuum-filtrlar** – odatda, amaliy ma'lumotlar asosida o'matiladi-gan solishtirma yuk me'yorlari asosida hisoblanadi. Taxminiy solish-tirma yukni dastlabki mahsulotning yirikligi va zichligi, vakuum hamda diskning aylanish chastotasiga bog'liq ravishda aniqlashga imkon beradigan nomogrammalar mavjud. Vakuum -filtrlar uchun taxminiy solishtirma yuklar 25-jadvalda keltirilgan.

25 - jadval

### Vakuum -filtrlar uchun taxminiy solishtirma yuklar

<b>№</b>	<b>Filtrlanuvchi mahsulot</b>	<b>Solishtirma yuk (quruq mahsulot bo'yicha), kg/m<sup>2</sup>soat</b>	<b>Vakuum - filtrning turi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
1.	Flotatsion ko'mirli boyitma 17-46% gacha – 0,06mm li sinf uchun	200 - 400	Diskli
2.	Quyultirilgan sulfidli flotatsion boyitma:		
	Misli	100 - 200	Diskli, barabanli
	Qo'rg'oshinli	80 - 200	Diskli, barabanli
	Ruxli	200 - 300	Diskli, barabanli
	Piritli	300 - 500	Diskli, barabanli
1	2	3	4
3	Grafitli flotatsion boyitma	400 - 500	Diskli
4.	95-99% - 0,050 mm li sinf saqlovchi magnetitli boyitma	350 - 500	Diskli
5.	70% - 0,074mm li sinf saqlovchi magnetitli boyitma	500 - 1000	Diskli, barabanli
6.	70-40% - 0,074 mm li sinf saqlovchi magnetitli boyitmalar	500 - 1000	Ichki filtrlovchi yuzali barabanli

Tanlangan solishtirma yuk bo'yicha umumiy filtrlovchi yuza va o'lchamga bog'liq holda kerak bo'ladigan filtrlarning soni hisoblanadi. Ishlayotgan har 3-4 filtr uchun bitta zaxira filtr ko'zda tutiladi.

**Vakuum-nasos va havo beruvchilar.** Vakuum-filtrlar uchun vakuum - nasos va havo beruvchilarning kerakli ishlab chiqarish unumдорлиги asosan filtrlovchi yuzadagi cho'kma qatlaming o'tkazuvchanligiga va filtrlanuvchi bo'tananing haroratiga bog'liq. Cho'kmaning o'tkazuvchanligi tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Agar u noma'lum bo'lsa 26-jadvalda keltirilgan havo sarfining taxminiy me'yorlariga tayanish mumkin.

26- jadval

### **Vakuum-filtrlarda filtrlashda havo sarfining taxminiy me'yorlari**

№	Filtrning turi	Havoning solishtirma sarfi, $m^3/m^2\text{soat}$	
		Vakuum-nasoslar uchun	Havo beruvchi uchun
1	Barabanli filtrlovchi yuzali:		
	tashqi	0,2 – 2,0	0,1 – 0,5
	ichki	0,6 – 2,2	0,2 – 0,4
2	Diskli	0,5 – 1,4	0,1 – 0,35

Eslatma: havo sarflarining katta qiymatlari yuqori o'tkazuvchan cho'kmalarga, kichiklari kam o'tkazuvchan cho'kmalarga taalluqli.

Boyitish fabrikalari filtrlovchi moslamalarida vakuum hosil qilish uchun porshenli vakuum-nasoslar qo'llaniladi. Porshenli vakuum-nasoslar 900 gPa gacha vakuum hosil qila oladi va yuqori foydali ish koeffitsientiga ega (65-70%).

## **10. Quritish uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash**

***Quritkichlarni tanlash.*** Boyitish mahsulotlarini quritish uchun to‘g‘ri ta’sir etuvchi barabanli quritkichlar, truba-quritkichlar, qaynarqatlamli quritkichlar, bug‘li quritkichlar va boshqalar ishlataladi.

Gaz quritiluvchi mahsulot bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirlashuvchi barabanli quritkichlarni yirikligi va boshlang‘ich namligidan qat‘iy nazar istalgan boyitish mahsulotlari uchun qo‘llash mumkin. Bu quritkichlar katta ishlab chiqarish unumdorligiga egaligi, issiqlikning foydali ish koefitsienti yuqoriligi, energiyani kam iste’mol qilishi, ekspluatatsion harajatlarining nisbatan kichikligi va ishslashda ishonchliligi bilan ajralib turadi. Quritkichlarning kamchiligi – quritilayotgan mahsulotlarning o‘txonadan (o‘choq) chiqayotgan kul bilan ifloslanishi, quritilayotgan mahsulotlarning issiq gazlar bilan uzoq vaqt (15-30 minutgacha) ta’sirlashuvi, katta bino talab etishi, quritkichlar gabarit o‘lchamlarining kattaligi, kapital harajatlarining yuqoriligidir.

Barabanli quritkichlar katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega ruda hamda ko‘mir boyitish fabrikalarida keng qo‘llaniladi.

***Trubali quritkichlar*** faqat mayda va yopishmaydigan mahsulotlarni quritish uchun ishlataladi, chunki katta zarrachalarni yoki mayda mahsulotning yopishib qolgan kesakchalarini muallaq holda ushslash gazlarning katta tezlikda harakatlanishini talab qiladi, bu esa, o‘z navbatida, energiya sarfining oshishiga olib keladi. Buning natijasida mahsulotning gaz bilan tutashish vaqtini kam bo‘lgani uchun (5-10 syek) kesakchalar qurishga ulgurmeydi. Mayda, yopishmaydigan mahsulotni quritishda trubali quritkichlar barabanli quritkichlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: bug‘lanuvchi namlik bo‘yicha nisbatan yuqori kuchlanganlikka (barabanli quritkichlarga nisbatan 8-10 marta ko‘p) egaligi, mahsulotning gaz bilan tutashish vaqtini kam, dastgohlarga va quritish sexini qurishga sarflanadigan kapital harajatlarning kamligi. Trubali quritkichlarning kamchiligi – changni katta miqdorda chiqib ketishi, energiya sarfining yuqoriligi, issiqlik foydali ish koefitsientining pastligi, quritish jarayonini boshqarish qiyinligi. Trubali quritkichlarning asosiy ishlatalish sohasi – ko‘mirli boyitmalarini quritish. Quritkichlarning turini tanlash (barabanli yoki trubali) variantlarni texnik-iqtisodiy taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Ruda boyitish fabrikalarida trubali quritkichlar ishlatilmaydi.

## **Quritkichlarni taxminiy hisoblash**

Quritkichlarning hajmi quritilishi kerak bo'lgan mahsulotning xossalariiga, uning boshlang'ich va oxirgi namligiga, quritkichga kirishdagi va chiqishdagi gazlarning haroratiga, quritkichning turiga, gaz oqimining tezligiga va yonilg'ining sifatiga bog'liq holda hisoblanadi. Kuchlanganlikning me'yori, shuningdek, gazlarning quritkichga kirishdagi va chiqishdagi harorati ilmiy-tadqiqot va amaliy ma'lumotlar, shuningdek, tarkib va namlik bo'yicha o'xshash mahsulotni quritish natijasida olingan ma'lumotlar asosida belgilanadi.

Barabanli quritkichlar uchun gazlarning kuchlanganligi va harorati haqidagi ma'lumotlar 27-jadvalda keltirilgan.

Barabanli quritkichning o'lchami va sonini aniqlash uchun avval ularning umumiylajmiy hajmi hisoblanadi:

$$V_0 = \frac{Q(R_1 - R_2)}{\omega}$$

bu yerda:

- $V_0$  - quritkichning umumiylajmiy hajmi,  $m^3$ ;
- $Q$  - quritish bo'limining ishlab chiqarish unumdonligi (quritilayotgan mahsulotdagi qattiq zarrachalarning massasi bo'yicha), kg/soat;
- $R_1$  va  $R_2$  - tegishli ravishda quritkichga tushayotgan va chiqayotgan mahsulotlardagi suyuqlikning qattiq zarrachalarga nisbati ( $S:Q$ ), kg suv/kg qattiq zarrachalar;  $\omega$  - bug'lanuvchi suv bo'yicha quritkichning kuchlanganligi,  $kg/(m^3 \text{ soat})$ .

So'ngra alohida variantlar uchun hajm bo'yicha bir-biridan o'lchamlari bilan farq qiluvchi quritkichlarning soni aniqlanadi.

Raqobatbardosh variantlarni texnik-iqtisodiy taqqoslash orqali optimal variant tanlanadi. Katta o'lchamdagagi quritkichlarni qabul qilish maqsadga muvofiq, chunki bunda kapital va ekspluatatsion harajatlar kamayadi.

### **11. Chang ushslash uchun dastgohlarni tanlash**

Chang ushslash uchun quruq markazdan qochuvchi chang ushlagichlar (siklonlar va batareyli siklonlar), har xil turdag'i ho'il chang ushlagichlar, matoli yengli filtrlar va elektr filtrlar ishlatiladi.

**To‘g‘ri ta’sir etuvchi barabani quritkichlarning bug‘lanuvchi namlik bo‘yicha  
taxminiy kuchlanganligi**

Qurituvchi mahsulot	Mahsulot ramligi %	Gazning harorati, °S	Mahsulot yirikligi, mm	Kuchlanganlik kg/m <sup>3</sup>
Dastlabki	Quritkichdan keyin	Quritkichdan tushuvchi	Quritkichdan chiquvchi	
Mayda ko‘mirli mahsulot	12-18	3-6	700-900	80-100
Ko‘mirni floatatsiya boyitmasi	20-26	3-6	700-800	90-110
Sulfidli boyitumalar	12	3,0	500-600	100
Apatitli boyitma	11,3	1,0	1000-1100	100-150
Oksidlangan misli boyitma	30	4	800	100
Ohak	8-15	1,5	1000	80
Qum	4,3-7,7	0,5	840	100
			-	80-88

Tozalanuvchi gaz (havo)dagi changning boyitmasi va uning ahamiyatiga, shuningdek, sanitar talablarga qarab chang ushlash bir, ikki va uch bosqichda amalga oshiriladi. Masalan, quruq maydalash sexining havosida nisbatan ahamiyatsiz changlarning konsentratsiyasi pastroq bo'lgani uchun uni tozalash bir yoki ikki bosqichda olib boriladi. Havoni bir bosqichda tozalash uchun changni yuqori darajada ushlab qoluvchi apparatlar ishlataladi.

Asbest boyitish fabrikalarida havoni bir bosqichda tozalash uchun elektr filtrlar, yengli yoki ko'pikli filtrlar, ikki bosqichda tozalash uchun esa birinchi bosqichda oddiy yoki batareyali filtrlar va ikkinchi bosqichda siklon-yuvuvchilar ishlataladi.

Boyitmani quritishda olinadigan tutunli gazlar katta miqdorda yuqori qiymatga ega gazlarni saqlaydi. Shuning uchun bu gazlarni tozalash oxirgi bosqichda yuqori samaradorlikka ega chang ushlagichlarni qo'llab ikki yoki uch bosqichda amalga oshiriladi.

Masalan, apatitli boyitmani quritishda olinadigan gazlar ketma-ket avval siklonlarda, elektr filtrlarda va nasadkali skrubberlarda tozalanadi. Qurituvchi gazlarni skrubberlarda tozalash bilan bir vaqtida ularning issiqligidan ham foydalaniladi, chunki skrubberlardan chiqadigan shlamli suv flotatsiyaga tushadigan bo'tanani isitish uchun mexanik klassifikatorlarga tushadi.

### Tayanch so'z va iboralar

Quritish, quritkich, baraban, truba, hajm, tutunli gaz, afzallik, kamchilik quruq, ho'l, chang ushlash, chang konsentratsiyasi, tozalash, siklon, scrubber, shamollatish.

### Nazorat uchun savollar

1. Boyitish mahsulotlarini quritish uchun qanday quritkichlar ishlataladi?
2. Barabanli quritkichlar qanday afzallikkarga ega?
3. Trubali quritkichlar qanday mahsulotni quritish uchun ishlataladi?
4. Quritkichlarning hajmi qanday hisoblanadi?
5. Bo'tanani quritishda ajralib chiqadigan tutunli gazlar qanday tozalanadi
6. Chang ushslash uchun qanday dastgohlar ishlataladi?

## 12. Namuna oluvchi va uni bo‘luvchi dastgohlarni tanlash va hisoblash

Quruq bo‘laklangan mahsulotlardan namuna olish uchun kovshli va skreperli namuna olgichlar, bo‘tana va mayda sepiluvchi mahsulotdan namuna olish uchun esa kesuvchi pichog‘i to‘g‘ri chiziqli qaytarma-ilgarilama harakatlanuvchi namuna olgichlar qo‘llaniladi.

Namuna olgichlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: kesuvchi moslama devorlari orasidagi masofa (ya’ni kovshning kengligi, pichoq tirkishining kengligi) sinab ko‘rilayotgan mahsulot eng katta bo‘lagining o‘lchamidan 2,5-3 barobar katta bo‘lishi; kesuvchi moslamaning uzunligi mahsulot kesib o‘tuvchi oqimining balandligidan katta bo‘lishi; kovshning hajmi bir marta kesib olingan namuna hajmidan 25-30% ko‘p bo‘lishi; namuna olgich namunani talab qilinadigan qisqartirish darajasini ta’milashi kerak.

Bir soatda ( $q_2$ ) bir marta kesib olishga mo‘ljallangan namuna massasi ( $q_1$ ) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$q_1 = \frac{Q \cdot b}{3600 \cdot \vartheta}$$
$$q_2 = \frac{Q \cdot b \cdot N}{3600 \cdot \vartheta}$$

bu yerda:

- $Q$  -sinab ko‘rilayotgan mahsulot oqimining ishlab chiqarish unumdarligi, t/soat;
- $b$  - kesuvchi moslamaning devorlari orasidagi masofa, mm;
- $\vartheta$  - kesuvchi moslamaning harakatlanish tezligi, m/sek;
- $N$  - bir soatdagi kesishlar soni.

Qisqartirish darajasi vaqt birligi ichidagi sinab ko‘rilayotgan mahsulot oqimi ishlab chiqarish unumdarligining shu vaqt birligi ichidagi namuna massasiga nisbatli quyidagi formuladan topiladi:

$$S = 3,6 \cdot 10^6 \cdot v$$

Sinash davridagi (masalan, smenadagi) mahsulot oqimi ishlab chiqarish unumdarligi  $Q$  ni va shu davrda olinadigan namunaning massasini bilgan holda talab qilinadigan qisqartirish darajasi  $s = Q/q$

topiladi, so'ngra talab qilinadigan qisqartirish darajasi va sinalayotgan mahsulotning fizik xususiyatlariga qarab namuna olgichning turi tanlanadi.

Namunaning dastlabki massasi katta bo'lganda mexanizatsiyalashtirib bo'lish uchun namuna olish joyi yaqinida namuna bo'lish stansiyalari o'matiladi. Namuna bo'luvchi stansiya olingan namuna tushadigan bunker, namunani maydalash va qisqartirish uchun dastgohlarni o'z ichiga oladi. Yirik namunani maydalashning birinchi bosqichi jag'li, konusli yoki bolg'achali maydalagichlarda, ikkinchi bosqichi esa kofe yanchuvchi turdag'i maydalagichlarda yoki tekis valoklarda amalga oshiriladi. Dastlabki namunani maydalash va qisqartirishdan so'ng yirikligi 0,5-0 dan 3-0 mm gacha, massasi 0,2-2,5 kg li namuna olinib, u analitik namuna tayyorlash uchun fabrika laboratoriyasiga tushadi.

Ko'mir boyitish fabrikalari uchun namuna olish, yanchish va namunani qisqartirish bo'yicha dastgohlarning kompleksi tayyorланади. Bu dastgoh sinab ko'rileyotgan 300 mm gacha yiriklikdagi ko'mir, antratsit va slanetslarning ishlab chiqarish unumdorligi 3000 t/soat bo'lgan oqimidan namuna olishga imkon beradi.

### **13. Bunker va omborlarning hajmini tanlash bo'yicha asosiy holatlar**

Boyitish fabrikalarida bunkerlar turli maqsadlar uchun ishlataladi. *Qabul qiluvchi bunkerlar* boyitish fabrikasiga kelib tushayotgan mahsulotni bo'shatish uchun mo'ljallangan.

*To'plovchi bunkerlar* fabrikaning alohida sexlari orasidagi ishlab chiqarish unumdorligi va ish tartibi orasidagi farqning o'mini to'ldirish hamda bir sex ishining boshqasiga bog'liqmasligini ta'minlash va foydali qazilma turli navlarini talab qilinadigan nisbatda shixtalash maqsadida o'matiladi. *Taqsimlovchi bunkerlar* mahsulotni bir nechta bir xil turdag'i apparatlarga tekis taqsimlash uchun ishlataladi.

Bu bunkerlarning hajmi biroz kattalashtirilsa, masalan, flotatsion boyitish fabrikalarida tegirmonlardan oldin to'plovchi bunkerlar bo'lishi mumkin.

***Yuk ortuvchi bunkerlar*** boyitish mahsulotlarini temir yo'l vagonlariga yoki boshqa turdag'i tashish idishlariga tez ortish maqsadida qo'llanadi.

***Suvszlantiruvchi bunkerlar*** boyitish mahsulotlarini suvsizlantirish va bir vaqtning o'zida ortish uchun xizmat qiladi.

***Qabul qiluvchi bunkerlarning*** sig'imi boyitish fabrikasiga foydali qazilmani keltirish va maydalash sexi ishini tashkil etishga hamda foydali qazilma tarkibidagi eng katta bo'lakning o'lchamiga bog'liq. Agar eng katta bo'lakning o'lchami 400 – 500 mm dan katta bo'lsa, katta hajmdagi qabul qiluvchi bunkerlarni o'matish katta kapital harajatlarga olib kelgan bo'lardi. Shuning uchun yirik bo'lakli rudalarda iloji boricha kichik hajmli qabul qiluvchi bunker o'matiladi.

***To'plovchi bunkerlarning sig'imi*** bir-biriga qo'shni sexlarning ishlab chiqarish unumдорлиги va ish tartibi bilan aniqlanadi. Oraliq bunkerlarning kerakli sig'imi quyidagi formuladan topiladi:

$$G = Q_s \cdot t_u \cdot k$$

bu yerda:

- G – bunkerning sig'imi, t;
- $Q_s$  – sexning ishlab chiqarish unumдорлиги, t/soat;
- $t_u$  – sexning to'xtashi va ishga tushishi orasidagi ortiqcha soatlar soni;
- k – zaxira koeffitsienti; k = 1,2 – 1,3.

Loyihalash institutlarining amaliyoti asosida to'plovchi bunkerlar uchun quyidagi sig'implar aniqlangan: yirik, o'rta va mayda maydalash sexlari bir tekis ishlaganda bunkerlar to'plovchi rolini bajarmasligi kerak, bu bunkerlar faqat taqsimlovchi bo'lib xizmat qilishlari kerak; o'rta va mayda maydalash sexlaridan oldin yirik maydalangan ruda omborlari quriladi, boyitish sexidagi to'plovchi bunkerning sig'imi sexning 36 soatlik ishlab chiqarish unumдорлигига teng qilib qabul qilinadi. O'rta va mayda maydalash sexlarida to'plovchi bunkerlar bo'lsa, mayda maydalash va boyitish texining haftadagi ish kunlarining soni bir xil bo'lganda boyitish sexidagi bunkerning sig'imi kamaytirilishi mumkin.

***Taqsimlovchi bunkerlarning sig'imi.*** Taqsimlovchi bunker yachey-kalarining minimal sig'imi berilgan yacheykaga ulangan bir vaqtida ishlaydigan apparatlarning ishlab chiqarish unumдорлигининг yig'indisi va yacheykaning ruda bilan to'ldirish orasidagi vaqt bilan aniqlanadi.

Taqsimlovchi bunkerni uzluksiz harakatlanuvchi ag'daruvchi aravacha yoki reversiv konveyer orqali to'ldirilganda bunkerni bir siklda yuklash vaqtı

$$T = \frac{2L}{g}$$

bu yerda:

$T$  – bitta siklning vaqtı, soat;

- $L$  – bunker uzunligi, m;
- $g$  – aravacha yoki reversiv konveyerning harakatlanish tezligi, m/sek.

Agar yachevkalar soni  $n$  bo'lsa, har qaysi siklda yuklash vaqtı  $t^1 = T/n$  ga teng, bundan yacheykani ruda bilan to'ldirish orasidagi uzulishlar vaqtı  $t_n$  (chetki yachevkalar uchun)

$$t_n = T - t^1 = T - \frac{T}{n} = \frac{2L}{g} \left(1 - \frac{1}{n}\right)$$

Har qaysi yacheykaning kerakli sig'imi va taqsimlovchi bunkerning umumiy sig'imi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$G^1 = Q_p t_n \cdot k = \frac{2Q_p \cdot L}{g} \left(1 - \frac{1}{n}\right)$$

$$G = n \cdot G^1 = \frac{2Q_p L(n-1)k}{g}$$

bu yerda:

- $G^1$  – bitta yacheykaning sig'imi, t;
- $Q_p$  – rudani yacheykadan bo'shatish tezligi, t/soat;
- $k$  – zaxira koeffitsienti.

Bu formula ag'dariluvchi aravachaning uzluksiz ishlash sharoitida yacheykaning minimal hajmini beradi. Odatda, bunday tartib qo'llanilmaydi, bundan tashqari taqsimlovchi bunker ma'lum miqdorda to'plovchi ham hisoblanadi. Shuning uchun taqsimlovchi bunkerlarning sig'imi berilgan sexning bir soatlik ishlab chiqarish unumdorligidan kam bo'lmasligi kerak.

*Yuk ortuvchi bunkerlarning sig'imi.* Boyitish mahsulotlarini iste'molchiga temir yo'l vagonlarida jo'natishda yuk ortuvchi bunkerlarning sig'imi va ortish fronti temir yo'l sostavlarini belgilangan muddatda yuklanishini ta'minlashi kerak. Ko'mir sanoati korxonalari uchun temir yo'l sostavini yuklash vaqtı 2 soatdan ortmasligi kerak.

Temir yo'l vagonlari normal holda berilganda yuk ortuvchi bunkerlarning sig'imi boyitish fabrikasi beradigan mahsulotlarni omborlarga yubormay, to'g'ridan-to'g'ri vagonlarga yuklash kerakligini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

Yuk ortuvchi bunkerlarning kerakli sig'imi bunkerga tushuvchi mahsulotlarning notekislik koeffitsientini va vagonlarga berish t soatga kechiqishi mumkinligini hisobga olgan holda quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q_b = m (z G + t Q - t^1 Q)$$

bu yerda:

- $Q_b$  – yuk ortuvchi bunkerning sig'imi;
- $m$ –mahsulotni bunkerga berishdagi notekislik koeffitsienti;
- $m = 1,5$ ;
- $z$  – sostavdagi vagonlar soni;
- $G$  – bitta vagonning yuk ko'tarish koeffitsienti;
- $t^1$  – bitta vagonga yuklash vaqt, soat;
- $Q$  – fabrikaning tayyor mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish unumдорлиги, t/soat.
- $t$ -sostavni berishdagi mumkin bo'lgan kechikishlar

Boyitish fabrikasida tayyor mahsulot ombori mavjud bo'lsa, yuk ortuvchi vagonlarning hajmi biroz kichraytilishi mumkin, bunda fabrika ayrim vaqtarda ombor orqali ishlaydi. Bu boyitish fabrikasini ekspluatatsiya qilishda ortiqcha harajatlarni keltirib chiqaradi, lekin kapital qurilishga sarflanadigan mablag' tejaladi.

*Omborlarning sig'imi.* Boyitish fabrikalarida omborlar dastlabki mahsulotni berishda uzoq davom etadigan uzilish (tanaffus) larda yoki boyitish mahsulotlarini jo'natishda fabrikani uzlusiz ishlashini ta'minlash, shuningdek, xomashyo va boyitmalarini o'rtachalashtirish uchun quriladi.

Omborlarda kondan keltiriladigan yirik bo'lakli rudani saqlash omborni bo'shatish qiyinligi tufayli noqulay. Shuning uchun agar kon katta o'lchamdag'i (300mm) bo'laklarni bersa, ularni omborga tushishdan oldin yirik, ba'zan esa o'rtacha maydalaniadi. Flotatsiya va magnit boyitish fabrikalarida qoidaga ko'ra o'rta va mayda maydalash bo'limlaridan oldin yirik maydalangan mahsulot omborlari loyihalanadi. Omborlar va to'plovchi bunkerlardagi maydalangan rudanining umumiy zaxirasi 7 va 6

kunli ish haftasida fabrikaning 1,5 sutkali, 5 kunli ish haftasida 3 sutkali ishlab chiqarish unumdorligidan kam bo‘lmasligi kerak.

Boyitish fabrikalarida boyitmalar omborlari agar boyitmani uzoq masofaga jo‘natiladigan yoki ulami o‘rtachalashadirish zarur bo‘lsa quriladi. Agar boyitma boyitish fabrikasi bilan yonma-yon joylashgan korxonada ishlatiladigan bo‘lsa, fabrikada boyitma uchun ombor o‘matilmaydi. Bu holda boyitmaning kerak bo‘ladigan zaxirasi o‘sha korxonaning o‘zidagi bunker va omborlarda tashkil qilinadi.

Omborlarning sig‘imi foydali qazilmani boyitish fabrikasiga keltirishdagi va tayyor mahsulotni vagon yoki boshqa transportga ortishda mumkin bo‘lgan tanaffuslarning vaqtiga bog‘liq holda aniqlanadi. Turli xildagi navlarga ajratilishi kerak bo‘lgan ko‘mirmi boyitishda omborga navlarga ajratilgan ko‘mir jo‘natiladi. Ko‘mir omborlarining sig‘imi mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda qabul qilinadi, lekin bunda omborni kengaytirish imkoniyatlari ham hisobga olinishi kerak. Ruda boyitish fabrikalari uchun sig‘imi fabrikaning jo‘natiladigan mahsulot bo‘yicha 5 - 15 sutkalik ishlab chiqarish unumdorligiga teng omborlar qurilishi mumkin.

#### **14. Ruda va ko‘mirlarni boyitishdan oldin o‘rtachalashadirish**

Sifat tarkibi xususiyatlarining tebranishi (foydali va zararli komponentlarning miqdori, granulometrik tarkib va h.k) boyitish jarayonlarini boshqarishni qiyinlashtiradi. Shunga bog‘liq holda ruda sifatini o‘rtachalashadirish haqidagi masala kelib chiqishi mumkin. O‘rtachalashadirish deganda qayta ishlanuvchi mahsulot sifat tarkibini bir xil ushslashni ta’minalashga qaratilgan rudani qazib olish, tashish, ombor va bunkerlarga joylashtirish tadbirlarining majmuasi tushuniladi. O‘rtachalashadirishning maqsadi – sifatini chegaralamasdan bir turdagи aralashma olish. Ideal o‘rtachalashadirishda o‘rtachalashdirilgan aralashmaning istalgan nuqtasidagi sifat ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lishi kerak.

Shixtovkalash o‘rtachalashadirishdan shu bilan farq qiladiki, shixtovkalash jarayonida alohida komponentlar ma’lum bir miqdorda berilgan, sifati bir turli aralashma (shixta) olish maqsadida aralashdiriladi.

Qandaydir ko'rsatkichning (rudadagi metallning miqdori, ko'mirdagi suvning miqdori va h.k.) uning o'rtacha qiymati yonida tebranish kattaligi o'rtacha kvadrat chetlashish bilan baholanadi. Agar  $y_1$  va  $y_2$  bilan o'rtachalashtirishdan oldin va keyingi o'rtacha kvadrat chetlashishni belgilasak, chetlashishlarning nisbiy farqi o'rtachalashtirishning samaradorlik ko'rsatkichini beradi (%).

$$\eta = \frac{\sigma_1 - \sigma_2}{\sigma_1} \cdot 100$$

Fabrikaga kelib tushadigan rudani o'rtachalashtirish konda boshlanib, turli zaboylardan qazib olishni rejashtirishda va undan keyin fabrikaga tashishda, omborlarda, bunkerlarda, maydalash, yanchish, aralashtirish, bo'tanani nasos orqali haydashda davom etadi.

Fabrikadagi ombar va bunkerlarni to'g'ri (o'rtachalashtirish nazariyasi talablari bo'yicha) to'ldirish va bo'shatishni tashkil qilib, o'rtachalashtirishning nisbatan yuqori samaradorligiga erishish mumkin.

### Tayanch so'z va iboralar

Namuna olish, talablar, vakil namuna, to'plovchi bunkerlar, yuk ortuvchi bunkerlar, o'rtachalashtirish, maqsad, tarkib, tebranishlar, o'rtachalashtirishombori.

### Nazorat uchun savollar

1. Namuna olgichlar qanday talablarga javob berishi kerak?
2. Bir soatda bir marta kesib olishga mo'ljallangan namuna massasi qanday aniqlanadi?
3. Namuna bo'luvchi stansiya qanday dastgohlarni o'z ichiga oladi?
4. Yirik namunani maydalash qanday dastgohlarda amalga oshiriladi?
5. Boyitish fabrikalarida bunkerlar qanday maqsadlar uchun ishlataliladi?
6. To'plovchi bunkerlar qanday vazifani bajaradi?
7. Yuk ortuvchi bunkerlarning kerakli sig'imi qanday aniqlanadi?
8. Boyitishdan oldim o'rtachalashtirish deganda nima tushuniladi?
9. O'rtalashtirishdan maqsad nima?

---

## V bob. BOYITISH FABRIKASINING BOSH REJASI

### 1. Fabrikani qurish uchun maydon tanlash

Fabrika qurish uchun maydon tanlash boyitish korxonasini loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Fabrikaning joylashgan o'mi mineral homashyoni ishlatish va boyitishning texnologik ko'rsatkichlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilmay, korxona loyihasining umumiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Fabrika joylashadigan maydonni to'g'ri tanlash quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- ruda va boyitmani tashish, chiqindilarni joylashtirish va suv ta'minoti uchun tejamli va ishonchli sharoit yaratish;
- fabrika va chiqindi xo'jaligini bir tekis va ishonchli ishlatish;
- shahar va fabrika orasida ishchilar uchun qulay havfsiz transport aloqalar;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishga qo'yilgan talablar va tadbirlarga to'liq javob berishi;

Qoidaga ko'ra fabrika kam hosilli va qishloq xo'jaligidagi ishlatishga yaroqsiz yerda joylashtirilishi kerak. Fabrikani foydali qazilma joylashgan maydonlarga qurishga maxsus texnik-iqtisodiy asoslash va kon nazorati organlari bilan kelishilgan hollardagina ruxsat etiladi.

Quyidagi hollarda fabrika qurishga ruxsat etilmaydi:

- fabrikani qurish va ishlatishga xavf soladigan ko'chkilar, sel oqimlari, qor ko'chkilar ehtimoli bo'lgan joylarda;
- ichimlik suv ta'minoti manbalarini sanitari qo'riqlash zonalarida;
- qo'riqxona va ularni himoyalash zonalarida;
- radiaktiv moddalar bilan zararlangan maydonlarda, sanitari xizmat organlari tomonidan belgilangan muddat tugaguncha.

Fabrikani qurish uchun maydon iqtisodiy umumqurilish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Bunday xususiyatga topografik va injener-geologik sharoitlar kiradi. Boyitish fabrikasi uchun maydonning yuzasi asosiy bino-

ning loyiha joylashtirish yechimlari va ularni ishlatish sharoitiga ta'sir qiladi.

Bu ruda va boyitish mahsulotlarini bir apparatdan ikkinchi apparatga o'z-o'zidan tushishini, ba'zi hollarda esa ishlab chiqarish binalari orasida o'z-o'zidan tashishni keng qo'llash bilan tushuntiriladi.

Agar fabrika boyitmani qabul qiluvchi zavoddan bir necha kilometr masofada joylashsa boyitmani gidravlik truboprovod orqali tashish variantini ko'rib chiqish kerak.

Agar boyitish fabrikasi qiya maydonda joylashsa o'z-o'zidan tashiluvchi transportni qo'llash orqali kapital va ekspluatatsion harajatlar kamayadi, lekin fabrika qurilishi harajatlari ortadi.

O'z-o'zidan tashiluvchi transportli boyitish fabrikalarini yuqoridagi birinchi operatsiyaga arzon keltiriluvchi va keyingi barcha operatsiyalarni o'z-o'zidan quyiluvchi maydonga joylashtirish tejamlı. Maydonning o'lchami tuzilishi boyitish fabrikasidagi texnologik jarayonning borishiga muvofiq bino va inshootlarini joylashtirish kerak. Maydon yaqinida joylashgan temiryo'l stansiyasiga yoki avtomobil yo'li bilan qulay bog'langan, imkonli boricha tekis yuzaga ega bo'lishi kerak.

Boyitish fabrikalarini maydoni imkonli boricha aholi yashaydigan punktlarga hamda suv, energiya ta'minoti obyektlariga yaqin joylashishi kerak, bunda boshqa fabrikalar bilan kooperativlashtirish imkonli yaratiladi.

Boyitish fabrikasi atrofi zararli ta'sir ko'rsatuvchi (tutun, chang, shovqin) manbai hisoblanganligi uchun uni aholi yashaydigan punktgaga nisbatan shamol yo'nalishiga qarama-qarshi maydonga joylashtirilishi va aholi yashaydigan rayon bilan sanitar-himoya zonasini ajratish kerak.

Sanitar-himoya zonasida yong'inga qarshi depo, hammom, garajlar, omborlar, ma'muriy xizmat, oshxona, ambulatoriya va hokazolarni joylashtirish mumkin. Sanitar-himoya zonasining maydoni obodonlashtirishgan va ko'kalamzorlashtirilgan bo'lishi kerak.

Boyitish fabrikasini qurish rayoni va maydonini tanlash loyihalashning texnik-iqtisodiy asoslash bosqichida amalga oshiriladi va vazirlilik yoki loyiha buyurtmachisi tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan tuzilgan akt orqali rasmiylashtiriladi.

## **2. Dastgohlarni joylashtirishning asosiy sxemalari**

Dastgohlarni joylashtirishning ikkita asosiy sxemasi- ko‘p qavatli va pog‘onali bir qavatli sxemalari mavjud.

Ko‘p qavatli sxema boyitish fabrikasi maydonining istalgan qiyaligida ishlatilishi mumkin. Maydonining tik qiyaligida dastlabki mahsulot maydonining yuqori qismidagi qabul qilish moslamalariga beriladi. Gorizontal yoki biroz qiyalik maydonlarda qabul qiluvchi moslamalar qoidaga ko‘ra, mahsulot yuqori qavatlarga tasmali konveyer yoki elevatorlar yordamida ko‘tariladi.

Pog‘onali bir bosqichli sxemalarda dastgohlar joyning gorizontaliga parallell joylashgan alohida pog‘onalarda joylashtiriladi. Barcha apparatlar past fundamentda o‘rnataladi. Dastgohlarni joylashtirishning bu ikki asosiy sxemasidan tashqari uchinchi – jamlashgan sxema ham mavjud bo‘lib, bunda dastgohlarning bir qismi birinchi,boshqa qismi esa ikkinchi sxema bo‘yicha joylashtiriladi.

Boyitish fabrikasining gorizontal maydonida dastgohlarni bitta sathda (bir qavatli sxema) joylashtirish mumkin.

## **3. Boyitish fabrikalarining tarkibi va bosh rejani loyihalash tamoyillari**

Dastlabki mahsulotni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan boyitish fabrikasining ishlab chiqarish bo‘limlariga quyidagilar kiradi: mahsulotni qabul qilish; yirik maydalash sexi,mahsulot omborlari, o‘rta va mayda maydalash sexi,yanchish sexlari (bo‘limi),boyitish sexi (bo‘limi), suvsizlantirish bo‘limi, quritish sexi, tayyor mahsulot omborlari, chiqindilarni chetlashtirish, yig‘ish sexi va h.k.

Fabrikaning yordamchi sex, bo‘limlariga quyidagilar kiradi: suv ta’minoti, elektr ta’minoti, reagent xo‘jaligi, ta’mirlash sexi, zaxira qismlari, material va yoqilg‘i omborlari, texnik nazorat bo‘limi, ilmiy tadqiqot va kimyoviy laboratoriya, fabrikani boshqaruv va ma’muriy – xo‘jalik xizmati.

Boyitish fabrikasining bosh rejasи deb bino, sex, inshootlar, temir yo'l, relssiz yo'l va boshqa komunikatsiyalarning o'zaro joylashish rejasiga ataladi.

Bosh rejaning loyihasi boshqa boyitish fabrikalari loyihasiga o'xshab ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Fabrika bosh rejasining asosiy qismini fabrika konveyer bilan qattiq bog'langan ishlab chiqarish bo'limlarining balandligi konveyerlar bilan qattiq bog'langan ishlab chiqarish bo'limlarining balandligi, shuningdek fabrikaga dastlabki mahsulotni berish va boyitmani yuklash transport inshootlari (temir yo'l, avtomobil yollari va h.k.) ning o'zaro joylashishini aks ettiruvchi inshootlar sxemasi tashkil etadi.

Bosh rejani ishlab chiqish inshootlar sxemasini tuzishdan boshlanib, uni keyingi yordamchi sex va xususiyatlari, transport yo'llarini injenerlik tarmoqlarini pasaytirish va obodonlashtirish va h.k lar inshootlar sxemasiiga yechimlariga buyurishi kerak.

Bosh reja va inshootlar sxemasini ishlab chiqishda quyidagi holatlarga asoslanish kerak.

1. Fabrika ishlab chiqarish binolarining inshootlar sxemasi sodda va ixcham bo'lib, ruda va boyitish mahsulotlarining eng kichik oqimlarini ta'minlashi kerak.


2. Rudani qabul qilish moslamalari tayyor mahsulotni yuklash uchun bunkerlari, yonilg'i va materiallar omborlari shunday joylashishi kerakki, bunda temir yo'llarni o'tkazish uchun yerni ishslash ishlarining hajmi minimal bo'lishi kerak.

3. Inshootlar sxemasini tuzishda, fabrika ayniqlsa, og'ir dastgohli ishlab chiqarish bo'limlarini joylashtirishda mahsulotning injiner-geologik va gidrogeologik sharoitlarini hisobga olish kerak.

4. Yordamchi binolar va moslamalarni, transfor mator klosklari va podstantsalar taqsimlovchi punktlar, shamollatish moslamalari , nasos stansiyalari va h.k larni alohida maydonda qurmasdan imkonli boricha ishlab chiqarish binosiga joylashtirish kerak.

5. Yordamchi sex va omborlarni ular xizmat ko'rsatadigan asosiy bo'limga yaqin joylashtirish kerak, masalan, ta'mirlash ustaxonasi va materiallar ombori ,reagent bo'limi va reagent ombori va h.k.

6. Inshootlarni joylashtirishda yoritilganlik, shamollatish va hokazolar borasida sanitar-texnik talablarini hisobga olish kerak.




**20-rasm. Katta ishlab chiqarish unumdarligiga ega flotatsiya fabrikasining bosh rejasi**

1-yirik maydalash bo‘limi; 2-tasmali konveeyerlar galereyasi; 3-yirik maydalangan ruda bunkerı; 4-o‘rtalı va mayda maydalash bo‘limi; 5-yanchish, flotatsiya va qutiltirish bo‘limlarini o‘z ichiga olgan asosiy bo‘lim; 6-reagentlar tayyorlash va saqlash bo‘limi; 7-boyitmani uzatish galereyasi; 8-boyitmani quyiltirish bo‘limi; 9-kislород saqlash xujrasi; 10-ombor; 11-vulkanizasiyalash ustahonasi; 12-shina uzatish ucun osma ko‘prik; 13-og‘ir tarozilar ombori; 14-kompressorlar honasi; 15-chiqindi uzatish; 16-issiq o‘tish joylari; 17-aylanma suv rezervuari; 18-ma’muruy bino; 19-soda ombori; 20-bosh bino; 21-asosiy d’okon; 22-ta’mirlash bloki; 23-kislород stansiyasi; 24-kimyoviy laboratoriya; 25-zavod boshqarmasi; 26-oshxona; 27-o‘tish joyi; 28-to‘siq bloki; 29-ruda tashiluvchi yo‘l.

7. Binolar, inshootlar va transport orasidagi o‘tish joylari va uzilish gabaritlari va transport yo‘llari, yong‘in va sanitar shartlari talablariga javob berishi kerak. Komunikatsiya tarmoqlari iloji boricha to‘g‘ri chiziqli joylashishi kerak. Truboprovodlarni yo‘llar temir yo‘l yo‘llari ostiga va ularga tegib turadigan joylarga joylashtirish mumkin emas.

8. Bino va inshootlarni iloji boricha ixcham joylashtirishga erishish, ko'p sonli kichik binolarni qurishdan voz kechish, ularni bitta binoga birlashtirishga erishish kerak. Bo'limlar oddiy shaklga ega bo'lishi kerak.

Katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega flotatsiya fabrikasining bosh rejası 21-rasmda keltirilgan.



**21-rasm. Katta ishlab chiqarish unumdorligiga ega flotatsiya fabrikasi inshootlarining sxemasi**

1-ruda tashish yo'llari; 2-yirik maydalash bo'limi; 3-yirik maydalangan ruda bunkerı; 4-o'rta va mayda maydalash bo'limi; 5-bosh bino; 6-reagentlatni tayyorlash bo'limi va ombori; 7-yonuvchi va moylovchi materiallar ombori; 8-vulkanizatsiya ustaxonasi; 9-kompressorlar xonasi; 10-og'ir dastgohlar ombori; 11-ma'muriy-maishiy bo'lim; 12-konveeyerlar galereyasi; 13-reagent beruvchi uzatma; 14-shina uzatkich; 15-issiq o'tish joylari; 16-bo'tanani uzatish galereyasi.

Ruda 3 bosqichda maydalananadi. Ruda to'inkariluvchi vagonlardan to'g'ridan to'g'ri maydalagichlarga tushadi. Fabrika maydoni biroz qiyalikka ega.

Yirik maydalangan ruda yirik maydalangan ruda omboriga beriladi. Ombordan ruda ta'minlagichlar yordamida o'rta va mayda maydalash bo'limlariga beriluvchi uchta konteynerga yuklanadi. Konteynerlar yarim doira shaklida joylashgan bo'lib, har qaysi uchta maydalagichdan – bitta o'rta maydalovchi konusli maydalagich va ikkita mayda maydalovchi

konusli maydalagichlardan iborat kaskadni taminlaydi. Maydalagichlardan oldin elaklar o'matilgan. Maydalangan ruda umumiylar kanveyer orqali yanchish va flotatsiya sexlari joylashgan bosh binoning bunkeriga tushadi.

Maydalash bo'limining joylashish sxemasi o'zining soddaligi bilan ajralib turadi: yirik maydalash bo'limidan chiqqan ruda oqimi maydalashning qiyaligi bo'yab harakatlanib, oraliq bunkerdan keyin gorizontalga paralel, paralel va mayda maydalash bo'limidan chiqib yana qiyalik chizig'i bo'yab harakatlanadi.

Bosh binoda yanchish va flotatsiya dastgohlaridan tashqari flotatsiya-ning oraliq mahsulotlari uchun katta quyultirilgichlar o'matilgan.

#### **4. Chiqindi xo'jaligi, aylanma suv ta'minoti va yerni qayta tiklash**

Chiqindi va jinslarni qayta ishlash foydali qazilmalarni kompleks ishlatishni oshiradi.

Boyitmada ajratib chiqadigan jins va chiqindilarni ishlatish xalq xo'jaligi uchun yangi mahsulotlarni olish imkonini beradi, omborlarda to'planadigan chiqindilarning miqdorini kamaytiradi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarini behuda band qilishining oldi olinadi. Shuning uchun boyitish fabrikalarini loyihalashda foydali qazilmalarni kompleks ishlatish masalalari ham ishlab chiqiladi. Qayta ishlashning texnologik sxemalari foydali qazilmalarni boyituvchanligini o'rganish natijalari asosida ishlab chiqiladi. Chiqindilarining bir qichmi kon ishlari davomida hosil bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirishda ishlatiladi. Magnititli rudalarni quruq magnitli separatsiyalashning yirik chiqindilari qurilish shag'ali ishlatilishi mumkin. Magnit boyitish qabrikalarini mayda yanchilgan kvarsli qumlari silikatli g'isht ishlab chiqarishda qo'llanishi mumkin va h.k.

Chiqindilarni cheklashtirish, yig'ish, chiqindi suvlarini tindirish va tozalash, boyitish fabrikalarida aylanma suv ta'minotini tashkil etish katta kapital harajatlar va ekspluatatsiya sarflarini talab qiluvchi yirik gidrotexnik inshootlarni qurishni talab etadi. Boyitish fabrikasining chiqindi xo'jaligini loyihalash uchun maxsus gidrotexnik tashkilotlar jalb qilinadi.

Mayda va suyuq chiqindilarni tashish va yig'ishning asosiy usuli bo'tanani boyitish fabrikasidan qattiq zarralarning cho'kishi sodir bo'ladigan tabiiy yoki sun'iy yasalgan hovuz, chiqindi xonagacha gidravlik transportdir. Bu usul quyidagi afzalliklarga ega: Chiqindilar to'plab qo'yiladi va ularni keyinchalik ishlatish mumkin., chiqindilar uncha katta bo'lman maydonda yig'iladi., aylanma suv sifatida ishlatishdan oldin yoki ochiq havzalarga tashlanmasdan oldin oqova suvlarni kimyoviy tozalash va tindirish uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu usulning kamchiligi: qimmatbaho gidrotexnik inshootlar (damba, tindirilgan suvni tashlash uchun moslama va x.k) qurish zarurligidir.

Chiqindixona uchun joy maydonni topografik, injiner- geologik va gidrogeologik o'rganish natijalari asosida tanlanadi. Chiqindixona uchun maydon tanlashda quyidagi sharoitlami hisobga olish kerak:

1) maydon boyitish fabrikasini ekspluatatsiya qilishning oxirigacha chiqindidarni joylashtirishga yetarli bo'lishi kerak;

2) agar chiqindi tarkibida kelajakda ishlatilishi mumkin bo'lgan qimmatbaho komponentlarni saqlasa yoki bu chiqindi sanoatning boshqa bir tarmog'ida ishlatilishi mumkin bo'lsa, chiqindini oson usulda yuklashni ko'zda tutish kerak;

3) chiqindilarni tashishni soddalashtirish va arzonlashtirish maqsadida chiqindixonani boyitish fabrikasidan pastroq sathda joylashtirish lozim;

4) chiqindixona boyitish fabrikasidan uzoqroqda joylashsa, aylanma suvni ishlatish uchun fabrikaga yaqin joyda chiqindini quyultirish iqtisodiy jihatdan afzal;

5) qurilishlar maydoni chegarasi va chiqindixona oralig'idagi masofa 1 km dan kam bo'lmasligi kerak.

### Tayanch so'z va iboralar

Bosh reja, qurilish maydoni, joylashish o'mi, o'matish shemalari, boyitish fabrikalari tarkibi, o'zaro joylashish, inshootlar shemasi, sanitary me'yorlar, transport, chiqindixona, aylanma suv na'minoti.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Fabrikani qurish uchun tanlangan maydon qanday talablarga javob berishi kerak?
2. Qanday hollarda fabrika qurish uchun ruxsat berilmaydi?
3. Sanitariya - himoya zonasida qanday bo‘limlarni joylashtirish mumkin?
4. Boyitish fabrikasini qurish rayoni va maydonini tanlash loyihanung qaysi bo‘limida amalga oshiriladi?
5. Dastgohlarni joylashtirishning qanday sxemalari mavjud?
6. Boyitish fabrikasi qanday bo‘limlardan tashkil topadi?
7. Bosh reja va inshootlar sxemasini tuzishda nimalarga asoslanish kerak?
8. Chiqindihona uchun maydon tanlashda qanday sharoitlarni hisobga olish kerak?

## GLOSSARIY

Boyitish fabrikasini loyihalash-kelajakda ishga tushadigan fabrikani qurish, montaj va ekspluatatsiya qilish uchun kerak bo‘ladigan texnik hujjalarning yig‘indisi.

Flotatsiya fabrikasi – ruda tarkibidagi qimmatbaho komponentni flotatsiya usulida ajratib olishga mo‘ljallangan sanoat korxonasi.

Boyitma – tarkibidagi qimmatbaho komponentning miqdori rudadagiga nisbatan yuqori bo‘lgan boy mahsulot.

Chiqindi – asosan puch tog‘ jinslaridan tashkil topgan mahsulot.

Mahsulot tannarxi – bir to‘nna rudani boyitishga sarflangan harajatlar.

Texnologik ko‘rsatkichlar – boyitish samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar.

Smeta – boyitish fabrikasi va uning alohida sexlarining qurilish qiyamatini belgilovchi hujjat.

Texnologik operatsiyalar – foydali qazilmaning sifatini o‘zgartirish maqsadida o‘tkaziladigan mexanik operatsiyalar.

Sifat sxemasi – foydali qazilma va boyitish mahsulotlarining sifatiga doir malumotlarni o‘z ichiga olgan sxema.

Miqdor sxemasi – foydali qazilma va boyitish mahsulotlarining miqdoriga doir malumotlarni o‘z ichiga olgan sxema.

Shlam sxemasi – alohida operatsiyalar va mahsulotlarga qo‘shildigan suvning miqdorini ko‘rsatuvchi sxema.

Prinsipial sxema – sifat sxemasining asosiy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi sxema.

Boyitish bosqichlari – dastlabki ruda bilan o‘tkaziladigan boyitish operatsiyalarining majmuyi.

Boyitmaning sifatiga qo‘yiladigan talablar – boyitma tarkibidagi asosiy qimmatbaho komponentlar va zararli qo‘shimchalarning miqdoriga qo‘yiladigan talablar.

Konning faoliyat ko‘rsatish yillari – konning foydali qazilma zahiralarini korxonaning yillik ishlab chiqarish unumdorligiga nisbati.

Mashina vaqtı – dastgohlarning to‘liq yuk ostida ishlashining hisoblash vaqtı.

Kalendar vaqt – berilgan vaqt oralig‘idagi to‘liq soatlar soni.

Ish vaqtı – texnologik dastgohlarga xizmat ko‘rsatishning hisob vaqtı.

Notekislik koeffisienti – fabrikaga kelib tushadigan mahsulot xossalariđagi notekislikni hisobga oluvchi koeffisient.

Yirik maydalangan mahsulot ombori – fabrikada o‘rtalama mayda maydalash bo‘limining ish tartibini rudani kondan berish tartibiga bog‘liq bo‘limgan holda tanlash uchun mo‘ljallangan ombor.

Ruda tayyorlash operatsiyalari – rudani boyitishga tayyorlash maqsadida o‘tkaziladigan maydalash, elash, yanchish va klassifikatsiya operatsiyalarining yig‘indisi.

Maydalash – ruda bo‘laklarining o‘lchamini tashqi kuch ta’sirida kichraytirish.

Maydalash operatsiyalari – foydali qazilmani tegrimonda yanchish uchun tayyorlash maqsadida o‘tkaziladigan operatsiya.

Maydalash bosqichi – maydalash operatsiyasining o‘ziga tegishli elash operatsiyasi bilan birgaligi.

Maydalash sxemasi – maydalash bosqichlarining yig‘indisi.

Maydalash darajasi – rudadagi eng katta bo‘lak o‘lchamining maydalangan mahsulotdagagi eng katta bo‘lak o‘lchamiga nisbati.

Umumiy maydalash darajasi – alohida maydalash bosqichlaridagi maydalash darajalarining ko‘paytmasi.

Dastlabki elash operatsiyasi – maydalagichga tushayotgan mahsulot miqdorini kamaytirish maqsadida kiritiladigan operatsiya.

Tekshiruvchi elash operatsiyasi – maydalanmay qolgan mahsulotni maydalagichga qaytarish uchun qo‘llaniladigan operatsiya.

O‘zida o‘zini yanchish – yanchuvchi vosita sifatida boyitiluvchi mahsulotning yirik bo‘laklari ishlataluvchi yanchish operatsiyasi.

Granulometrik tartib – qazib olingan rudani sinflar bo‘yicha taqsimlanishi.

Qattiqlik – maydalanishga ko‘rsatiladigan qarshilik kuchi.

Kritik o‘lchamli bo‘laklar – o‘lchami maydalagichning yuklash tuynigi o‘lchamiga teng bo‘laklar.

**Elash** – mahsulotni bir yoki bir nechta elaklar yordamida elab sinflarga ajratish.

**Elash samaradorligi** – ma'lum sinfning elakosti mahsulotining miqdorini shu sinf-ning dastlabki rudadagi miqdoriga nisbati.

**Maydalagichning yuklash koeffisienti** – talab qilinadigan ishlab chiqarish unumdorligini maydalagichning ishlab chiqarish unumdorligiga nisbati.

**Yanchish** – mahsulot o'lchamini 10 – 15mm dan 0,1 – 0,4mm gacha kichraytirish operatsiyasi.

**Yanchishning ochiq sikli** – bunda mahsulot tegirmondan faqat bir marta o'tadi va tayyor yanchilgan mahsulot olinadi.

**Yanchishning yopiq sikli** – bunda klassifikatsiyalanib ajratib olingan qum yana tegirmonga qaytariladi.

**Tegirmon ichida aylanuvchi yuk** – tegirmonga qaytariluvchi klassifikatsiyalanib ajratib olingan qum.

**Flotatsiya** – mineral zarra yuzasining fizik – kimyoviy xossalardagi farqqa asoslangan boyitish usuli.

**Asosiy flotatsiya** – flotatsiyaon boyitishning birinchi operatsiyasi, uning natijasida homaki boyitma va chiqindi olinadi.

**Nazorat flotatsiyasi** – chiqindini qaytadan flotatsiyalash.

**Tozalash flotatsiyasi** – boyitmani sifatini oshirish maqsadida qayta flotatsiyalash.

**Mahsulotning chiqishi** – boyitish natijasi olingan mahsulot og'irligining dastlabki ruda og'irligiga nisbati.

**Boyitish darajasi** – boyitish natijasida olingan boyitmadiagi qimmatbaho komponent miqdorining dastlabki rudadagiga nisbatan necha marta ortganligini ko'rsatuvchi kattalik.

**Bo'tananing zichligi** – bo'tanadagi suyuqlikning qattiq zarralarga nisbati.

**Suv balansi** – jarayonlarga tushayotgan umumiyligining suvning miqdori ohirgi mahsulotlar bilan chiqib ketayotgan suvning miqdoriga teng bo'lgan holat.

**Yanchuvchi vosita** – rudani yanchish uchun tegirmon ichiga solinuvchi sharlar yoki sterjenlar.

**Shlamlanish** – o'ta yanchilish.

Apparatning solishtirma ishlab chiqarish unum dorligi – apparatning har m<sup>2</sup> yuzasidan vaqt birligi orasida o'tadigan mahsulot massasi.

Klassifikatsiya – mineral zarralarni tushish tezligidagi farqqa asoslanib sinflarga ajratish operatsiyasi.

Gidrosiklon – yanchilgan mahsulotni quyilma va qunga ajratuvchi silindrik va konussimon qismlargacha ega apparat.

Cho'ktirish mashinalari – mineral zarralarni zichligidagi farqqa asoslanib boyitishga mo'ljallangan mashina.

Cho'ktirish mashinasining o'rindig'i – mashinada mahsulotni yaxshiroq g'ovaklanishini ta'minlash maqsadida panjara ustiga o'matiladigan mahsulot.

Vertikal tebranuvchi suv oqimi – porshin yoki diafragma yordamida hosil qilinuvchi goh ko'tarilib, goh pasayuvchi suv oqimi.

Konsentratsion stol – yuqori zichlikka ega minerallarni ajratib olishga mo'ljallangan trapetsiya yoki parallelogramma shaklidagi yuzaga ega apparat.

Shlyuz – to'g'ri to'rburchak kesimli, tubiga junli mato yoki trafaret to'shaluvchi tarmov.

Bo'tanani aeratsiyalash – bo'tanani havoga to'yintirish.

Impeller – mexanik flotomashinalarga bo'tanani aralashtirish, tash-qaridan havoni so'rish va so'rilgan havoni maydalash uchun o'matiladigan vertikal o'qqa maxkamlangan parrak.

Pnevmatik flotomashina – bo'tanani aralashtirish, so'rilgan havoni maydalash havo yordamida amalga oshiriladigan mashina.

Flotatsiya tezligi – flotatsiya mashinasidan vaqt birligida o'tadigan bo'tana oqimi.

Magnit separatori – magnit xususiyatiga ega minerallarni ajratib olishga mo'ljallangan apparat.

Suvsizlantirish – boyitish mahsulotlaridan suvni ajratish.

Quyiltirish – bo'tanadagi qattiq zarralarni og'irlilik kuchi ta'sirida cho'ktirib suvni ajratish usuli.

Filtrash – bo'tanadagi qattiq zarralarni suvdan g'ovak to'siq orqali o'tkazib ajratish.

Quritish – mahsulot tarkibidagi suvni harorat ostida bug'latib yoqotish.

**Cho'ktiruvchi sentrifugalar – mahsulot tarkibidagi qattiq zarralarni markazdan qochirma kuch ta'sirida ajratuvchi apparat.**

**Boyitmaga ajralish** – boyitmadiagi qimmatbaho komponentning miqdorini shu komponentning dastlabki rudadagi miqdoriga nisbatini boyitmaning chiqishiga ko'paytmasi.

## ADABİYOTLAR

1. Бакланов И.В., Антонов Г.П., Борисов В.Н. Проектирование зданий и сооружений горных предприятий. М.: Недра, 1995.
2. Бастан П.П., Азбель Е.И., Ключин Е.И. Теория и практика усреднения руд. М.: Недра, 1996.
3. Белогай П.Д., Задорожный В.Г. Конусные сепараторы для обогащения россыпей и руд. М.: Недра, 1998.
4. Гордон Г.М., Пейсаход И.Л. Пылеулавливание и очистка газов в цветной металлургии. М.: Металлургия, 1997.
5. Захваткин В.К. Анализ зарубежного опыта рудного самоизмельчения медных и медно-молибденовых руд. М.: Цветметинформация, 1995.
6. Кармазин В.И., Кармазин В.В. Магнитные методы обогащения. М.: Недра, 2000.
7. Митрофанов С.И., Барский Л.А., Самыгин В.Д. Исследования полезных ископаемых на обогатимость. М.: Недра, 1994.
8. Олевский В.А. Размольное оборудование обогатительных фабрик. М.: Госгортехиздат, 2003.
9. Поваров А.И. Гидроциклоны на обогатительных фабриках. М., Недра, 2008.
10. Разумов К.А. Пути повышения производительности замкнутого цикла измельчения // Горный журнал, 1993. №11.
11. Руденко К.Г., Шемаханов М. М. Обезвоживание и пылеулавливание на обогатительных фабриках. М.: Недра, 1997.
12. Справочник по обогащению руд. В 3-х томах/ Гл. ред. О.С. Богданов. Т. 1. Подготовительные процессы. . М.: Недра, 2001.
13. Справочник по обогащению руд. В 3-х томах. Т. 2. Основные и вспомогательные процессы. Ч.1. Основные процессы. М.: Недра, 2004.
14. Справочник по обогащению руд. В 3-х томах. Т. 2. Основные и вспомогательные процессы. Ч.2. Специальные и вспомогательные процессы, испытания обогатимости, контроль и автоматика. М.: Недра, 1994.
15. Справочник по обогащению руд. В 3-х томах. Т. 3. Обогатительные фабрики. М.: Недра, 1998.
16. Филиппов В.А. Конструкция, расчеты и эксплуатация устройств и оборудования для сушки минерального сырья. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Недра, 2000.
17. Яцин В.П., Бортников А.В. Теория и практика самоизмельчения. М.: Недра, 2008.
18. Андреев С.Е., Перов В.А., Зверевич В.В. Дробление, измельчение и грохочение полезных ископаемых. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Недра, 1992.

## M U N D A R I J A

### **So‘z boshi..... 3**

### **I bob. UMUMIY BO‘LIM**

1. Boyitish fabrikasi loyihasining mazmuni va hajmi.....	4
2. Boyitish fabrikasini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar.....	9
3. Loyihalashni tashkil etish .....	13
4. Boyitish fabrikalarining tasnifi .....	13
5. Asosiy tushunchalar, terminlar va shartli belgilar.....	14
6. Boyitmaning sifatiga qo'yiladigan talablar.....	16
7. Boyitish egri chiziqlari.....	18

### **II bob. BOYITISH FABRIKASI VA UNING ALOHIDA SEXLARINING ISHLAB CHIQARISH UNUMDORLIGINI HISOBBLASH**

1. Boyitish fabrikasi ishlab chiqarish unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar.....	22
2. Boyitish fabrikasi va uning sexlarining ishlab chiqarish unumdorligini aniqash.....	23
3. Fabrika bosh binosining ishlash tartibi.....	24

### **III bob. TEXNOLOGIK SXEMALARINI TANLASH VA HISOBBLASH**

1.Maydalash sxemasini tanlash.....	29
2. Rudani o‘zida – o‘zini yanchishga tayyorlashdagi maydalash sxemalari.....	40
3. Maydalash sxyemasini hisoblash .....	44
4.Yanchish sxemalarini tanlash va hisoblash .....	50
5. Alohida turdagи polimetal rudalar uchun flotatsiyaning printsiplial sxemalarini tanlash.....	57
6. Boyitishning alohida sikl va bosqichlarida flotatsiya sxemalarini tuzish.....	58
7. Boyitish jarayonining miqdor sxemasini hisoblash .....	62
8. Suv sarfi sxemasini loyihalash va hisoblash .....	69

### **IV bob ASOSIY BOYITISH DASTGOHLARINI TANLASH VA TEXNOLOGIK HISOBBLASH**

1.Dastgohlarni tanlash va texnologik hisoblashning umumiyl prinsiplari.....	79
2. Maydalash uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash .....	82
3. Elash uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash .....	85
4. Yanchish uchun tegirmonlarni tanlash va hisoblash .....	88

5. Klassifikatsiya uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash.....	95
6. Gravitatsiya usulida boyitish dastgohlarini tanlash va hisoblash.....	100
7. Flotatsiya uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash .....	114
8. Magnitli boyitish uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash.....	121
9. Suvsizlantirish uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash.....	123
10. Quritish uchun dastgohlarni tanlash va hisoblash.....	136
11. Chang ushslash uchun dastgohlarni tanlash .....	137
12. Namuna oluvchi va uni bo‘lувчи dastgohlarni tanlash va hisoblash.....	140
13. Bunker va omborlarning hajmini tanlash bo‘yicha asosiy holatlar.....	141
14. Ruda va ko‘mirlarni boyitishdan oldin o‘rtachalashtirish.....	145

## **V-bob. BOYITISH FABRIKASINING BOSH REJASI**

1.Fabrika qurilishi uchun maydonni tanlash.....	147
2.Dastgohlarni joylashtirishning asosiy sxemalari.....	149
3.Boyitish fabrikasining tarkibi va bosh rejani loyihalash prinplari.....	149
4.Chiqindi xo‘jaligi, aylanma suv ta’minoti va yerni qayta tiklash.....	153
Glossariy.....	156
Adabiyotlar .....	161

# **О Г Л А В Л Е Н И Е**

## **ГЛАВА I. ОБЩАЯ ЧАСТЬ**

1. Содержание и объем проекта обогатительной фабрики
2. Исходные данные для проектирования обогатительной фабрики
3. Организация и порядок проектирования
4. Классификация обогатительных фабрик
5. Основные понятия, терминология и условные обозначения
6. Требования к качеству концентратов
7. Кривые обогатимости

## **ГЛАВА II. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКИ И ОТДЕЛЬНЫХ ЕЕ ЦЕХОВ**

1. Факторы, влияющие на выбор производительности фабрики
2. Расчеты производительности фабрики и ее цехов
3. Режим работы главного корпуса фабрики

## **ГЛАВА III. ВЫБОР И РАСЧЕТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СХЕМ**

1. Выбор схемы дробления
2. Схемы дробления при подготовке руды к самоизмельчению
3. Расчет схемы дробления
4. Выбор и расчёт схем измельчения
5. Выбор принципиальной схемы флотации для отдельных типов полиметаллических руд
6. Построение схемы флотации в отдельных стадиях и циклах измельчения
7. Расчет количественных схем и флотации
8. Проектирование и расчет шламовой схемы, баланс воды

## **ГЛАВА IV. ВЫБОР И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ РАСЧЕТ ОСНОВНОГО ОБОГАТИТЕЛЬНОГО ОБОРУДОВАНИЯ**

1. Общие принципы выбора и технологического расчета оборудования
2. Выбор и расчет оборудования для дробления
3. Выбор и расчет оборудования для грохочения
4. Выбор и расчет оборудования для измельчения
5. Выбор и расчет оборудования для классификации
6. Выбор и расчет оборудования для обогащения гравитационными процессами
7. Выбор и расчет оборудования для флотации
8. Выбор и расчет оборудования для магнитного обогащения
9. Выбор и расчет оборудования для обезвоживания
10. Выбор и расчет оборудования для сушки
11. Выбор оборудования для пылеулавливания
12. Выбор и расчет оборудования для отбора и разделки проб
13. Основные положения по выбору вместимости бункеров и складов
14. Усреднение руд и углей перед обогащением

## **ГЛАВА V. ГЕНЕРАЛЬНЫЙ ПЛАН ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКИ**

1. Выбор площадки для строительства фабрики
2. Основные схемы компоновки оборудования
3. Состав обогатительных фабрик и принципы проектирования генеральных планов
4. Хвостовое хозяйство, оборотное водоснабжение и рекультивация земель

Литература

## **TABLE OF CONTENTS**

### **HEAD I. INTRODUCTION**

- 1.The maintenance and volume of the project to concentrating factory
- 2.Initial data for designing of concentrating factory
- 3.The organisation and a designing order
- 4.Classification of concentrating factories
- 5.The basic concepts, terminology and symbols
- 6.Requirements to quality of concentrates
- 7.Curves enrichment

### **HEAD II. DEFINITION OF PRODUCTIVITY OF CONCENTRATING FACTORY AND ITS SEPARATE SHOPS**

- 1.The factors influencing a choice of productivity of factory
- 2.Calculations of productivity of factory and its shops
- 3.Operating mode of the main case of factory

### **HEAD III. TO CHOOSE AND CALCULATION OF TECHNOLOGICAL SCHEMES**

- 1.A choice of the scheme of crushing
- 2.Crushing schemes by preparation of ore for self-crushing
- 3.Calculation of the scheme of crushing
- 4.A choice and calculation of schemes of crushing
- 5.A choice of the basic scheme of flotation for the separate
- 6.Construction of the scheme of flotation in separate stages and cycles crushing
- 7.Calculation quantitative flotation schemes
- 8.Designing and calculation of slurry schemes, balance of water

### **HEAD IV. A CHOICE AND TECHNOLOGICAL CALCULATION OF THE BASIC CONCENTRATING EQUIPMENT**

1. The general principles of a choice and technological calculation the equipment
2. A choice and calculation of the equipment for crushing
3. To choose and calculation of the equipment for passage through a sieve
4. A choice and calculation of the equipment for crushing
5. A choice and calculation of the equipment for classification
6. A choice and calculation of the equipment for enrichment by the gravitational processes
7. A choice and calculation of the equipment for flotation
8. A choice and calculation of the equipment for magnetic enrichment
9. A choice and calculation of the equipment for dehydration
10. A choice and calculation of the equipment for drying
11. A choice of the equipment for dust catching
12. A choice and calculation of the equipment for selection and cutting of tests
13. The position core for choice capacity bunkers and warehouses
14. Averaging of ores and coals before enrichment

## **HEAD V. THE MAIN THE PLAN CONCENTRATING FACTORY**

1. A choice of a platform for building factory
  2. The basic schemes of configuration of the equipment
  3. Structure of concentrating factories and designing principles  
General plans
  4. A tail economy turnaround water supply and neutralization
- The literature list

***UMAROVA INOYAT KARIMOVNA***

**BOYITISH FABRIKALARINI  
LOYIHALASH**

*Darslik*

*Muharrir E. Bozorov  
Badiiy muharrir M. Odilov  
Kompyuterda sahifalovchi Saydalixo'jayeva*

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 02.12.2015-y.da berildi.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog'ozzi №2.  
«Times» garniturasi. Shartli b.t. 9,7. Nashr hisob t. 10,0.  
Adadi 60 dona. 68-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” Nashriyoti  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li, 7.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI”  
bosmaxonasida chop etildi.  
100000, Toshkent, Amir Temur 60<sup>“A”</sup>-uy.